

SCIENCE AND EDUCATION NEWS

Internacional scientific, methodical and popular journal

2026
issue 2

https://t.me/saen_2024

saen_2024@mail.ru

www.saen.uz

Google Scholar
ResearchGate
Crossref
WORLD of JOURNALS

"FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI"

xalqaro ilmiy-metodik jurnali

2026-yil, 2-son
Jurnal 2024-yildan chiqa boshlagan

Toshkent – 2026

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Bosh muharrir:
Shoumarov G'ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), akademik

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qodirov Umarali Do'stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib:
Muqimov Alisher

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.
Telefon: +998 94 201 14 48
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694

TAHRIR HAY'ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A'zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A'zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo'lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To'xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o'g'li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To'xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
Yusupov Ahmadbek Tadjiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
G'ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor

Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Ahtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

MUNDARIJA

Karimova V.M. Gender tenglik muammolarini tadqiq etishning ayrim metodologik tamoyillari……. 7
Саидов Б.О. Факторы миграции и классификация мигрантов …..... 14
Shamsiyev O'.B. Bolalarda chapaqaylik: psixologik xususiyatlar va korreksion yondashuvlar……. 24
Abdusamatov X.U., Madjidova D.A. Xorij multfilmlarida o'zbek bolalarining milliy o'zligiga qarshi ommaviy madaniyatni targ'ib qiluvchi obrazlar: tahlil va tahdid…… 30
Нурлыханкызы Е., Джамашова Г.А. Нейропсихологические корреляты тревожности при хроническом стрессе……. 37
Maxmudova D.B., Madraximova I.B. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishda ijtimoiy va psixologik faktorlarning o'rni……. 44
Abdurashidov A.A. Xalq milliy o'yinlari maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning ta'sirchan vositasi sifatida ……..... 50
Sattorova M.D. Pedagoglarda kommunikativ tolerantlikning psixologik determinantlari…….. 57
Axmedova N. Neyrolingvistika va unga oid masalalar……. 64
Axmedova D.O. Migratsiya tajribasining oilaviy munosabatlar va ruhiy barqarorlikka ta'siri……. 72
Sarsenbayeva R.M. Eng qadimgi davrda tarbiyaning ilk shakllari…….. 79
Сафарова З.М. Модель формирования лингвокультурной компетенции учащихся старших классов в узбекской школе…….. 86
Рахманова С.Г. Лингвокультурные маркеры и оценочность в паремиях: сравнительный аспект…… 92
Abdusattarova S. Pedagogika fanlarini o'qitishda "4K" modelidan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari..... 98
Tojiboev R.I. Tarix fanining oliy ta'lim muassasalarida o'qitilishi tarixi……. 106
Turdimuradov D.Ch. Conceptual analysis of cyber terms……..... 112
Xayrullayeva M.X. O'spirinlarda onlayn faoliyat va ruhiy holat o'rtasidagi bog'liqlik… 117
Umarov B.A. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida moliya-xo'jalik faoliyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish: O'zbekiston va MDH davlatlari tajribasi…… 123
Nurmonov A.X. Er-xotin o'rtasidagi ziddiyatlarning farzand tarbiyasiga ta'siri……. 132
Olimjonova Z.B. Er-xotin o'rtasida nikoh munosabatlari barqarorligini ta'minlovchi psixologik determinantlar……. 139
Alixonova Y.A. Shaxs emotsional holatlarining psixologik tahlili……. 147
Jumayev I.N. Sun'iy intellekt asosida individualizatsiyalangan pedagogik o'yinlarning o'quv motivatsiyasiga ta'siri..... 152

UDK 301.162:305:001.89

GENDER TENGLIK MUAMMOLARINI TADQIQ ETISHNING AYRIM METODOLOGIK TAMOYILLARI

Karimova Vasila Mamanosirovna,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti professori,
psixologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda olib borilayotgan gender siyosatning o‘ziga xosligi, gender psixologiyasi bo‘yicha qo‘lga kiritilgan ilmiy yangiliklar, gender tenglikka oid normativ hujjatlarning ushbu yo‘nalishlarda olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun birlamchi metodologik asos ekanligi ta’kidlangan. Muallif o‘zi hamda shogirdlari bilan olib borgan tadqiqotlari asosida oilaning gender sotsializatsiya uchun muhim maskan ekanligi, oilada bajaradigan psixologik rollariga bog‘liq tarzda oilaviy shaxslararo munosabatlarda ayollar mavqei hamda pozitsiyasining ijobiy tomonga o‘zgarayotganligi empirik natijalar asosida dalillangan.

Kalit so‘zlar: gender, gender sotsializatsiya, gender tenglik, oilaviy shaxslararo munosabatlar, oilaviy rollar, oilaviy mavqe, erkak va ayollar ijtimoiy tasavvurlaridagi o‘ziga xosliklar.

НЕКОТОРЫЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОБЛЕМ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА

Аннотация. В данной статье подчеркивается специфика гендерной политики, проводимой в Узбекистане, научные достижения в области гендерной психологии, а также то, что нормативные документы по гендерному равенству служат первичной методологической основой для проводимых в этих направлениях научных исследований. На основе исследований, проведенных автором и его учениками, эмпирически доказано, что семья является важной средой гендерной социализации, а положение и статус женщин в межличностных семейных отношениях положительно изменяются в зависимости от психологических ролей, выполняемых внутри семьи.

Ключевые слова: гендер, гендерная социализация, гендерное равенство, межличностные семейные отношения, семейные роли, семейный статус, особенности социальных представлений мужчин и женщин.

SOME METHODOLOGICAL PRINCIPLES FOR STUDYING GENDER EQUALITY ISSUES

Abstract. This article highlights the specificity of gender policy implemented in Uzbekistan, scientific advancements in the field of gender psychology, and the

role of normative documents on gender equality as a primary methodological foundation for scientific research conducted in these areas. Based on empirical studies carried out by the author and his students, it is demonstrated that the family serves as a crucial site for gender socialization, and that the position and status of women in familial interpersonal relationships are positively evolving depending on the psychological roles performed within the family.

Keywords: gender, gender socialization, gender equality, familial interpersonal relationships, family roles, family status, specificities of social perceptions of men and women.

Gender psixologiya va gender tenglik muammolari ijtimoiy psixologiyada nisbatan kam o‘rganilgan ilmiy muammolardan hisoblanadi. Shunga qaramay, oila va undagi ijtimoiylashuv jarayonlari doirasida gender sotsializatsiya, oilaviy o‘zaro munosabatlar tizimida erkak va ayol o‘zaro munosabatlari, oilaviy rollar va ularning taqsimotida erkak va rafiqaning ulushi hamda bundagi tenglik, qiz va o‘g‘il bola tarbiyasiga qo‘yiladigan o‘ziga xos psixologik talablar ijtimoiy jins muammosi doirasida o‘rganilishi allaqachon an’anaga aylangan. Ayniqsa, global o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalarning nafaqat oiladagi maishiy-ro‘zg‘or muammolari, balki bevosita o‘zaro muloqot va munosabatlar jabhasiga tez kirib kelayotganligi gender tenglik muammolarini oiladan boshlab, to keng miqyosdagi jamiyat qadriyatlari tizimida o‘rganishni taqozo etmoqda.

Yangi O‘zbekiston o‘z mustaqil siyosatiga ega bo‘lgan mamlakat sifatida jahon hamjamiyati bilan har tomonlama manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan, xususan, oila va xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qator nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlikda yurtimizda gender tenglikni kafolatlagan davlatlar sirasiga kiradi. Jumladan, O‘zbekiston 1995-yildayoq “Xotin-qizlar kamsitilishining barcha ko‘rinishlari oldini olish bo‘yicha CEDAW Konvensiya”sini ratifikatsiya qilgan va bu boradagi xalqaro talablarni, ushbu yo‘nalishda Milliy Harakat dasturini bosqichma-bosqich bajarib kelayotgan mamlakatdir. Albatta, fuqarolik jamiyatini birdan, bir kunda qurib bo‘lmaganidek, yurtimizda gender tenglik qonunan to‘liq kafolatlanganligiga qaramay, amalda erkaklar va ayollar tengligini ta’minlashda muayyan qiyinchiliklar yo‘q emas. Bu, bir tomondan, milliy an’analarimiz, qadriyatlarimiz, urf-odatlar va jamiyatimizda jinslararo tenglik masalasiga qarashlardagi o‘ziga xoslik bilan tushuntirilsa, ikkinchi tomondan, qonunlar, jumladan, Xalqaro normalarning butun Yer yuzida birdan va so‘zsiz ijrosini ta’minlashning imkoni yo‘qligi bilan izohlanadi.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda oilalarda gender tenglikni ta’minlashning zaruriy me’yoriy asoslari yaratildi: «O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish [1], «2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi» [2], barqaror rivojlanish sohasida gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta’minlashga qaratilgan islohotlar o‘zbek oilalarida gender

tenglikni namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik muammolarini ilmiy tadqiq etishda zarur metodologik asos bo‘la oladi.

Davr talabidan kelib chiqayotgan bu vazifalar o‘zbek psixologlari oldiga qator muammolarni qo‘yish bilan birgalikda ulardan gender muammolari, jinsiy tafovutlar masalasiga ilmiy jihatdan yondashishni taqozo etadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘g‘il va qizlarning ijtimoiy tasavvurlarida jinsiy tafovutlarga oid tushuncha, bilim va ko‘nikmalar, stereotiplar eng avvalo oilada, oilaviy o‘zaro munosabatlar tizimida shakllanadi. Shuning uchun ham oila psixologiyasi doirasida aynan jinsiy tafovutlar va gender muammolari o‘rganilishi va amaliyotda qanday ekanligi tadqiq etilishi kerak. Ular ilmiy an’anaga ko‘ra gender psixologiyasi yo‘nalishida o‘rganiladi.

Gender psixologiyasi – psixologiya fanining bir sohasi va u oiladagi erkak va ayol jinsiga mansub shaxslarning o‘zaro munosabatlaridagi muayyan tafovut va o‘ziga xosliklarni maxsus metodologiya hamda usullar vositasida o‘rganadi. Oddiy “biologik jins” tushunchasidan farqli, u ijtimoiy jinsni, ya’ni erkak yoki ayolning jamiyatda, keng ijtimoiy munosabatlar tizimidagi rollari, mavqei hamda statusini qamrab olgan holda o‘rganadi. Shu maqomda erkak va ayollarning gender rollari hamda statusi belgilanadi. Demak, “gender” atamasi ijtimoiy jins ma’nosini bildirib, shaxsni o‘rab turgan madaniy-ma’naviy muhit mahsuli, bu muhit oiladan boshlanadi. Fanda gender tadqiqotlar va izdanishlar jarayonini 5 bosqichga ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) tegishli g‘oyalarning falsafiy nuqtai nazardan ishlab chiqilishi (qadimgi davrlardan XIX asr oxirigacha);

2) gender psixologiyasining predmeti va bo‘limlarining shakllanishi (XIX asr oxiri – XX asr boshi);

3) Zigmund Freyd nomi bilan bog‘liq “Freyd davri” psixologiyasi (XX asr boshi – 1930-yilgacha);

4) yirik eksperimental tadqiqotlarning boshlanishi va ilk nazariyalarning paydo bo‘lishi (1950–1980 yillar);

5) gender psixologiyasining jadal sur’atda rivojlanishi: eksperimental tadqiqotlar, empirik faktlarning nazariy tahlil qilinishi, ma’lum metod va metodikalarning etnik muhitlarga adaptatsiyasi va maxsus gender metodikalarning yaratilishi (1990-yildan shu davrgacha).

Ko‘plab o‘tkazilgan tadqiqotlar va turli yo‘nalish vakillarining feminizm va jinslararo tafovutlar to‘g‘risidagi fikrlarini umumlashtirib, shuni e’tirof etish mumkinki, ikkita asosiy shart aniqlanganda, jinsiy tafovutlar borligi tasdiqlanadi:

1. Jinsiy tafovutlarning realligini erkak va ayoldagi u yoki bu psixik xususiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi farq kamida 10% va undan yuqorini tashkil etgandagina tan olish;

2. Hech bo‘lmaganda, bir jins 20% dan kam bo‘lmagan ko‘rsatkichni namoyish etgan natijalarnigina o‘rganib chiqish, ya’ni bu – erkak yoki ayolda qayd etilgan shaxsiy xususiyatlar yoki xulqqa to‘g‘ri tavsifnoma berilganini kamida 5-6 nafar tekshirilayotgan insonlar yoki ekspertlar bir ovozdan ma’qullashganda qo‘llanadi. Ya’ni, metodologik nuqtai nazardan, jinsiy tafovut bor ekanligi ushbu

statistik qoidalarga rioya etilgandagina tan olinadi.

Mishel Paludining yozishicha [7], bugungi kunda gender psixologiyasi sohasida asosan androsentrik qarashlar ustuvorligi kuzatilmoqda. Ya’ni, ikkala jins vakilida ham bir-biridan tamoman farq qilmaydigan, ikkalasida ham kuzatish mumkin bo‘lgan psixologik xususiyatlar kuzatilmoqdaki, bu ularning eng avvalo oila va nikoh masalalaridagi qarashlar uyg‘unligidan kelib chiqadi. Lekin metodologik jihatdan olimning ta’kidlashicha, baribir, aynan ayolga xos sifatlar normasi haqida gap ketganda, baribir ular erkak sifatlarining standarti asosida tahlil etiladi. Aslida dunyo miqyosida axloq, muvaffaqiyatlarga intilish motivatsiyasi kabilar o‘rganilganda, asosan bu masalalar erkaklar va o‘g‘il bolalar misolidagina tadqiq etiladi. Agressiya bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarning 50 foizida faqat erkaklar, 10 foizida ayollar, qolgan 40 foizida ham ayol, ham erkaklar birgalikda ishtirok etgan. Umuman, xorijda o‘tkaziladigan psixologik tadqiqotlarda ko‘proq erkaklar sinaluvchilar sifatida ishtirok etishi ham o‘ziga xos holatdir. Bizda esa psixologik hamda sotsiologik tadqiqotlarda ikkala jins vakillari teng yoki oilaga oid aksariyat tadqiqotlarda qizlar va katta yoshli ayollar qatnashadilar.

Amerikalik tadqiqotchi Devid Mayers [8] jins, genlar va madaniyat masalalarini o‘rganar ekan, genderni – erkaklik va ayollik xususiyatlarini tavsiflovchi tushuncha sifatida, Paludidan farqli, jinsiy tafovutlarni o‘rganish xotin-qizlarning erkaklarga nisbatan anchagina masalalarda ustunlikka ham ega ekanligini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, ayollardagi tajovuzkorlik, agressiyaning kamligi, o‘zgalarga g‘amxo‘rlik va o‘zgalar tashvishlariga nisbatan befarq bo‘lolmaslik, hamdarliklari aynan ularning jamiyatda tutgan foydali mavqelarini belgilashi mumkin. Aynan ayollar, boshqa tadqiqotchilarning fikricha, insonlar bilan bo‘ladigan munosabatlarda iliqlik, yaqinlik tarafdorlaridir.

Tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, jinsiy tafovutlar aynan yoshlik chog‘idanoq namoyon bo‘la boshlaydi. O‘g‘il bolalar, masalan, yoshlikdanoq mustaqillikka intilsa, qiz bolalar o‘zaro bog‘liqlikka, kimlar bilandir (birinchi navbatda onasi, buvisi kabilar) birga bo‘lishga harakat qiladi. Agar o‘g‘il bola ko‘proq ko‘pchilik ishtirok etadigan o‘yinlarni afzal ko‘rib, ko‘chaga chopsa, qizlar kichikroq tengqurlar guruhida jipslikda o‘ynashni, o‘yin chog‘ida ham bir-birlariga hamdardlik ko‘rsatish, tushunishga intiladi, agressiya ular muloqotida kam bo‘ladi. Inson ulg‘aygan sari jinsiy tafovutlarning namoyon bo‘lish ko‘lami ham kengayib boradi. Buni ta’kidlovchi tadqiqotlar xorijda, Rossiyada va MDH mamlakatlarida ko‘plab o‘tkazilgan. Ularda xotin-qizlarning erlaridan farqli juda ko‘p jihatlari ajratilib, ularning tashqi ijtimoiy muhitga munosabatlari – hamdardliklari, o‘zgalar bilan muloqotga intiqliklari, muomalada o‘ziga xos taktikaga ega ekanliklari kabi o‘nlab yo‘nalishlar eksperimentlarda isbotlandi. Masalan, izlanishlarda odamlar bilan muomalada erkaklar ko‘proq avtoritarlikni, xotin-qizlar esa demokratizmni namoyon qilishi isbotlangan. Boshqaruvda erkaklarga do‘q qilib, direktiv ohangda boshqarish, qarorlar qabul qilish ma’qulroq bo‘lsa, ayollarga – “komanda, jamoa ruhi” bilan jamoatchi lider bo‘lish osonroqdir.

Yana boshqa bir tadqiqotlarda oilaga nisbatan gender ustanovkalar o‘rganilib,

unda ayollar – onalar, opalar, qizlar va buvilar tasavvurida oila bu muayyan yaxlitlik, birlik ramzi ekanligi va shuning uchun ham asosan vaqtlarini farzandlariga, ayniqsa, ular maktabgacha yoshda bo‘lgan vaqtlarida hamda keksaygan insonlarga bag‘ishlashi mumkinligi o‘rganilgan. Tug‘ilgan kunlarga ham ayollar erlaridan farqli ko‘proq sovg‘a-salom, kitoblar xarid qilishi, bu ishlarga bemalol pul sarflayverishi mumkin. Fotosuratlarga qarab, o‘zini o‘zi baholash vazifasi berilganda, aynan ayollar o‘zlarini oila a’zolari davrasida aks etgan fotosuratlarda alohida mehr va jiddiylik bilan tavsiflay olganlar. Ya’ni, oilaga nisbatan ustanovka xotin-qizlarda hamisha ijobiy obrazga ega.

O‘zbekistonda ham gender masalasi ko‘pincha oila muammolari doirasida o‘rganilishi an’anaga aylangan. Bizning oila va oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik omillari va oqibatlariga bag‘ishlangan ishlarimizda oilada yoshlarni gender munosabatlarga tayyorlash muammolariga [6], gender tasavvurlarning shaxs tarbiyasidagi o‘rni kabi masalalarda e’tibor qaratilgan. Ushbu tadqiqotlarimizda [4] er-xotin va oiladagi sibling munosabatlarning bola shaxsiga ta’siri, jumladan, erkaklik va ayollik fazilatlari shakllanishidagi o‘rni o‘rganilgan, ilmiy xulosalar chiqargan.

Muhim xulosalardan biri shuki, “o‘zbek oilalarida onalarning otalarga nisbatan farzandlarga o‘ta g‘amxo‘rligi, ya’ni ularni qiyinchiliklardan saqlash, ziyon yetkazib qo‘yishdan qo‘rqish, farzandning o‘ziga bog‘langanligi va tobeligini rag‘batlantirish, ularda shahvoniylik va tajovuzkorlikni bosish kabi xususiyatlarning kuchliligi, onalarda otalarga nisbatan demokratiklikning ustunligini isbotlaydi”.

L. I. Karimova bilan o‘tkazgan tadqiqotimizda oilaning daromadiga ko‘ra kimning reklama mahsulotlarining iste’molchisi ekanligidagi jinsiy o‘ziga xosliklar aniqlangan. Masalan, bu tadqiqotda 50 nafar er-xotinlar juftligi o‘rtasida so‘rov o‘tkazilib, zamonaviy oilada aksariyat masalalarda xotin-qizlarning fikri yetakchi ekanligi aniqlangan. Masalan, “Oilangizda kim pul mablag‘larini taqsimlaydi?” deb berilgan savolga erkaklarning 73%i va ayollarning 51% “men o‘zim” degan javobni berishgan. Lekin “Kuniga uy uchun biror narsa xarid qilishga taxminan qancha vaqt sarflaysiz?” degan savolga esa, erkaklarning 69%i “bilmayman” javobini bergan bo‘lsa, ayollarning 71% bir soatgacha, 7%i 2 soatdan ortiq vaqt ajratishlarini qayd etishgan. “Reklama qilingan xo‘jalik mollarini sotib olasizmi?” deb berilgan savolga 14 foiz erkaklar va 32 foiz ayollar ijobiy javob bergani holda, 58% erkaklar “yo‘q” javobini berganlar. Oila a’zolarining reklama qilinayotgan mahsulotlarga ishonchini aniqlaganda, erkaklarning 45 foizi va ayollarning 48 foizi ishonishini qayd etganlar. Demak, reklama qilinayotgan mahsulotlar dunyosida xotin-qizlarning faolligi bugungi kunda erkaklarnikidan ancha yuqori bo‘lib, zamonaviy oila bekalari oilaviy daromadning taqsimoti va uni nimaga ishlatish masalalarida ham yetakchilikka da’vo qiladilar. Chunki uy bekalari uy yumushlarini bajarishda ko‘proq xo‘jalik mollaridan foydalanadi, farzandlarini yuvib-tarash va ularni bog‘cha yoki maktabiga zarur bo‘lgan narsalarni ham yaxshiroq bilgani sababli, reklama qilinayotgan tovarlarning eng yaxshisini va arzonini xarid qilish tarafdori ham bo‘lib boradi. Bu holatni milliy reklama kompaniyalari inobatga olishlari kerak.

Shu kabi ilmiy tadqiqotlarda O‘zbekiston miqyosida muayyan ijtimoiy-psixologik muammolarga e’tibor berish tobora an’anaga aylanib bormoqda. Lekin alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda psixologlardan tashqari, faylasuflar, sotsiologlar, tarixchilar, siyosatshunoslar, huquqshunoslar ham bu muammoni chetlab o‘tmaganlar. Jamiyat va oila ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida xotin-qizlarning o‘rni va roliga qator anjumanlar, monografik tadqiqotlar, dissertatsiyalar aynan shu muammoga bag‘ishlangan. Ayrim dissertatsion izlanishlar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda o‘smir yoshli o‘g‘il va qiz bolalardagi gender tasavvurlarga bog‘liq jinsiy identifikatsiyani aniqlash va bunda oila muhitining rolini asoslash uchun ijtimoiy psixologiyada qo‘llanilgan qator ishonchli metodikalardan foydalanilgan va empirik izlanish ham ota-onalar, hamda ularning o‘smir yoshli farzandlari o‘rtasida o‘tkazilgan (masalan O. Otajonova, X. Haydarova tadqiqotlari). Alohida ta’kidlash joizki, ota-onalar o‘rtasidagi o‘tkazilgan test va so‘rovlar ularning gender ustanovkalarini va liderlik maqomlarini aniqlashga imkon bergan bo‘lsa, farzandlari o‘rtasida olib borilgan empirik tadqiqot otalik va onalik gender maqomlarining qizlar va o‘g‘il bolalarda o‘ziga xos ustanovka shaklida identifikatsion jarayonlar yo‘nalishini belgilashini isbot qilingan. Zamonaviy o‘zbek oilasidagi erkaklar va ayollarning o‘zaro munosabatlarida ayollar mavqeining mustahkamlanib borayotganligi, ularning liderlik pozitsiyalarida hamda turmush o‘rtoqlarini hamkor va sherikchilik munosabatlari tizimida ko‘rishni afzal ko‘rishlarida namoyon bo‘ldi. Shu sababli ham bu holat ularning o‘z jinslarini va turmush o‘rtog‘idagi qarama-qarshi jinsga nisbatan ustanovkalarini belgilaydi. Tadqiqot zamonaviy erkaklar va xotin-qizlarning ayollik va erkaklik obrazlarida femininlik hamda sof maskulinlik sifatlari ko‘proq androgenlik sifatlariga o‘rin berayotganligini, qizlarda maskulinlik sifatlari ham tobora sezilarliroq namoyon bo‘layotganligini ko‘rsatdi.

Shunday qilib, yurtimizda gender tadqiqotlari uchun keng yo‘l ochilgan va ularda oila va oilaga nisbatan ijtimoiy ustanovka ustuvor masala sifatida qaraladi. Oldimizda turgan muhim masala – bu yangicha o‘zgarishlar, ijtimoiy tarmoqlarning inson psixologiyasiga bevosita ta’sir qilayotganligi sharoitida gender munosabatlar va ularni o‘rganishning yangi metodologiyasi hamda texnologiyalari vositasida mahalliy sharoitlarda hamda kross-madaniy tadqiqotlar doirasida keng ko‘lamda o‘tkazishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 841-sonli qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., № 09/18/841/2081.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son.
3. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik. - T., “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2007.

4. Karimova V. va boshqalar. Gender-menejment. O‘quv qo‘llanma.-T., 2010-88 b.
5. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik. – T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2012.
6. Karimova V. Oilada yoshlarni gender munosabatlarga tayyorlash muammolari // “Yoshlar muammolari va ularning yechimi: holat va istiqbol” mavzusidagi Resp. ilmiy-amaliy anjumani materiallari – T.: 2002. – B. 30-33.
7. Мишель Палуди. Психология женщин. – СПб.: прайм-ЕВРОЗНАК, 2003. – С. 14.
8. Майерс Д. Социальная психология. Интенсивный курс. – СПб.: прайм-ЕВРОЗНАК, 2002. – 512 с.
9. Практикум по гендерной психологии / Под ред. И.С. Клециной .- СПб.: Питер, 2003.- 479 с.

UDK 314.15:316.4

ФАКТОРЫ МИГРАЦИИ И КЛАССИФИКАЦИЯ МИГРАНТОВ

Саидов Бахтиёр Одилович,
доктор философии (PhD) по психологическим наукам

Аннотация. В статье раскрывается суть проблемы миграции, которая в настоящее время является актуальной для многих стран мира. Предложена классификация видов миграции, видов мигрантов, дана краткая характеристика каждого из них. Также подробно раскрыты факторы, определяющие содержание миграции, и причины их возникновения. Выполнен анализ проблем, связанных с миграцией, на фактических примерах ряда стран. В заключении статьи изложены выводы по изучаемому вопросу.

Ключевые слова: миграция, виды миграции, виды мигрантов, причины миграции.

MIGRATSIYA OMILLARI VA MIGRANTLAR TASNIFI

Annotatsiya. Ushbu maqola hozirda dunyoning ko‘plab mamlakatlariga ta’sir etayotgan dolzarb muammo bo‘lgan migratsiyaning mohiyatini o‘rganadi. U migratsiya turlari va migrantlarning tasnifini taklif qiladi va har biriga qisqacha tavsif beradi. Migratsiya xarakterini belgilovchi omillar va uning yuzaga kelish sabablari ham atroflicha o‘rganiladi. Migratsiya bilan bog'liq muammolar tahlili bir qator mamlakatlardagi dolzarb misollar yordamida keltirilgan. Maqola o'rganilayotgan masala bo'yicha xulosalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: migratsiya, migratsiya turlari, migrantlar turlari, migratsiya sabablari.

MIGRATION FACTORS AND MIGRANTS' CLASSIFICATION

Abstract. This article explores the essence of migration, a problem currently relevant for many countries worldwide. A classification of migration types and migrants is proposed, along with a brief description of each. The factors determining the nature of migration and the reasons for its occurrence are also explored in detail. An analysis of migration-related issues is provided using actual examples from a number of countries. The article concludes with conclusions on the issue under study.

Key words: migration, types of migration, types of migrants, reasons for migration.

В эпоху глобализации острой проблемой, затрагивающей многие стран мира, является миграция. Эта проблема, являясь многогранной, охватывая

различные стороны общества, касается многих слоёв населения. Более того, миграция, имея социальный характер, обладает психологической особенностью, оказывая непосредственное влияние на внутрисемейные отношения. Исходя из этого, проблема миграция приобретает актуальную значимость.

Целью исследования является комплексное изучение проблемы миграции и разработка практических рекомендаций по её регулированию. Объект исследования образует процесс миграции и влияющие на неё факторы.

Общеизвестно, что как в природе, так и в обществе все подчинено и объясняется причинно-следственными связями. Не исключением является и миграция.

Согласно данным научных источников, миграция сопровождает человечество с момента его происхождения. На наш взгляд, она имеет более старший возраст, поскольку наблюдается и в животном мире.

На сегодняшний день миграция происходит согласно ниже следующим 5 факторам:

1. Экономический.
2. Экологический.
3. Политический.
4. Социальный и культурный.
5. Военный.

В литературе в основном ссылаются на первые 4 фактора, включая военный фактор в политический.

На наш взгляд, военный фактор приносящий больший урон человечеству и грозящий величайшей катастрофой в самом существовании человечества должен быть рассмотрен отдельно в связи с другими факторами.

К тому же при одном военном факторе участвуют разные, в частности, диаметрально противоречивые, противоборствующие виды мигрантов. Потому отныне данный фактор, на наш взгляд, должен рассматриваться и специально изучаться различными видами науки. Военный фактор имеет не меньшее, а то и значительно большее значение для человечества. Потому отныне данный фактор не должен быть составной частью другого фактора.

1. Одним из ведущих причин миграции является **экономическое** состояние страны, народа и его материальная обеспеченность. Чем ниже уровень социально-экономического развития страны, тем больше шансов, что данная страна будет поставщиком трудовых мигрантов в другие страны.

Почти во всех развивающихся странах выражена как внутристрановая, так и межстрановая (международная) миграция.

Выраженная трудовая миграция молодежи Узбекистана в страны СНГ особенно в Российскую Федерацию и Казахстан была обусловлена достаточно сложным материальным положением населения Узбекистана.

В основе миграции молодежи стран Балтии (Латвии, Литвы, Эстонии) тоже лежит экономический фактор, поскольку дети не желают повторять

судьбу своих родителей в экономической обеспеченности при наличии более лучших условиях в Западной Европе.

В количественном плане тоже мигранты, мотивированные экономическими интересами, лидируют. Во многих странах, чтобы быть трудовым мигрантом, достаточно иметь среднее или среднее специальное образование и знать язык народа страны пребывания на начальном уровне.

Даже трудовые мигранты, на сегодняшний день меняют одну зарубежную страну на другую, более высокооплачиваемую страну, что еще раз показывает роль экономического фактора в миграции и поведении мигрантов.

Именно экономическая мотивация вынуждает мигрантов выдержать все трудности жизни, быта и труда и ряд социально-психологических проблем, открытую дискриминацию, нарушение прав со стороны работодателей, непривычность климатических условий, порою грубость и унижения, наблюдающиеся даже в некоторых развитых странах (например Южная Корея).

У трудовых мигрантов, не говоря о России, где открыто выражается неприязнь к мигрантам, что в итоге работает против авторитета русского народа. Возрождающийся шовинизм, радикализм в Российской Федерации за короткий срок, благодаря СМИ Российской Федерации и молчаливой, наблюдательской позиции ответственных лиц России, может вбить клин в братскую дружбу народов Республики Узбекистан и Российской Федерации, которая сформировалась десятилетиями в период СССР.

Подобные ситуации таксиста узбека с местным жителем России можно считать, как межличностный конфликт двух личностей и не давать широкую огласку и делать далеко идущие выводы. Это было бы мудро если бы ни одно обстоятельство. Конфликт на вербальном уровне, слова, жаргон, сравнение статуса двух стран это и многомиллионный показ и распространение не только в России, но и в других странах сильно задевает честь народа, честь нации, авторитет страны Узбекистана, что их заставило официально отреагировать МИДу Узбекистана.

Те радикалы с низким уровнем воспитания и образования (об уровне можно уже и не говорить), в силу ограниченности своей культуры общения, всему миру демонстрируют не силу, не могущество, не ум, нетерпимость, не культуру, а злость, враждебность, самый низкий уровень культуры общения, языка оскорбляя не только и не столько таксиста, а народ и нацию Узбекистана.

После этого видео в Узбекистане из-за одного радикала, шовиниста России у миллионов узбеков в Узбекистане немного по-другому будут воспринимать представителя России, интеллигенцию, особенно тех, которые по разным причинам приехавшие недавно в качестве мигрантов, на солидных должностях продолжают свою профессиональную деятельность, поскольку Узбекистан устроил их согласно образованию и опыта работы.

И никто из них даже не подумал выступить в защиту таксиста в средствах массовой информации, чтобы этот эпизод сгладить, показать, как их встретил и трудоустроил Узбекистан.

Это выступление мигрантов России в Республике Узбекистан было бы прежде всего защитой не себя, не таксиста, а значительно большего - дружбы между двумя народами. А таких «кретинов» достаточно имеется у всех народов. Это не отступление от диссертационного исследования, а психологический анализ живого примера, который намекает нам всем, куда мы идем с молчаливым согласием данной ситуации, где задевается самая чувствительная струнка — струнка чести народа. И этот таксист тоже трудовой мигрант. И он вынужден молча пережить такие нетерпимые ситуации. При такой тенденции отношений к трудовым мигрантам в ближайшие десятилетия Россия полностью потеряет свою привлекательность к трудовой миграции.

Поскольку такие развитые страны как Европы и Азии (Германия, Испания, Великобритания, Португалия, Япония, Катар, ОАЭ Турция Латвия, Литва Эстония и др.), нуждающиеся в трудовых мигрантах, создав наиболее комфортные условия, значительно больше оплачивая их труд сведут к минимуму отъезд трудовых мигрантов Республики Узбекистан в Россию.

Узбекистан, сменив направление трудовых мигрантов, обеспечит более лучшие условия и самое главное значительно больший доход от развитых стран, чем они имели в России.

Экономические причины не только основная мотивация трудовых мигрантов, но и в немалой степени интересы образования студентов. Российские ВУЗы нуждаются в студентах, однако нынешняя демография не может обещать в ближайшие десятилетия возможность отбора лучших из желающих учиться в ВУЗе. Это с годами может привести ВУЗы России к переходу от «отбора» на «сбор», то есть ситуация не «из кого отбирать», а «надо брать всех желающих», чтобы выполнить план, обеспечить ППС работой и выпускать достаточное количество квалифицированных специалистов, чтобы не было проблем дефицита кадров с высшим образованием.

На сегодняшний день ведущие ВУЗы России ведут мудрую политику отбора лучших абитуриентов из выпускников школ стран СНГ, значительная часть которых останется работать в Российской Федерации.

Обучение студентов в Российской Федерации намного дешевле чем в развитых странах. Ни в обучении, ни в общении почти нет языковых барьеров. Проживание, питание, перелеты обходятся намного дешевле и соответствуют возможностям родителей студентов.

Большая часть лучших студентов остаются работать в Российской Федерации или уезжает в страны Азии, Австралию или Восточную часть Европы (Польша, Латвия, Литва, Эстония и другие). При этом одним из ведущих мотивов является экономический интерес.

2. К **политическому фактору** относится политические преследования, поиск убежища в других странах, а также межнациональные конфликты. Так, например межнациональные конфликты турков месхетинцев с представителями коренного этноса в Узбекистане, специально спровоцированные не турками и не узбеками, которые около 50 лет жили в дружбе и никаких намёков на конфликт не было. Или массовая ночная резня узбеков от мала до велика среди ночи в городе Узгене Киргизстана, отрядом специально одетых в киргизскую национальную одежду, которых через несколько часов на окраине города забрали военные вертолеты. Это было специально спланированная операция специальных служб в первые годы Независимости с целью возрождения межнационального конфликта между узбеками-жертвами операции и ни в чем не повинными киргизами, которым хотели приписать эту кровавую резню. Народ понял истинные причины и был свидетелем того как отряд головорезов забрали военные вертолеты. Кому-то надо было разжечь межнациональную рознь. Через определенные годы, некоторым службам удалось достичь разжигание межнациональной розни.

Последние годы благодаря мудрой политике Президента Узбекистана Шавката Мирзиеева восстановлены традиционно братские отношения не только с киргизами, но и со всеми народами соседних стран Центральной Азии.

А ведь до 2017 годов все границы в горных местностях были заминированы, из-за которых были очень частые смертельные случаи подрыва на минах местных горных жителей. Сейчас все разминировано.

3. Следующий немаловажный фактор миграции составляет **социальные и культурные** причины.

Из-за того, что почти все ВУЗы расположены в городах, то существенная часть сельской молодежи после окончания школы поступает в ВУЗы и после окончания большая часть старается остаться работать в городской местности. Это есть внутристрановая миграция.

Определенная часть выпускников школ, академических лицеев, количество которых из года в год увеличивается, поступают в ведущие ВУЗы развитых стран (Великобритания, Германия, США, Канада, Франция, Австралия, Япония, Катар и другие). Из них одна треть (1/3) после окончания ВУЗов, остается работать в зарубежных странах.

Подавляющее большинство сельской молодежи Узбекистана, независимо от уровня образования, стараются жить в городе. Урбанизация населения тоже есть миграция.

Многие, особенно большая часть (70% мигрантов) выезжающих в Турцию составляют женщины, многие из которых вышли замуж за мужчин из Турции.

4. **Экологический фактор**. К данному фактору относятся такие стихийные бедствия как землетрясение. Из-за землетрясения в городе Ташкенте (1966 г.) со всех бывших Союзных республик пришли на помощь,

после чего более 500 тысяч остались жить в городе Ташкенте (Чиланзар, Юнусабад, Сергели). Сильные землетрясения в Турции, вынудили большому количеству жителей изменить свое место жительства. Землетрясение в прибрежных районах, вызывают сильные цунами, кроме большого количества жертв, вынуждает население мигрировать.

Экологическая катастрофа Аральского моря вынудила местное население мигрировать в Казахстан и другие регионы Узбекистана.

Ухудшение экологического фактора в городе Ташкенте, вынуждает мигрировать граждан столицы в Ташкентскую область за границу города Ташкента или иметь в обязательном порядке дачи за городом или в горных районах Ташкентской области. Это тоже влияние экологии на изменение места жительства населения.

Все более обостряющиеся проблемы с водой в ряде районов Самаркандской, Навоийской областей вынуждает население, особенно молодежь менять место жительства и место работы, которые тоже составляют армию внутристрановых мигрантов на почве резких изменений экологии.

В случае прорыва воды, стихийно создавшегося Сарезкого озера (1911 г.) с громадным объемом в горной местности Таджикистана может произойти невиданная катастрофа с многочисленной потерей людских ресурсов, которая тоже приведет большой миграции оставшейся части населения.

В ближайшем будущем население Узбекистана все больше будут строить дома и переселяться в районы с естественными водными ресурсами, ибо с каждым годом проблема воды будет актуализироваться и осложняться.

Наше поколение еще недостаточно осознает ценность воды, чистого воздуха, нетоксичной земли, необработанных и не имеющих в составе самого плода овощей, фруктов, различных вредоносных для организма химикатов, ненасыщенное антибиотиками мясо.

Если научно и философски подойти к вопросу цивилизации, то можно невооруженным глазом увидеть, что мы порой даже науку и инновации поставили на службу истребления человечества. Можно полагать, что экология породила человечество, и экологии же суждено истребить его.

Миграция населения согласно экологическому фактору — это попытка человечества выжить во всё усложняющейся экологии мира.

5. **Военный фактор** выделяется нами раздельно в качестве самостоятельного фактора, а не в составе политического, потому что в количественном соотношении порождает миграцию и мигрантов значительно больше, чем некоторые другие факторы, начиная с исторического периода до наших дней.

Об этом свидетельствуют сама история и возникновение стран Северной Америки, Южной Америки, самой США, Канады, Австралии и ряда других стран. Население вышеназванных стран тоже состоит из исторических мигрантов, переселившихся из Европейских стран (Великобритания, Испания

и другие), стран Африки и Азии. Индии и некоторыми соседними странами на протяжении 350 лет управляемые династией Бобуридов.

Резкие изменения в судьбе поляков, немцев, корейцев, крымских татар, кумыков, чеченцев, турков месхетинцев (в период СССР) переброшенных, точнее срочно и насильно депортированных из своих родных мест на долгие годы в Узбекистан, произошли из-за военного фактора.

Необоснованные, не аргументированные войны в Ливии, Сирии, Египте, Ираке, Палестине, Украине привела в свое время к миграции миллионов людей, которые вынуждены были срочно покинуть свою Родину, свои отчий дом и родной край, только в интересах жизни своих детей и родителей. В один миг меняя нормальную полноценную мирную семейную жизнь на скитание в чужих странах, не имея ни работы, ни места жительства, ни лишних денег, ни определенной перспективы, работая кем угодно, чтобы прокормить детей и себя.

В недалеком прошлом развитые страны Европы не успевали принять мигрантов и рационально распределить их по странам.

Общеизвестна ситуация населения Палестины в секторе Газа и население Сирии, положение украинцев, вынужденно мигрирующих в Европейских странах.

Всё вышеизложенные результаты военного фактора, обусловленные политической близорукостью, неадекватной формой самоутверждения в роли руководителя страны, от которого страдает миллионы людей в разных странах.

В жизни человечества многое зависит от того, на что направлена деятельность или в каких целях мы используем то, что имеем (капитал, земли, власть оружие, знания, физическую силу, ум, опыт, дети, талант в определенном виде деятельности и другое).

Общеизвестно, что в психологической науке это можно отнести к направленности личности.

Изучая проблему миграции и мигрантов, а также предложенную некоторыми авторами классификация мигрантов, нами сделаны попытки разработки более полной **классификации мигрантов**.

Знания о видах мигрантов расширят наше представление о них и соответственно будут способствовать повышению эффективности их трудовой деятельности и созданию им более благоприятных условий для работы и жизнедеятельности.

Классификация мигрантов.

1. Мигранты по странам и континентам миграции:
   - Африканские страны;
   - страны Южной Америки;
   - страны Северной Америки, в том числе США;
   - Европейские страны;
   - страны Ближнего Востока;

– Российская Федерация;
– страны Балтии (Латвия, Литва, Эстония);
– страны Скандинавии (Норвегия, Швеция, Финляндия);
– Австралия;
– Азиатские страны (Япония, Республика Корея, Китай и др.);
– Центральноазиатские страны (Казахстан, Киргизстан, Таджикистан, Туркменистан, Узбекистан и др.);
– Гренландия.

2. Мигранты по времени пребывания в миграции:
– краткосрочные: 1- 3 месяца- сезонные;
– среднесрочные: 4- 12 месяцев;
– долгосрочные: 1 год и более.

3. Миграция по обратимости:
– безвозвратная (переселение на новое место жительства с намерением не возвращаться);
– временная: сезонная (перемещение связанная с временем года, например сельхоз работы), маятниковая (эпизодичные).

4. Мигранты по факторам:
– экономические мотивы;
– экологические ситуации (сильное землетрясение, цунами, засуха и прочее)
– политические мотивы;
– образование, создание семьи, профессиональное, научное и спортивное совершенство;
– военные действия (беженцы-мигранты, мигранты-оккупанты).

5. Мигранты при военных действиях:
– беженцы-жители покидающие районы военных действий;
– беженцы от призыва на войну;
– боевики — наемники.

6. Мигранты по видам деятельности:
– строители;
– религиозные;
– торговые;
– служебные;
– медицинские;
– трудовые;
– учебные (студенты);
– научные;
– туристические;
– спортивные;
– рабочие заводов и фабрик;

– работники ЖКХ;
– домоводство (няни, сиделки, повара, клининг, дворники, садовники);
– телохранители;
– работники сельского хозяйства.

7. Мигранты по уровню образования и квалификации:
– низкоквалифицированные (общее среднее образование);
– среднеквалифицированные (среднее специальное образование);
– высококвалифицированные (с высшим образованием);
– элита (ученые, писатели, поэты, бывшие руководители министерств, ведомств, страны и др.).

8. Мигранты по возрасту:
– дошкольный возраст;
– младший школьный возраст;
– подростковый возраст;
– юношеский возраст;
– зрелый возраст;
– пожилой возраст;
– старческий возраст;
– долгожители.

9. Мигранты по полу:
– женщины;
– мужчины.

10. Мигранты из сельского или городского региона:
– родом из села;
– родом из города.

11. Мигранты по адаптации:
– ассимилянты (образно «сахар в чае»);
– сепаранты (камушки в «сумаляке»);
– интегранты (абрикос в «компоте»).

12. Мигранты согласно воле личности:
– по неволе, по принуждению объективных обстоятельств (экономических, политических, экологических, военных факторов и др.);
– не по принуждению, по собственной воле, социально-культурные причины).

13. Мигранты согласно масштабу миграции:
– внутристрановой мигрант;
– межстрановой мигрант.

14. Мигранты по юридическому статусу:
– легальные (миграция согласно законов страны въезда);

– нелегальные (переселение без соблюдения официальных процедур и разрешений).

При этом следует отметить, что страны большей частью отправляющие свое население в качестве мигрантов в другие страны - «Страны доноры» по мигрантам.

Страны, нуждающиеся в мигрантах - «Страны реципиенты» (принимающие мигрантов).

Например: Узбекистан — страна «донор», Россия — страна «реципиент».

При этом есть страны, которые одновременно и «донор» и «реципиент».

Например, страны Балтии (Литва, Латвия, Эстония) у которых своя молодежь едут в западноевропейские страны в качестве трудовых мигрантов, а их страны пользуются мигрантами из Узбекистана. Для Европы - «доноры», для Узбекистана – «реципиент».

Поэтому разделение на «доноры» и «реципиенты» носят условный характер.

Выводы:

1. Миграция является многоаспектной проблемой, требующей детального изучения.
2. Разработанная автором классификация мигрантов окажет практическую помощь в структурировании проблемы миграции и разработке практических рекомендаций по её регулированию.
3. Научно-практическое исследование проблемы миграции в условиях Узбекистана даст возможность для выработки стратегии по направлению демографического прогнозирования.
4. Разработка практических рекомендаций по регулированию миграции даст возможность для создания условий для улучшения внутрисемейных психологических отношений.

Список литературы:

1. Стокер П. Работа иностранцев: Обзор международной миграционной рабочей силы. — М., Академия, 1995. стор. 54–67.
2. Said Chamlija / Iymon va huzun. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.-128 b
3. Сапенко И.П. Социально-политические последствия международной миграции населения// МЕ и МО, 1999 № 3, стр 52–63.
4. Ценности — предметы и явления культуры, морали, нравственности и т.п.; явление, предмет, имеющий то или иное значениеважный, существенный в каком-то отношении. (большой толковый словарь русского языка под ред. А.С.Кузнецова, SPb Norint, 1998, 1036 стр.)
5. Леонтьев Д.А. Ценностные представления в индивидуальном и групповомсознании., Психологическое обозрение №1, 1998.

UDK 159.9:612.82:371.3

BOLALARDA CHAPAQAYLIK: PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR VA KORREKSION YONDASHUVLAR

Shamsiyev O‘ktam Baxriddinovich,
psixologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada chapaqaylik omillari, ularni o‘ng qo‘lga o‘rgatish borasidagi tahlillar, chapaqay bolalarning ota-onalari bilan munosabat, chapaqaylarga yordam berish borasidagi tasavvurlar, chapaqay bolalar tengqurlaridan qanday jihatlari bilan farq qilishi haqidagi zamonaviy manbalar tahlili hamda olib borilgan tadqiqot natijalari jamlangan.

Kalit so‘zlar: chapaqaylik, hissiy-emotsional holat, chap yarimshar, o‘ng yarimshar, nutq, fikrlash.

ЛЕВОРУКОСТЬ У ДЕТЕЙ: ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И КОРРЕКЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ

Аннотация. В данной статье рассматриваются факторы леворукости, анализируются вопросы переучивания детей-левшей на правую руку, особенности взаимоотношений родителей с леворукими детми, представления о способах оказания помощи левшам, а также современные источники о том, какими качествами леворукие дети отличаются от своих сверстников. В статье также обобщены резултаты проведённого исследования.

Ключевые слова: леворукость, эмоционално-чувственное состояние, левое полушарие, правое полушарие, речь, мышление.

LEFT-HANDEDNESS IN CHILDREN: PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS AND CORRECTIVE APPROACHES

Abstract. This article examines the factors of left-handedness, analyzes issues related to retraining left-handed children to use their right hand, explores parent–child relationships involving left-handed children, discusses approaches to supporting left-handed individuals, and reviews modern sources on how left-handed children differ from their peers. The article also summarizes the results of the conducted research.

Keywords: left-handedness, emotional state, left hemisphere, right hemisphere, speech, thinking.

Bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishi dastlabki muloqot va mehrli munosabatlarning qay darajada shakllanganligi bilan belgilanadi. Xo‘sh, dastlabki muloqot yoki munosabatlar qachondan boshlanadi? O‘tkazilgan so‘rovnomalarga

javob berganlarning katta foizi ushbu savolga 2-3 yosh, nari borsa 1 yoshdan muloqot va munosabatlarning boshlanishi haqida gapirishadi. Biroq mutaxassislar tadqiqotlari natijalarining ko‘rsatishicha, go‘dakning tug‘ilgan zahotiyoq qo‘lga olinishi va dastlabki munosabatlarning o‘rnatilishi go‘dakning ijtimoiy muhitga qanchalik oson moslashishiga yordam beradigan asosiy omil hisoblanar ekan [1-52]. Sir emaski, bugun uzoq kutilgan farzandlar ham, tasodifiy tug‘ilayotgan farzandlar ham yoki kutilmagan farzandlar ham dunyoga kelmoqda. Dunyoga kelgan farzand kutilganligining qay darajadaligi esa onaning dastlabki muloqoti va mehrli munosabatini belgilaydi. Shu paytdan boshlab go‘dak ongida tashqi muhit bilan o‘rnatiladigan munosabatlarning modeli shakllana boshlaydi.

Go‘dakning ijtimoiy muhitga moslashishi shaxslararo munosabatlarda o‘z o‘rnini topishida oila, oilaviy munosabatlar, ona-bola-ota uchligi o‘rtasidagi muloqotning ahamiyati qanchalik katta ekanligi ma’lum. Biroq bu masalaning bir tomoni, boshqa tomoni esa go‘dakning qanchalik fiziologik jihatdan sog‘lomligiga ham bog‘liq.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, davlatimiz tomonidan oilaga tayyorlash, oila qurilgunga qadar oila, sog‘lom ona va bolalarga qaratilayotgan e’tibor yuqorida ta’kidlangan bolalarning ham fiziologik, ham biologik, ham psixologik jihatdan sog‘lom dunyoga kelishlari va ijtimoiy muhitga jadal kirishishlariga zamin yaratmoqda.

Aynan shunday munosabatlar bola dunyoga kelishi jarayonida oiladagi shaxslararo munosabatlar, ya’ni ota-ona munosabatlari, ayniqsa, onaning psixologik holati, uning homiladorlikka nisbatan ijobiy munosabatlarining shakllanishiga ham xizmat qiladi. Onaning homiladorlik vaqtidagi ruhiy holati bola shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi ham ko‘p tadqiqotlar natijasida isbotlangan. Biroq ayolning ruhiy holati homilaning jinsiga nisbatan ham turlicha ta’sir ko‘rsatishi, ya’ni o‘g‘il bolaga nisbatan boshqacha ta’sir ko‘rsatsa, qiz bolaga nisbatan esa mutlaqo boshqacha ta’sir ko‘rsatishi bugungi kunga kelib endi-endi ma’lum bo‘lmoqda. Yana shuni aytish mumkinki, onaning ruhiy holati qiz bolaga nisbatan o‘g‘il bolaga ko‘proq ta’sir qiladi va bu bola tug‘ilganidan keyingi davrlarda ham ahamiyatli hisoblanadi.

Mutaxassislarning fikricha, “mehrli munosabatlar”i kam bo‘lgan onalarning shaxsiy muammolari ko‘p bo‘lib, ular bolani qo‘lida ushlaganda ham deyarli hech nimani his etmaydilar. Ana shunday chaqaloqlarda keyinchalik beixtiyor tarzda ro‘y beradigan psixik funksiyalar rivojida muayyan muammolarni vujudga keltirishi mumkin, masalan, ixtiyoriy ravishda diqqatni bir narsaga to‘plash, ixtiyoriy ravishda u yoki bu narsani eslab qolish, gapirish, mantiqiy fikrlash kabilar.

Gapirish, nutq faoliyati bilan bog‘liq psixik funksiyalar ko‘pincha sinxronizatsiya jarayonida shakllanadi. Bolasini suyib, uning his-kechinmalarini bilish qobiliyatiga ega bo‘lgan ona odatda bolasining psixik rivojlanishida barcha qiliqlarini, ulardan qanday foydalanish malakalarini orttirib boradi.

Bolaning kognitiv rivojlanishi, fikrlar tarbiyasi, dunyoqarashning shakllanishiga ham onaning xulq-atvori katta ta’sir qiladi. Yevropalik

mutaxassislarning kuzatishlarida onaning har bir harakati, mimikalari, suyishlari, bolaning tepasida turib, unga qiladigan muomalasi, erkalashlari bora-bora bola o‘zlashtiradigan alohida iboralar, so‘zlarda namoyon bo‘ladi. Shaxsiy kuzatishlarimiz asosida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, onaning xatti-harakatlari tobora bolaning nutqli-nutqsiz, mantiqiy-mantiqsiz harakatlariga, ishoralariga aylanib boradi, keyinchalik bola alohida so‘zlarni talaffuz qila boshlaganda ham beixtiyor onaning mimikalari, talaffuz uslublarini qaytaradi. Shu tariqa onaning bevosita ishtiroki va yordamida bola dunyoni taniydi, o‘rganadi, o‘zi haqidagi tasavvurlari ko‘lami ham borgan sari ortib boradi.

Shaxs shakllanishida ona shaxsi roli beqiyos, shu bilan birga, bolaning jismoniy, ya’ni qo‘l harakatlarining shakllanish jarayoni ham onaga, oilaviy muhitga bevosita bog‘liq. Shu boisdan, bolalar chapaqayligiga nisbatan munosabatlar to‘g‘risida fikr yuritishni bugungi kunning zarurati sifatida baholadik.

Chapaqaylik – bu turli xil faoliyat va harakatlarning chap qo‘lda amalga oshirilishi hisoblanadi. Chapaqaylikni yuzaga keltiruvchi omillar turli xil bo‘lishi mumkin. Masalan, majburiy chapaqaylikka kishining o‘ng qo‘lini uzoq vaqt davomida harakatlarni bajara olmasligi sabab bo‘lishi mumkin. Ko‘p hollarda chapaqaylik tug‘ma bo‘ladi va bu bolaning bir, bir yarim yoshlik paytidan sezila boshlaydi, ba’zi hollarda esa bolalarda chapaqaylik ochiqchasiga namoyon bo‘lmasligi ham mumkin. Bunda bola yoshligidan barcha faoliyat turlarini o‘ng qo‘lida bajaradi, biroq ayrim noodatiy harakatlarda yoki hissiy-emotsional holatlardagina chap qo‘lidan foydalanib yuboradi.

Chapaqaylikning kelib chiqishi borasida hanuzgacha bahsli fikrlar mavjud. Agar go‘dak emizish paytida ko‘proq o‘ng taraf bilan yotib, o‘ng qo‘li onasiga tiralgan holatda, chap qo‘l esa erkin harakatda bo‘lganda ham chapaqaylik yuzaga kelishi mumkin.

Bola tug‘ilishidan yoki ilk oylaridan uning chapaqayligini aniqlash mushkul. Faqatgina bir, bir yarim yoshga to‘lganda ota-onalar bolaning chapaqayligini sezishi mumkin. Agar bolaning chapaqayligini bir yoshga to‘lmasdanoq sezishsa, nevrapatolog mutaxassislariga murojaat qilib chapaqaylik to‘la shakllanmasdan avval oldini olish mumkin. Keyinchalik esa bu holatni to‘g‘rilab bo‘lmaydi. Odatda chapaqaylik kamchilik, me’yordan og‘ish va patalogik holat sifatida ham izohlanib, o‘ng qo‘l bilan faoliyatni amalga oshiruvchilarga nisbatan aqliy, jismoniy va psixologik jihatdan ortda qolish degan yanglish nuqtayi nazarlar ham mavjud. Chunki chapaqaylar har qanday faoliyat va harakatlarni bemalol bajara olishadi (yozish, chizish va h.). Chapaqaylar butun ontogenez davomida barcha jismoniy va psixik rivojlanish bosqichlaridan muvaffaqiyatli o‘tib barkamol shaxs sifatida shakllanib boradi. Yuqoridagi fikrlarni A.Makedonskiy, L. Do Vinchi, Mikelanjelo kabi bir qancha mashhur chapaqay shaxslar misolida ham izohlash mumkin[2-4].

Chapaqaylarni o‘ng qo‘lda bajarishga majbur qilish yoki buning uchun jazolash ularni psixologik travma olishlariga, nevrotik holatlariga sabab bo‘lishi, nutqining buzilishiga, shuningdek, duduqlanishlariga olib kelishi mumkin. O‘ng qo‘lda yozishga o‘rgatilgan chapaqaylardan yozma ishni avval o‘ng qo‘lda, so‘ng chap

qo‘lda bajarishlari so‘ralganda ularning chap qo‘lda bajargan ishlari o‘ng qo‘ldagisidan farqli ravishda savodliroq, chiroyliroq bo‘lgan. O‘ng qo‘lda yozganlarida ular sekin yozib, juda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘ygan va bunda mushaklarning zo‘riqishi, yurak urishining tezlashishi, arterial bosimning ko‘tarilishi, emotsional zo‘riqish kuzatilgan.

Bu mulohazalarni chapaqaylarning o‘ng qo‘lda bajarishga o‘rgatilganda o‘qish jarayonini o‘zlashtirishdagi susayishga olib keluvchi omil sifatida baholash mumkin. Agar ularning psixologik holat va jarayonlariga qarshi borib majbur qilinmasa, ular o‘ng qo‘lda faoliyat olib boruvchilardan kam bo‘lmagan yutuqlarga erishishlari mumkin.

Oxirgi 50 yil ichida Yevropa mamlakatlarida chapaqaylar soni 3-4 martaga oshgan. Bunga sabab ularni majburlab o‘ng qo‘lga o‘rgatilmayotganligi va chapaqaylarga mo‘ljallangan texnik vositalar ishlab chiqilib, yetarlicha imkoniyatlar yaratilayotganidir[3-6].

Chapaqay bolalarning ota-onalari bilan suhbat olib borilganda, ular bolalariga o‘ng qo‘lda ishlashga o‘rgatishga harakat qilganliklari va bu jarayonda ular juda ko‘p to‘siqlarga uchrashganligini ta’kidlashadi. Farzandlaridagi emotsional zo‘riqish, charchash va faoliyatdan bosh tortishlarini aytib, ularni o‘ng qo‘lga o‘rgatish mumkinmi degan savolni ko‘p berishadi.

Chapaqay bolalarni o‘ng qo‘lga o‘rgatish to‘g‘rimi?

Ular boshqa bolalardan nimasi bilan farqlanadi? Faqatgina ularning o‘ng yarimsharlari ustunlik qiladi. Lekin bola 2 ta o‘ng yarimshar bilan tug‘iladi-ku. Keyinroq bola shaxsining rivojlanish darajasiga qarab ikkisidan biri chapaqaylasha boshlaydi. Shuning uchun inson miyasi 2 - o‘ng va chap yarimsharlardan iborat va bularning har biri inson hayotida turli vazifalarni bajaradi. Masalan, chap yarimshar – nutq va fikrlash, o‘ngi – musiqiy va badiiy ijodiyot, obrazli tafakkurni bajaradi. Chap yarimsharning ustunligi baxt va huzur baxsh etsa, o‘ng yarimshar ustunligida esa qo‘rquv va qayg‘uni his qiladi. Bunday farqlarni ko‘plab keltirish mumkin, asosiysi qaysidir yarimsharning ustunligida insonlarning psixologik xususiyatlarini farqlash mumkin. Yarimsharlardan birining chapga o‘tishi bilan bolalarda nutqning paydo bo‘lishi va bolalarning o‘zini-o‘zi anglashi boshlanadi. Shuning uchun 3 yoshdan boshlab bolalar orasida o‘naqaylar va chapaqaylar, aniqrog‘i, o‘ng qo‘llar va chap qo‘llar aniq ajralib chiqa boshlaydi.

Chap yarimsharning ustunligida o‘ng qo‘l, o‘ng yarimshar ustunlik qilganda esa chap qo‘l ishlaydi. Chapaqay bolalar tengqurlaridan nafaqat o‘jarligi, balki yana bir qancha jihatlari bilan farq qiladi. Odatda ular badiiy ijodga qobiliyatli va hissiyotga boy bo‘lishadi. Ular uch yoshdanoq qum yoki plastilindan boshqa bolalarga nisbatan narsalarni yaxshiroq yasay olishadi. Ko‘pchilik adabiyotlarda ularning musiqaga iqtidori borligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, ularning nutqi kechroq chiqishi va ayrim tovushlar talaffuzida qiyinchiliklarga uchrashi mumkin. Bunday bolalar soddadil, ishonuvchan, o‘tkinchi his-tuyg‘ularga ta’sirchan, yig‘loqi, o‘jar, jahli tez va istaklarining amalga oshishida qat’iy bo‘lishadi. Ularga o‘qish va yozish erta yoshda ancha qiyinchiliklar tug‘diradi[4-7].

Chapaqaylar muloqotga tez kirishuvchan bo‘lib, agarda biz ularning shaxsiy sifatlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiya usullarini qo‘llasak, barcha muammolarimiz osongina hal bo‘ladi.

Chapaqay bolalarning ota-onalari o‘zlarini qanday tutishlari kerak?

Bunday bolalarning hissiyotga beriluvchanligini hisobga olib, ular bilan juda hushyor va xayrixoh bo‘ling. Buning uchun oilada qulay sharoit yaratish lozim. Uning o‘jarligi bilan kurashmaslik kerak, uni bu holatdan chiqarish uchun u uchun qiziqarli bo‘lgan o‘yinlarni eslatish va bu bilan chalg‘itish tavsiya qilinadi. Ularni o‘ng qo‘lga o‘rgatishga harakat qilmang, atrofdagilarga hamda uning o‘ziga chapaqaylik ham me’yorning bir ko‘rinishi ekanligi, bunday odamlar ko‘pchilikni tashkil qilishini tushuntiring. Ularning kichik ishlarini ham maqtab, badiiy yoki musiqiy qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash lozim, lekin undan vunderking tayyorlashga harakat qilmang. Bolaga tez-tez kutilmagan sovg‘alar berib turing.

Ularga bo‘lgan talablarning oshganligini bolaga sezdirmang va boshqa bolalarni ularga namuna sifatida ko‘rsatmang.

Maktabga bergunga qadar chapaqay bolalarni o‘qishga, yozishga, chet tillarni o‘rgatishga shoshilmang, bunda bolaning o‘zini-o‘zi baholashi pasayishi mumkin. Ularni qanday bo‘lsa shundayligicha yaxshi ko‘rsangiz, yuqori natijalarga erishish uchun yaxshi imkoniyatlar yuzaga kelishi mumkin.

Agar besh yoshdan so‘ng bolada tushunarsiz holatlarni, xavotirlanish yoki qo‘rquvni sezsangiz, mutaxassislarga murojaat qilganingiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Chapaqay bolalarning ota-onalari o‘zlarini nimalardan cheklashi lozim?

Ularni boshqalardan farq qilishi, ya’ni faoliyatning barcha turlarida chap qo‘lidan foydalanishini hadeb eslataverishdan;

Buni tanishlarga yoki begonalar orasida ko‘p tilga olaverishdan;

Bolani o‘ng qo‘lga o‘rgatish va ularni o‘qish va yozishdagi o‘zlashtirish jarayonini tezlashtirishga urinishdan;

Ular bilan bo‘ladigan muloqotda rasmiy va mehrsiz bo‘lishdan;

Ularning qobiliyatini amalga oshirish uchun unga bo‘lgan talablarning oshganligini ta’kidlashdan;

Maktabgacha yoshdagi bolaning o‘qish, yozish, chet tillarni o‘rganish borasidagi sustkashligi uchun tanbeh berishdan.

Oilada bunday bolalarni hech kimga kerakmasligini his qilishi va o‘zini-o‘zi baholashi susayishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

Agar yuqoridagilarga amal qilinmasa, bolaning nutqida kamchilik, duduqlanish yoki nevrozning yuzaga kelishi va rivojlanishiga turtki bo‘lish mumkin.

Chapaqaylarga qanday yordam berish mumkin?

Bola maktabga chiqqunga qadar uning asosiy vazifa bajaradigan qo‘li va ko‘zini aniqlash juda muhim.

Agar bolaning yetakchi ko‘zi chap, yetakchi qo‘li esa o‘ng bo‘lsa, unga o‘qishni o‘rgatishda qaysi harfdan boshlab o‘qishni rangli qalamda belgilab bering, keyinroq tepadan pastga yo‘nalgan chiziq orqali ko‘z nazarini aniqlang. Ko‘pincha

chapaqay bolalar bosma harflarni teskari tomonga qaratib yozishadi. Ularga tanbeh berish o‘rinsiz. Ularga harflarni namuna sifatida har xil uzunlikdagi tayoqchalar va yarim aylanalarni chizishni o‘rgating, so‘ngra harflarni qayerdan boshlab qayerda tugatishni, ruchkaning yo‘nalish chiziqlarini o‘rgating. Bolalarga harflarning o‘xshash va farqli tomonlariga e’tibor qaratishini, harflarni yozish rejasi haqida tushuntirish yaxshi natija beradi.

Taklif va tavsiyalar

1. Bolalarni o’ng qo’lda ishlashga majburlamang;
2. Bolalarni boshqalarga taqqoslab baholamang – ularni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qiling.
1. Muammo va ziddiyatlardan ko‘z yummang – bolalarni eshitgan holda o‘zingiz ham gapiring;
2. O‘zingizga jabr yetkazmang – chunki sizga yomon bo‘lsa, bolaga ham yaxshi bo‘lmaydi;
3. Bolalar qanchalik aybdor bo‘lsa ham, ulardan yuz o‘girmang.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – T.: “Fan va texnalogiya”, 2012, 172 bet
2. Shamsiyev O‘.B. Ontogenetic principles of teaching foreign languages to adults / Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 10-son.
3. Shamsiev U.B., Shamsieva M.B. Ontogenetic principles of blingvalism Вестник интегративной психологии // Журнал для психологов. Вып. 36. Част 1. /Под ред. В.В.Козлова. – Ярославль: МАПН, 2025. – 414 с.
4. Шамсиев У.Б. Онтогенетические принципы обучения взрослого человека иностранному языку. Вестник интегративной психологии // Журнал для психологов. Вып. 38. Част 2. /Под ред. В.В.Козлова. – Ярославль: МАПН, 2025. – 510 с.

UDK 37.013.43:316.77:791.43

XORIJ MULTFILMLARIDA O‘ZBEK BOLALARINING MILLIY O‘ZLIGIGA QARSHI OMMAVIY MADANIYATNI TARG‘IB QILUVCHI OBRAZLAR: TAHLIL VA TAHDID

Abdusamatov Xasanboy Usmonjon o‘g‘li,
ISFT instituti “Psixologiya va pedagogika” kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Madjidova Dildora Abduxamidovna,
ISFT instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy multfilmlar orqali o‘zbek bolalarining milliy o‘zligiga tahdid soluvchi g‘oyalar va obrazlar tahlil qilingan. Bolalar psixologiyasiga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri sifatida ommaviy madaniyat mahsulotlari, ayniqsa, multfilmlar ko‘rib chiqiladi. Maqolada mashhur multfilmlar misolida individualizm, an’anaviy qadriyatlarga nisbatan befarqlik kabi g‘oyalar yoritilgan, ularning milliy identifikatsiyaga salbiy ta’siri va bu tahdidlarni bartaraf etish choralari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: multfilm, milliy o‘zlik, bolalar tarbiyasi, globallashuv, ommaviy madaniyat, individualizm, qadriyatlar.

ОБРАЗЫ, ПРОДВИГАЮЩИЕ МАССОВУЮ КУЛЬТУРУ ПРОТИВ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ УЗБЕКСКИХ ДЕТЕЙ В ЗАРУБЕЖНЫХ МУЛЬТФИЛЬМАХ: АНАЛИЗ И УГРОЗЫ

Аннотация. В данной статье проанализированы идеи и образы в зарубежных мультфильмах, которые могут представлять угрозу национальной идентичности узбекских детей. В качестве одного из основных факторов воздействия на психологию детей рассматриваются продукты массовой культуры, особенно мультфильмы. На примере популярных мультфильмов освещаются такие идеи, как индивидуализм, безразличие к традиционным ценностям, их негативное влияние на формирование национальной идентичности и обсуждаются меры по нейтрализации этих угроз.

Ключевые слова: мультфильм, национальная идентичность, воспитание детей, глобализация, массовая культура, индивидуализм, ценности.

Representations that promote mass culture versus the national identity of uzbek children in foreign cartoons: analysis and threats

Abstract. This article analyzes ideas and images in foreign animated films that may pose a threat to the national identity of Uzbek children. As one of the main factors affecting children's psychology, mass culture products, especially animated films, are examined. Using popular animated films as examples, the article highlights ideas such as individualism and indifference to traditional values, their negative impact on national identity, and discusses measures to counteract these threats.

Key words: animated film, national identity, child upbringing, globalization, mass culture, individualism, values.

Globallashuv jarayonida axborot oqimi, xususan, ommaviy axborot vositalari va multfilmlar kabi madaniy mahsulotlar bolalar ongiga juda kuchli ta'sir o'tkazmoqda. Hozirgi kunda o'zbek bolalari ham asosan xorij multfilmlarini ko'radi va ushbu mahsulotlar orqali ularga begona madaniyat, qadriyat va g'oyalar singdirilmoqda [1].

Milliy o'zlik insonning o'z madaniyati, tili, an'analari va tarixiga bog'liqlik hissi orqali shakllanadi. Bu hissiyot bolalikdan rivojlana boshlaydi va ayni paytda bolalar iste'mol qiladigan axborot manbalari – multfilmlar, o'yinlar, kitoblar, internet kontenti va boshqa ommaviy madaniyat mahsulotlari – milliy identifikatsiyaning mustahkamlanishida muhim rol o'ynaydi.

Milliy o'zlik shaxsning o'z millatiga mansublik hissi, milliy til va urf-odatlarni qadrlash, tarixiy xotira va madaniy qadriyatlarni anglash orqali shakllanadi. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar bolalik davrini milliy identifikatsiyaning eng muhim bosqichi sifatida belgilaydi. Psixologlar fikriga ko'ra, 3-10 yoshdagi bolalar tomonidan qabul qilingan vizual va interaktiv materiallar ularning shaxsiy va ijtimoiy yondashuvlarini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Agar bola o'z madaniyatiga xos obrazlar bilan cheklanmasdan, boshqa madaniyatga oid qahramonlar bilan ko'proq tanishsa yoki ular bilan vizual muhitida doimiy tarzda uchrasa, bu holat milliy o'zlikning zaiflashishiga, madaniy begonalashuvga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ota-onalar va pedagoglarning roli bolaga o'z madaniy merosi bilan tanishtirish va unga qarshi bo'lgan stereotipik obrazlarning salbiy ta'sirini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Antropolog Edvard Saydning "Orientalizm" nazariyasiga ko'ra, G'arb mamlakatlari Sharqqa nisbatan stereotiplar orqali ustunlik hissini saqlab keladi. Shu jihatdan, xorij multfilmlaridagi obrazlar bolalar ongida G'arb hayoti va qadriyatlariga qiziqish uyg'otishga xizmat qilishi, ba'zan esa milliy o'zlikni susaytiruvchi vosita sifatida ishlashi mumkin. Bu esa global madaniyatning bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Psixolog Erik Eriksonning “Shaxsiylik identifikatsiyasi” nazariyasida ta’kidlanishicha, bolalarda shaxsiylik hissi dunyoqarash, ta’lim va madaniy muhit orqali shakllanadi. Bola atrof-muhitdan olgan obrazlar, rollar va ijtimoiy signallar orqali “Men kimman?” degan savolga javob izlay boshlaydi[2]. Agar ushbu jarayonda milliy madaniyatga xos obrazlar yetarli bo‘lmasa yoki ular xorijiy ommaviy madaniyat mahsulotlari bilan siqib chiqarilsa, bolada madaniy begonalashuv va milliy identifikatsiyaning zaiflashishi holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Shu bois, bolalar tarbiyasida milliy o‘zlikni mustahkamlash, madaniy meros va qadriyatlarni singdirish hamda xorij madaniyati orqali kelib tushuvchi salbiy tasvirlar ta’sirini nazorat qilish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Bir soat televizor tomosha qilish bolaning diqqat qilish muammolari paydo bo‘lish ehtimolini 10% ga oshiradi. Kuniga 3 soat televizor tomosha qiladigan bolalarda umuman televizor ko‘rmaydigan bolalarga nisbatan diqqatni jamlash muammolarining paydo bo‘lish ehtimoli 30% ko‘proqdir [8]. Go‘dak va yosh bolalar qanchalik televizor, tablet, telefon va hokazolarni tomosha qilishsa, ularda diqqat tanqisligi va giperfaollik sindromi (СДВГ), ya’ni dastlabki maktab yillarida ularda diqqat qilish va e’tiborni jamlashga muammolar bo‘lishini ehtimoli shunchalik katta bo‘ladi [8].

So‘nggi yillarda Osiyo va Markaziy Osiyo mintaqasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xorij multfilmlarini muntazam tomosha qiluvchi bolalarda milliy tilga qiziqishning pasayishi, xorijiy so‘z va iboralardan faol foydalanish, milliy kiyim va urf-odatlarga nisbatan befarqlik kuchaymoqda [8]. Indoneziyada o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, xorij animatsion mahsulotlari bolalarda madaniy identifikatsiya inqirozini keltirib chiqarishi aniqlangan [9]. Ushbu holat o‘zbek jamiyati uchun ham dolzarb xavf hisoblanadi.

Har bir multfilm muayyan g‘oyani ifoda etadi. Hozirgi multfilmlar bolalarda mustaqillik, shaxsiy erkinlik kabi g‘oyalarni targ‘ib qilish bilan bir qatorda, ularni an’anaviy qadriyatlardan uzoqlashtirish xususiyatiga ham ega. Masalan, “Frozen” multfilmidagi Elza obrazi jamiyat talablariga qarshi kurashuvchi, “o‘zligini topish” uchun oiladan yuz o‘girgan qahramon sifatida aks ettiriladi [2].

Aksariyat xorijiy multfilmlar bolalarda shaxsiy manfaatni jamiyatdan ustun qo‘yish, ota-onalar maslahatini inkor etish va qadimiy urf-odatlarni “vahshiylik” yoki “qadimiy va ahamiyatsiz” tarzda ko‘rsatish orqali milliy qadriyatlarga befarqlikni shakllantirmoqda. Bu jarayon uzoq muddatda bolalar ongida milliy o‘zlikni susaytirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, multfilm va boshqa ommaviy madaniyat mahsulotlari bolalar tarbiyasida nafaqat o‘yin-kulgi vositasi, balki madaniy va ma’naviy muhitni shakllantiruvchi kuch sifatida qaralishi lozim.

Ommaviy madaniyat asosan G‘arb mamlakatlari – xususan, AQSh va Yevropa – tomonidan yaratilgan kontent orqali tarqaladi. Bu kontentdagi obrazlar ko‘pincha individualizm, erkin hayot tarzi, milliy an’analarga befarqlik va diniy qadriyatlardan yuz o‘girish kabi g‘oyalarni targ‘ib qiladi. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek bolalarining katta qismi mahalliy multfilmlardan ko‘ra xorij

mahsulotlarini afzal ko‘radi. Bu esa mahalliy madaniyat va qadriyatlarning bolalar ongida yetarli darajada mustahkamlanmasligiga olib keladi.

Ommaviy madaniyat mahsulotlari, xususan, multfilmlar bolalar ongiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri vizual va emotsional ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola ko‘rgan multfilm qahramonini taqlid qiladi: uning xulq-atvori, nutqi, kiyinish uslubi va qadriyatlari bolaning ongida yoki ongsiz ravishda qabul qilinadi. Shu bilan birga, qahramonlarning sarguzashtlari, qaror qabul qilish usullari va konfliktlarni hal etish shakllari bolalarda ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladi.

Shu bois, xorij multfilmlaridagi obrazlarni tanqidiy tahlil qilish, bolalarni ularni sog‘lom tanqidiy qarash bilan qabul qilishga o‘rgatish va milliy qadriyatlarni mustahkamlovchi kontentni targ‘ib qilish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, pedagoglar va ota-onalar rolini kuchaytirish, bolalarni mahalliy madaniyat va qadriyatlar bilan tanishtirish ham milliy o‘zlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[3].

Xorij multfilmlarida keng targ‘ib qilinayotgan individualizm, shaxsiy manfaatni jamiyatdan ustun qo‘yish, an’anaviy oila modelini inkor etish, diniy va axloqiy cheklovlarga befarqlik kabi g‘oyalar o‘zbek bolalarining milliy tarbiya modeliga zid hisoblanadi.

Mazkur maqolada biz misollar orqali Frozen (Elza), Moana, Shrek, va Gravity Falls multfilmlaridagi obrazlar tahlilini keltirib o‘tamiz.

1. “Frozen” (Qor qirolichasi) multfilmi. Bu multfilmdagi Elza obrazi orqali shaxsiy erkinlik va ichki istaklarni ijtimoiy mas’uliyatdan ustun qo‘yish g‘oyasi ilgari suriladi [2]. Tashqaridan qaralganda, u ilhomlantiruvchi, erkin obrazdek tuyulishi mumkin. Elza o‘z qobiliyatlarini nazorat qilish o‘rniga jamiyatdan ajralishni tanlaydi, bu esa bolalar ongida jamoaviylik va oila mas’uliyatiga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirishi mumkin. Ammo o‘zbek milliy an’analarida jamiyat, oila va axloqiy chegaralar muhim o‘rin tutadi. Bolalar bu multfilm orqali “o‘z xohishlaringni jamiyatdan ustun qo‘yish” g‘oyasini qabul qilib borishi mumkin. O‘zbek milliy tarbiyasida esa shaxsning jamiyat va oila oldidagi burchi ustuvor qadriyat hisoblanadi.

2. “Moana” (Moana) multfilmi. Asosiy qahramon Moana mustaqillik va avlodlar tajribasi va an’anasidan ajralib, kattalar nasihatlarini rad etib, “ichki ovoz”ga ergashish orqali o‘z maqsadiga erishadi. [3]. Mazkur syujet individual tanlovni mutlaq haqiqat sifatida ko‘rsatadi. Holbuki, o‘zbek pedagogik an’analarida kattalarga hurmat, ota-ona so‘ziga itoat va avlodlar davomiyligi muhim tarbiyaviy tamoyil sanaladi. O‘zbek bolalari uchun bunday obrazlar milliy qadriyatlarga nisbatan shubha uyg‘otishi mumkin.

3. “Shrek” (Shrek) multfilmi. Ushbu multfilmda an’anaviy ertak obrazlari (shoh, malika, ajdarho va hokazo) masxara qilinadi, an’anaviy yaxshilik va yomonlik mezonlari nisbiylashtiriladi [4]. Ma’naviy qadriyatlar, yaxshi va yomon orasidagi aniq chegara yo‘q qilinadi. Ehtiros, masxara orqali har qanday muqaddas tushuncha kulgiga aylantiriladi. Tadqiqotchilar bunday yondashuv bolalarda axloqiy

relativizmni shakllantirib, qadriyatlar ierarxiyasini buzishini ta’kidlaydi [6]. Bu holat milliy ertaklarimizga xos bo‘lgan axloqiy aniqlik va tarbiyaviy aniqlikdan keskin farq qiladi. Bu – bolalarning axloqiy tushunchalarini zaiflashtirishi mumkin.

4. “Gravity Falls” multfilmi. Bu multserialda sirli, g‘ayritabiiy voqealar, shubhali “sirlar” va fantastik obrazlar bilan bola ongida dunyoviy voqelikka nisbatan shubha uyg‘otiladi [5]. Ma’naviy va diniy qadriyatlar fonida nosog‘lom qiziqishlar shakllanishi xavfi bor. Bu multfilmda qizlar va o‘g‘il bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida milliy o‘zligimizga qarshi ko‘pgina misollarni mazkur multfilm epizodlari keltirilgan quyidagi rasmlar orqali tahlil qilish mumkin:

Psixologik tadqiqotlarda bunday kontent bolalarda irratsional qo‘rquv, shubha va beqaror emotsional holatlarni kuchaytirishi qayd etilgan [6].

5. “Encanto” (Enkanto) multfilmi. Ushbu multfilmda oila qadriyatlari namoyon bo‘lgandek tuyuladi, ammo chuqur tahlil qilinsa, faqat “iste’dod”lilargina qadrlanadi, a’zolar orasidagi zaifliklar inkor etiladi [6]. Bunday g‘oyalar “kamchiliklar – kambag‘allik”, “faoliyatsizlik – arzimaslik” kabi noto‘g‘ri tushunchalarni bola ongiga joylashtirishi mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ushbu multfilmlar bolalarda quyidagi xavfli tendensiyalarni yuzaga keltirishi mumkin:

- mahalliy an’analarga befarqlik;
- oila va kattalar so‘ziga e’tiborsizlik;
- til, din va tarixga qiziqishning kamayishi.

Bugungi kunda o‘zbek bolalarining katta qismi internet orqali turli kontentlarga, shu jumladan multfilmlar, o‘yinlar, video platformalar va ijtimoiy tarmoqlarga osonlik bilan kirish imkoniyatiga ega. Raqamli texnologiyalar va internetning globalizatsiyalashuvi bolalarga bilim va ma’lumotlarni tez va samarali yetkazish bilan birga, ularni begona madaniyat va g‘oyalar ta’siriga ham ochiq qiladi.

Agar bolalar milliy qadriyatlar bilan yetarli darajada tanish bo‘lmasa, ular o‘zini boshqa madaniyatlarning vizual va interaktiv ta’siriga osonlik bilan topshirishi mumkin. Bu esa nafaqat madaniy begonalashuv, balki milliy o‘zlikning zaiflashishiga va inkor etilishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, internet orqali tarqalayotgan kontentning sifati va mazmuni bolalar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, global kontent ko‘pincha individualizm, erkin hayot tarzi, qadimiy urf-odatlarga befarqlik va diniy qadriyatlardan yuz o‘girish kabi g‘oyalarni targ‘ib qiladi. Bolalar bu obrazlar va situatsiyalarga taqlid qilganida, ularning shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlari shakllanishida salbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, bolalarni internet resurslaridan foydalanganida tanqidiy fikrlashga o‘rgatish, milliy madaniyat va qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi kontentni yetarli darajada taqdim etish, hamda ota-onalar va pedagoglarning nazoratini kuchaytirish zarur.

Natijada, milliy qadriyatlarni mustahkamlash, bolalarning o‘z madaniyati bilan tanishishini ta’minlash va ularni begona madaniyat ta’siridan himoya qilish

zamonaviy tarbiya tizimining dolzarb vazifasiga aylanadi. Shu bilan birga, internet va raqamli resurslarni samarali va ongli foydalanish orqali bolalarda milliy o‘zlikni rivojlantirishga erishish mumkin.

Yuqoridagi tahlillar asosida bugungi kunda yosh avlodning tarbiyasida xorijiy multfilmlarning ommaviy madaniyatning targ‘ibotiga qarshi quyidagi tavsiyalarni keltiramiz:

– Milliy multfilmlar yaratish, O‘zbekistonda bolalar uchun milliy qahramonlarga asoslangan, tarixiy va axloqiy tarbiya beradigan multfilmlar soni ko‘paytirilishi lozim.

– Filtr mexanizmini joriy etish orqali mutasaddi vazirlik va tashkilotlar, jumladan ta’lim tashkilotlari va ota-onalar hamkorligida bolalar tomonidan ko‘riladigan kontent tahlil va nazorat qilinishi kerak.

– Multfilm tarjima va dublyajida ehtiyotkorlik, ya’ni tarjima jarayonida milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga zid obrazlarni o‘tkazmaslik kerak. Masalan, ayrim qahramonlar fe’l-atvori o‘zbekcha ovozda yumshoqroq ifodalanishi mumkin.

Mazkur muammoni bartaraf etishda pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Avvalo, milliy multfilm industriyasini rivojlantirish, o‘zbek xalq ertaklari, tarixiy shaxslar va zamonaviy milliy qahramonlar asosida sifatli animatsion mahsulotlar yaratish zarur. Shuningdek, maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida media savodxonlik, axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar joriy etilishi lozim [10]. Ota-onalar uchun esa bolalar kontentini tanlash va nazorat qilish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Xorij multfilmlaridagi obrazlar va g‘oyalar o‘zbek bolalari ongiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ular orqali milliy o‘zlikka qarshi g‘oyalar sekin va yashirin ravishda singdirilmoqda. Bu jarayonni to‘xtatish uchun mahalliy multfilmlar soni va sifati oshirilishi, kontent nazorati kuchaytirilishi, ota-onalar va o‘qituvchilarga media savodxonlik o‘rgatilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, xorij multfilmlarida orqali targ‘ib qilinayotgan ommaviy madaniyat obrazlari o‘zbek bolalarning milliy o‘zligiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu ta’sir ko‘pincha yashirin va bilvosita bo‘lib, bolalar ongida milliy qadriyatlardan uzoqlashish, madaniy begonalashuv va identifikatsiya inqiroziga olib kelishi mumkin. Bu sohada keng qamrovli ish olib borilmasa, yosh avlodda o‘zlikni yo‘qotish, madaniy begonakashlik kabi holatlar avj olishi mumkin. Shu sababli, milliy media mahsulotlarini rivojlantirish, bolalar ongini himoya qilish va global ta’sirlarga nisbatan ma’naviy immunitetni shakllantirish har qachongidan ham muhimdir. Bunda milliy tarbiya tizimini mustahkamlash, bolalar media makonini pedagogik jihatdan muvozanatlash va milliy madaniyatni raqamli muhitda faol targ‘ib etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayev A. Media madaniyat va bola ongidagi ta’siri. – Toshkent: “Nur” nashriyoti. 2023.
2. Disney J. Frozen (Film). Walt Disney Pictures. 2013
3. Disney J. Moana (Film). Walt Disney Animation Studios. 2016.
4. Katzenberg J. Shrek (Film). DreamWorks Animation. 2001.
5. Hirsch A. Gravity Falls. Disney Channel Series. 2012.
6. Rasyid A. Foreign Animation Films and Anti-Multiculturalism. ResearchGate. 2016.
7. Abdusamatov X.U., Madjidova D.A. Xorij multfilmlarining o‘zbek bolalarida milliy o‘zlikni shakllanishiga salbiy ta’siri masalalari/ Bola va Zamon, № 4, 2025 – B. 2-3.
8. Karimov B. Globallashuv va milliy identifikatsiya muammolari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
9. Jo‘rayev A. Media madaniyat va bolalar tarbiyasi. – Toshkent: Fan, 2022.
10. UNESCO. Media and Information Literacy in Education. – Paris, 2020.

UDK 159.923:616.89

НЕЙРОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КОРРЕЛЯТЫ ТРЕВОЖНОСТИ ПРИ ХРОНИЧЕСКОМ СТРЕССЕ

Нурлыханкызы Е.,
Старший преподователь университета им.Ж.А.Ташенова, Шымкент, Казахстан

Джамашова Г.А.,
Старший преподователь регионального инновационного университета, Шымкент, Казахстан

Аннотация. В статье рассматриваются нейропсихологические особенности проявления тревожности в условиях хронического стресса. Проанализированы современные представления о взаимосвязи эмоциональной регуляции, когнитивных функций и нейрофизиологических механизмов тревожных состояний. Особое внимание уделено роли префронтальной коры, миндалевидного тела и гиппокампа в формировании устойчивых стресс-реакций и их влиянии на память, внимание и исполнительные функции. На основе обзора эмпирических исследований последних лет обсуждаются изменения нейропсихологических показателей у лиц с высоким уровнем тревожности, а также возможности ранней диагностики и психологической коррекции.

Ключевые слова: нейропсихология, тревожность, хронический стресс, когнитивные функции, эмоциональная регуляция, префронтальная кора, миндалевидное тело, нейропсихологическая диагностика.

SURUNKALI STRESS SHAROITIDA XAVOTIRNING NEYROPSIXOLOGIK KORRELYATLARI

Annotatsiya. Maqolada surunkali stress sharoitida xavotir (tashvish)ning neyropsixologik xususiyatlari o‘rganilgan. Emotsional regulyatsiya, kognitiv funksiyalar va xavotirli holatlarning neyrofiziologik mexanizmlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Maxsus e’tibor prefrontal korteks, amigdala (mandal tuzilishi) va gipokampning barqaror stress reaksiyalarini shakllantirishdagi roli hamda ularning xotira, diqqat va ijro funksiyalariga ta’siriga qaratilgan. So‘nggi yillarda olib borilgan empirik tadqiqotlar natijalariga tayangan holda, yuqori darajada xavotirga ega shaxslarda neyropsixologik ko‘rsatkichlarning o‘zgarishlari, shuningdek, erta diagnostika va psixologik koreksiya imkoniyatlari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: neyropsixologiya, xavotir, surunkali stress, kognitiv funksiyalar, emotsional regulyatsiya, prefrontal korteks, amigdala, neyropsixologik diagnostika.

NEUROPSYCHOLOGICAL CORRELATES OF ANXIETY UNDER CHRONIC STRESS

Abstract. The article examines the neuropsychological characteristics of anxiety under conditions of chronic stress. The study analyzes current understanding of the interrelationship between emotional regulation, cognitive functions, and the neurophysiological mechanisms of anxious states. Special attention is given to the role of the prefrontal cortex, amygdala, and hippocampus in forming stable stress responses and their impact on memory, attention, and executive functions. Based on a review of recent empirical studies, changes in neuropsychological indicators in individuals with high levels of anxiety, as well as possibilities for early diagnosis and psychological intervention, are discussed.

Keywords: neuropsychology, anxiety, chronic stress, cognitive functions, emotional regulation, prefrontal cortex, amygdala, neuropsychological assessment.

Современные исследования показывают, что хронический стресс является одним из наиболее значимых факторов, влияющих на психическое и физическое здоровье человека. Постоянное воздействие стрессоров приводит к активации гипоталамо-гипофизарно-надпочечниковой системы, изменению нейрохимических процессов и, как следствие, к формированию устойчивых тревожных состояний. Тревожность, в свою очередь, выступает не только эмоциональным откликом на стресс, но и сложным когнитивно-нейропсихологическим феноменом, связанным с переработкой информации, вниманием, памятью и исполнительными функциями. На уровне нейрофизиологии тревожные реакции связаны с гиперактивацией миндалевидного тела и снижением регуляторной активности префронтальной коры, что ведет к нарушению эмоционального контроля и снижению когнитивной эффективности. При длительном воздействии стресса наблюдаются структурно-функциональные изменения в гиппокампе, влияющие на процессы памяти и обучения. Эти нейропсихологические изменения формируют предпосылки для закрепления патологического уровня тревожности и ухудшения адаптационных возможностей личности. Несмотря на значительное количество исследований, проблема взаимосвязи хронического стресса и тревожности в нейропсихологическом аспекте остается недостаточно изученной. Большинство работ сосредоточено на клинических проявлениях тревожных расстройств, в то время как когнитивные и нейропсихологические механизмы их формирования требуют дальнейшего анализа.

Целью настоящего исследования является выявление нейропсихологических коррелятов тревожности у лиц, находящихся в состоянии хронического стресса, а также определение связи между особенностями когнитивного функционирования и выраженностью тревожных проявлений.

Актуальность данного исследования определяется необходимостью комплексного изучения когнитивных и нейропсихологических механизмов формирования тревожности в условиях хронического стресса. Несмотря на обилие работ, посвящённых стрессу и тревожным расстройствам, недостаточно исследована структура взаимосвязей между когнитивными функциями, эмоциональной регуляцией и нейрофизиологическими показателями.

Объект исследования - тревожность как психическое состояние личности в условиях хронического стресса.

Предмет исследования -нейропсихологические корреляты тревожности, проявляющиеся в особенностях когнитивного функционирования и эмоциональной регуляции.

Цель исследования - выявить нейропсихологические корреляты тревожности у лиц, находящихся в состоянии хронического стресса, и определить взаимосвязь между выраженностью тревожности и нарушениями когнитивных процессов.

Задачи исследования:

1. Проанализировать современные теоретические подходы к проблеме тревожности и хронического стресса.
2. Рассмотреть нейрофизиологические механизмы, лежащие в основе тревожных состояний.
3. Определить особенности когнитивного функционирования при различных уровнях тревожности.
4. Установить взаимосвязь между нейропсихологическими показателями и степенью выраженности хронического стресса.

Гипотеза исследования заключается в предположении, что хронический стресс сопровождается специфическими нейропсихологическими изменениями, проявляющимися в нарушении внимания, памяти и эмоциональной регуляции, а степень выраженности этих нарушений коррелирует с уровнем тревожности.

Научная новизна работы состоит в уточнении нейропсихологических коррелятов тревожности при хроническом стрессе и выявлении особенностей когнитивных нарушений, связанных с дисфункцией префронтальной коры и лимбической системы. Полученные результаты могут быть использованы при разработке программ психологической диагностики и коррекции тревожных состояний у лиц, подвергающихся длительному стрессу.

Хронический стресс рассматривается современной психологией как длительное воздействие стрессоров, при котором нарушается адаптационная

способность организма и изменяются механизмы нейрогуморальной регуляции. При этом основным патогенетическим звеном выступает гиперактивация гипоталамо-гипофизарно-надпочечниковой оси (ГГН-оси), что сопровождается повышением уровня кортизола и длительным возбуждением лимбических структур. Согласно исследованиям (McEwen, 2021; Kim et al., 2022), хронический стресс вызывает структурные изменения в префронтальной коре и гиппокампе, проявляющиеся снижением плотности серого вещества, ухудшением нейронных связей и снижением когнитивной гибкости. Эти процессы приводят к повышению уязвимости к тревожным расстройствам. Нейропсихологические данные подтверждают, что тревожность при хроническом стрессе связана с дефицитом когнитивного контроля, нарушением селективного внимания и переработки информации. Повышенный уровень тревоги способствует концентрации внимания на потенциально угрожающих стимулах, что приводит к снижению эффективности обработки нейтральной информации и перегрузке рабочей памяти (Eysenck et al., 2019).

Ключевую роль в регуляции тревожных реакций играет **миндалевидное тело**, ответственное за идентификацию угрозы и формирование эмоционального отклика. При хроническом стрессе наблюдается его гиперактивация и снижение ингибирующего влияния префронтальной коры, что проявляется повышенной эмоциональной реактивностью и трудностями в контроле тревожных импульсов (Etkin et al., 2020).

Кроме того, гиппокамп, участвующий в процессах памяти и оценке контекста ситуации, подвергается стресс-индуцированной атрофии, что приводит к снижению способности различать реальные и предполагаемые угрозы. Нарушения в передней поясной коре и дорсолатеральной префронтальной коре сопровождаются ухудшением регуляции внимания и когнитивного контроля, что усиливает чувство неопределённости и тревожность.

При длительном стрессе тревожность сопровождается рядом когнитивных нарушений, включая снижение концентрации внимания, скорости обработки информации и оперативной памяти. Исследования с применением нейропсихологических тестов (Stroop, Trail Making Test, тест Векслера) показывают, что лица с высоким уровнем тревожности демонстрируют замедленное переключение внимания и меньшую устойчивость к интерференции (Moran, 2016; Bishop Gagne, 2018).

Нейропсихологические корреляты тревожности включают:снижение эффективности исполнительных функций,затруднения в планировании и контроле действий,склонность к катастрофизации и избыточному анализу угроз,повышенную сенситивность к эмоционально окрашенным стимулам.Эти данные подтверждают, что тревожность формируется на стыке когнитивных, эмоциональных и физиологических процессов, где

нейропсихологические механизмы играют ключевую роль в закреплении патологических реакций.

Для проверки гипотезы исследования предполагается проведение эмпирического исследования с участием лиц, находящихся в состоянии хронического стресса (например, медицинские работники, студенты в период сессии, сотрудники высокострессовых профессий). **Методы исследования:** опросники для диагностики тревожности (например, шкала тревожности Спилбергера–Ханина, Beck Anxiety Inventory), оценка уровня стресса (Perceived Stress Scale, PSS),Нейропсихологические пробы (тесты на внимание, рабочую память, скорость переключения, эмоциональную регуляцию), при наличии возможности - ЭЭГ/фМРТ для фиксации функциональных изменений в префронтальных и лимбических структурах.

Ожидаемые результаты**.** Предполагается, что высокий уровень тревожности будет коррелировать с показателями когнитивного истощения, снижением продуктивности внимания и нарушением эмоционального контроля. Также вероятно выявление специфических паттернов нейропсихологических нарушений у лиц с выраженным хроническим стрессом.

Результаты теоретического анализа и обобщения данных современных исследований подтверждают, что хронический стресс оказывает значительное влияние на функционирование центральной нервной системы, вызывая комплекс нейропсихологических и когнитивных изменений. Тревожность при этом выступает не просто эмоциональной реакцией на стресс, а системным психофизиологическим состоянием, отражающим нарушение взаимодействия между лимбическими структурами и префронтальной корой.Установлено, что хронический стресс способствует гиперактивации миндалевидного тела и снижению регуляторного потенциала префронтальной коры, что приводит к дезорганизации когнитивных процессов - прежде всего внимания, памяти и исполнительных функций. Эти нейропсихологические корреляты проявляются в виде сниженной концентрации внимания, трудностей в переработке информации и повышенной эмоциональной реактивности.

Тревожность при хроническом стрессе может рассматриваться как результат комплексных нарушений когнитивно-эмоционального взаимодействия, поддерживающих устойчивое состояние внутреннего напряжения и сниженной адаптивности.

Основные выводы – хронический стресс вызывает стойкие нейропсихологические изменения, затрагивающие ключевые зоны мозга, ответственные за регуляцию эмоций и когнитивный контроль.Тревожность тесно связана с дисбалансом между активностью лимбической системы и префронтальной коры, что проявляется в нарушениях внимания, памяти и исполнительных функций.Нейропсихологические показатели могут служить диагностическими маркерами уровня тревожности у лиц, подвергающихся

длительному стрессу.Выявление этих коррелятов позволяет разрабатывать более точные методы профилактики и коррекции тревожных состояний.

Научная значимость. Исследование вносит вклад в развитие нейропсихологического подхода к изучению тревожности, уточняя механизмы когнитивных нарушений при хроническом стрессе. Полученные выводы расширяют понимание взаимодействия эмоциональных и когнитивных систем мозга и могут быть использованы для дальнейшего построения эмпирических моделей тревожных состояний.

Практическая значимость. Результаты исследования могут быть применены:

в клинической и консультативной психологии для ранней диагностики тревожности и стрессовых состояний, при разработке программ психологической коррекции и профилактики эмоционального выгорания,в образовательной и организационной практике — для оптимизации эмоциональной регуляции и когнитивной эффективности сотрудников и студентов.

Рекомендации – разрабатывать комплексные программы психопрофилактики, направленные на формирование навыков стрессоустойчивости и эмоциональной регуляции.Использовать нейропсихологические тесты в практике оценки тревожности у лиц, подвергающихся длительным нагрузкам.Включать методы когнитивно-поведенческой терапии и mindfulness-подходы в коррекционные программы для снижения тревожности.Проводить дальнейшие исследования с применением нейровизуализационных методов (фМРТ, ЭЭГ) для уточнения функциональных изменений в мозге при хроническом стрессе.

Список литературы:

1. Babarro I., Ibarluzea, J., Theodorsson, E., Fano, E., Lebeña, A., Guxens, M., Sunyer, J., Andiarena, A.. Hair cortisol as a biomarker of chronic stress in preadolescents: Influence of school context and bullying. *Child Neuropsychology*. Advance online publication. https://doi.org/10.1080/09297049.2022.2115991 repositori.upf.edu.2022
2. Gkintoni E., & Suárez Ortiz, P. Neuropsychology of generalized anxiety disorder in clinical setting: A systematic evaluation. *Healthcare, 11*(17), 2446. https://doi.org/10.3390/healthcare11172446 MDPI+1.2023
3. Luciana M., & Collins, P. F. Neuroplasticity, the prefrontal cortex, and psychopathology-related deviations in cognitive control. *Annual Review of Clinical Psychology, 18*, 443-469. https://doi.org/10.1146/annurev-clinpsy-081219-111203 annualreviews.org.2022
4. Shanmugasundaram N., Arun Narayan Pradeep, K. S., Balachandran, D., Prathima, P., & Rathi, R. K. Neuropsychology anxiety and its relationship with

chronic stress in an adult age. *Journal for ReAttach Therapy and Developmental Diversities*, *6*(10s(2)), 26-35. jrtdd.com.2023

5. Stokan H., et al. [Authors]. The impact of meditation and music on anxiolytic and stress-tolerance effects: neuropsychology framework. *Open Journal of Psychiatry*, *12*, 223-231. https://doi.org/10.4236/ojpsych.2022.123017 SCIRP .2022

6. Tseilikman V., Akulov, A., Shevelev, O., Khotskina, A., Kontsevaya, G., Moshkin, M., Fedotova, J., Pashkov, A., Tseilikman, O., Agletdinov, E., Tseilikman, D., Kondashevskaya, M., & Zavjalov, E. Paradoxical anxiety level reduction in animal chronic stress: A unique role of hippocampus neurobiology. *International Journal of Molecular Sciences*, *23*(16), 9151. https://doi.org/10.3390/ijms23169151 MDPI.2022.

UDK 372.3/.4:159.954:316.6

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING IJODIY IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK FAKTORLARNING O‘RNI

Maxmudova Darmonjon Bozorboyevna,
ISFT instituti professori v.b.,

Madraximova Inobat Baxodirovna,
Alfraganus universiteti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishda ijtimoiy-psixologik omillar, didaktik yondashuvlar va pedagogik metodlarning samarali qo‘llanilishi masalalarini yoritadi va ilmiy-amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, maktab, o‘qituvchi, ijodkorlik, didaktik, usul, metod, kreativlik, pedagogika, shaxs, faollik, o‘quvchi, boshlang‘ich ta’lim, qobiliyat.

РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы эффективного использования социально-психологических факторов, дидактических подходов и педагогических методов в развитии творческого потенциала учащихся начальной школы, а также приводятся научные и практические рекомендации.

Ключевые слова: Образование, школа, учитель, творчество, дидактика, метод, метод, творчество, педагогика, личность, деятельность, ученик, начальное образование, способности.

THE ROLE OF SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS IN DEVELOPING STUDENTS’ CREATIVE ABILITIES IN PRIMARY EDUCATION

Abstract. This article highlights the issues of effective use of socio-psychological factors, didactic approaches and pedagogical methods in developing the creative potential of primary school students, and also provides scientific and practical recommendations.

Key words: Education, school, teacher, creativity, didactics, method, method, creativity, pedagogy, personality, activity, student, elementary education, abilities.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti bilan birga xalq hayoti va davlat siyosatida tub va izchil o‘zgarishlar yuz bermoqda. Shu davrda jamiyatimiz o‘z kelajagini barpo etishda buyuk ajdodlarimiz – pedagoglar, faylasuflar, olimlar, din arboblari va donishmandlarning ilmiy-merosini chuqur o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu esa nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash, tadqiq etish va rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratmoqda.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va jamiyatning ravnaqi avvalo uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Ilmiy-texnikaviy salohiyati yuqori bo‘lgan mamlakatlar barcha sohalarda yetakchilikni qo‘lga kiritadi va global miqyosda o‘z o‘rnini mustahkamlaydi. Shu sababli, bugungi kunda davlat ta’lim tizimi talab qiladigan an’anaviy bilim va ko‘nikmalardan tashqari, zamonaviy fanlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kreativ tafakkur va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini egallash ham muhim hisoblanadi. Bu esa yosh avlodni nafaqat bilimli, balki zamonaviy, dunyoqarashi keng va raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda boshlang‘ich ta’lim tizimining asosiy vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **har tomonlama barkamol shaxs tarbiyalash:** o‘quvchilarni intellektual, ma’naviy, estetik va ijtimoiy jihatdan rivojlantirish, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish;
- **mustaqil fikrlash va o‘zligini anglashni rivojlantirish:** Bolalarga o‘z fikrini erkin ifodalash, qarorlar qabul qilish va o‘z “men”ini shakllantirish imkoniyatini yaratish;
- **bilimlarni chuqur va samarali o‘rganish:** Maktabda va maktabdan tashqari faoliyatda faollikni rag‘batlantirish, ilmiy izlanishlarga qiziqishni oshirish.
- **milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rgatish:** Boy ma’naviyatimiz, tarixiy merosimiz, madaniyat va an’analarni qadrlashni singdirish;
- **yuksak axloqiy fazilatlar va estetik didni shakllantirish:** Bolalarda hurmat, mehr-oqibat, halollik kabi fazilatlarni rivojlantirish va go‘zallikni qadrlash ruhini berish.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’lim nafaqat bilim berish, balki yosh avlodni jamiyatning faol, bilimli va ma’naviyatli a’zosi sifatida tarbiyalashning muhim poydevorini yaratadi. Bu jarayon esa yangi O‘zbekistonning intellektual va ma’naviy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ijodiy qobiliyatlar masalasi psixologiya fanida dolzarb va nisbatan chuqur tadqiq etilgan muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzu qadim zamonlardan bugungi kungacha o‘rganilib, ko‘plab olimlarning ilmiy izlanishlariga asos bo‘lgan. Inson imkoniyatlarini o‘rganish masalasiga Sharq mutafakkirlari (al-Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino), Rossiya psixologlari (B.M. Teplov, B.G. Ananev, N.V. Kuzmina, S.L. Rubinshteyn, A.G. Kovalev, V.N. Myasishev) hamda G‘arb olimlari (A. Binet, T. Simon, F. Galton, W. Stern, G. Allport, C. Rogers) katta hissa qo‘shgan. Shu bilan birga, ushbu muammoni O‘zbekiston psixologlari (E.

G‘oziev, R. Gaynutdinov, M.G. Davletshin, B.R. Qodirov, V.A. Tokareva va boshqalar) ham o‘rganib, muhim natijalarga erishganlar.

Ijodkorlik insonning yangilik yaratishga, muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan ijodiy qobiliyatini anglatadi. Mazkur jarayonning asosi original fikrlash, amaliy yechim topish, noodatiy yondashuv va intellektual erkinlik kabi xususiyatlardan tashkil topadi. Ijodiy fikrlash esa muayyan masala doirasida keng qamrovli va turli rakurslardan yondashish, shuningdek, yangi va takomillashtirilgan yechimlarni topish qobiliyatini ifodalaydi.

J.Guilfordning fikriga ko‘ra, ijodiy fikrlashning asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

- o‘ziga xoslik: noodatiy va innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;
- semantik moslashuvchanlik: ob’ektni turli nuqtai nazarlardan tahlil qilish salohiyati;
- majoziy moslashuvchanlik: ob’ektning yashirin va kutilmagan jihatlarini aniqlash uchun idrokni moslashtirish imkoniyati;
- noma’lum vaziyatlarda g‘oya ishlab chiqish: turli sharoitlarda ijodiy yechimlarni qo‘llash qobiliyati.

Bu xususiyatlar ijodiy fikrlashning muhim mezonlarini belgilaydi va insonning intellektual salohiyatini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

“Inson, o‘zi va ruhiyati orasidagi hamda o‘zi va boshqa birov orasidagi mavjud narsani tadqiq etishda bor imkoniyatni ishlatib muntazam ravishda mashq qildirib turish kerak. Buni u haqiqat vositalarini egallashda sabot bilan yo o‘qitish va murabbiylik usullari yoki bahs va himoya usullari bilan amalga oshirilishi zarur” deb yozadi, Abu Nasr Farobiyning Fozil odamlar shahri kitobida [1].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim va tarbiyalash jarayonida nazariy hamda amaliy jihatlarni chuqur anglash muhimdir. Buning uchun, avvalo, quyidagi psixologik-pedagogik masalalarning mohiyatini tushunib olish zarur:

- o‘quvchi shaxsining psixologik rivojlanish darajasi;
- o‘quvchi shaxsining shakllanish jarayoni va o‘quv-mehnat faoliyatining mazmuni;
- o‘quvchi shaxsining individual xususiyatlari va ijtimoiy-psixologik tavsiflari.

O‘quvchi shaxsining psixologik rivojlanish darajasini to‘liq yoritish uchun uning rivojlanish dinamikasi va xususiyatlari haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish lozim.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning psixologik rivojlanishi ularning yoshga oid o‘ziga xosliklari bilan uzviy bog‘liqdir. Ruhiy jarayonlar va psixik rivojlanish omillari, jumladan, diqqat va xotiraning darajasi, tafakkurning rivojlanish xususiyatlari, lug‘at boyligi, nutq ko‘nikmalari va boshqa jihatlar bola psixik rivojlanishining tarkibiy qismidir. Shu bois, maktablardagi ta’lim-tarbiya ishlari nafaqat o‘quvchilarga bilim berishga qaratilgan, balki ularning barcha qobiliyatlarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirishda tug‘ma qobiliyat va iste’dodning ahamiyati katta. Tug‘ma qobiliyatga ega bo‘lgan o‘quvchilar pedagogik, tarbiyaviy va kasbiy ko‘nikmalarni tezroq o‘zlashtirib, amaliyotda qo‘llash salohiyatiga ega bo‘ladilar. Biroq, iste’dod va qobiliyat barcha o‘quvchilarda tug‘ma ravishda namoyon bo‘lmaydi. Shu sababli qobiliyatni shakllantirish va iste’dodni rivojlantirish jarayoni pedagoglar, oilalar, mahalla hamda ta’lim muassasalarining mas’uliyatli vazifasidir.

Bolalar o‘zlaridagi tug‘ma layoqatlarni ijtimoiy muhitda va o‘z ustida muntazam ishlash orqali rivojlantiradilar. Maktablarda tashkil etilgan sinf va guruhlar, fan to‘garaklari, olimpiadalar, shuningdek, o‘quv va mehnat faoliyati bolalarning qobiliyat va layoqatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

"Iste’dod" tushunchasi mohiyat e’tibori bilan "qobiliyat" atamasini o‘z ichiga oladi va insonning muayyan faoliyatda yuqori natijalarga erishish salohiyatini ifodalaydi.

Shuni ta’kidlash joizki, “qobiliyat” tushunchasini insonning tabiiy xususiyati sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas, ammo ko‘plab hollarda qobiliyat rivojlanishining negizida ayrim shaxslarda tabiiy predispozitsiya, ya’ni iste’dod mavjudligini kuzatish mumkin. Ko‘pincha, “haqiqiy”, “tabiiy”, “tabiatdan berilgan” kabi iboralar bilan ifodalanganda, “tabiiylik” tushunchasi qobiliyat tushunchasi bilan amaliy tahlil darajasida bir-biriga bog‘liq bo‘ladi.

Odatda, tabiiylik deganda qobiliyat rivojlanishining asosi bo‘lib xizmat qiladigan iste’dod ko‘zda tutiladi. Ayrim hollarda kimdir tabiiy xususiyatlarni qobiliyat sifatida ta’riflashi yoki amaliy faoliyatda shunday terminlardan foydalanishi mumkin. Masalan, yangi tug‘ilgan go‘dakda mavjud bo‘lgan “garmonik sezgi” yoki “musiqiy qobiliyat” haqida gapirish nazariy jihatdan qiyin. Chunki, har qanday idrokli shaxs, tug‘ilgan paytidan boshlab, musiqaga oid tuyg‘ular yoki boshqa his-tuyg‘ular faqat iste’dodning ilk ko‘rinishlari, qiziqish yoki o‘xshash psixologik mayllarni aks ettiradi, deb xulosa qilishi mumkin.

Tabiiy iste’dodning ilk belgilari haqida gapirganimizda, biz hali irsiy ravishda uzatilgan iste’dod ko‘rinishlariga murojaat qilmaymiz. Shu sabab, iste’dod rivojlanishini genetik va psixologik omillar orqali o‘rganish masalasi yana bir bor ilmiy tadqiqotlar doirasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanish usullarini taqdim qilamiz:

- **intellektual mashqlarni tashkil etish.** Bunga aqliy rivojlanishni rag‘batlantiruvchi faoliyatlar, jumladan, turli rebuslar, krossvordlarni yechish, shaxmat va shashka o‘yinlarini musobaqa shaklida uyushtirish kiradi;
- **ijodkor yoshlar to‘garaklarini tashkil etish:** Ushbu to‘garaklar yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va iste’dodlarini takomillashtirishga qaratilgan. Masalan, adabiyot va jurnalistika sohalarida mahoratga ega bo‘lgan yoshlarni aniqlash va ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish;
- **sport musobaqalari orqali jismoniy va aqliy uyg‘unlikni shakllantirish:** Turli sport turlarini musobaqa ko‘rinishida tashkil etish, bu orqali

qatnashchilarning epchillik, chaqqonlik va jismoniy mahoratini rivojlantirish;

- **ijodiy adabiy tanlovlarni o‘tkazish:** She’riyat va g‘azalxonlikka oid mushoira, “She’r kechasi” kabi tadbirlar yoshlarning adabiy iste’dodlarini rivojlantirishga yordam beradi;
- **quvnoqlar va zukkolar tanlovlarini tashkil etish:** San’at, teatr va tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish hamda ijodkorlik va zukkolik ko‘nikmalarini baholashga xizmat qiluvchi tanlovlarni o‘tkazish;
- **ustoz-shogird an’anasini rivojlantirish:** Tajribali pedagoglarning muvaffaqiyatli ishlarini ommalashtirish orqali shogirdlarning o‘z ustozlariga bo‘lgan ishonchini oshirish va shogirdlarning ta’lim-tarbiyaviy jarayondagi ishtirokini faollashtirish;
- **yoshlarning ijodiy ishlari va qobiliyatlarini rag‘batlantirish:** Ularning ijodiy yutuqlarini turli xil sovg‘alar, faxriy yorliqlar va boshqa mukofotlar bilan qadrlash maqsadga muvofiqdir.

Tabiiyki, o‘quvchilarning o‘z maqsadlariga erishishlari uchun ta’lim maskanida olgan bilim, ko‘nikma va malakalari kamlik qiladi. Ular yuksak maqsad yo’lida o‘z ustilarida tinmay izlanishlari, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishlari lozim [2].

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yuqoridagi nazariy va amaliy yondashuvlarga qaramasdan, qobiliyat va uning rivojlanishi masalasi psixologiya va pedagogika sohalarining eng murakkab muammolaridan biri hisoblanadi. Qobiliyatning shakllanishi sezgi analizatorlari, kuch, harakat, shuningdek, nerv tizimining funksional xususiyatlari kabi tabiiy predispozitsiyalarga bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan birga, u tashqi ijtimoiy muhitning ta’siri ostida shakllanadi va rivojlanadi.

Ta’kidlash lozimki, bolaning ta’lim-tarbiya jarayonida faol ishtiroki uning tug‘ma layoqatlarini yuzaga chiqarish, iste’dod va qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanlarni o‘zlashtira olmagan o‘quvchilarga "qobiliyatsiz" deb baho berish noto‘g‘ri yondashuvdir. O‘qituvchining asosiy vazifasi har bir o‘quvchining yosh va psixologik o‘ziga xosliklarini batafsil tahlil qilish, uning qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlash hamda ularga mos ravishda pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Pedagogik jarayon to‘g‘ri tashkil etilgan taqdirda, har qanday faoliyat o‘quvchi shaxsining intellektual, axloqiy, estetik, jismoniy va volitiv (irodaviy) rivojlanishiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari quyidagicha bo‘ladi: ular tezkor va turli usullar yordamida muvaffaqiyatga erishadilar, qarorlar qabul qilishda mustaqil fikrlashni o‘rganib, uni rivojlantiradilar, o‘z salohiyatini va ambitsiyalarini amalga oshirishga intiladilar, ta’lim sharoitlariga osonroq moslashib, yanada samarali ishlashadi. O‘quvchilar yuzaga kelgan muammolarni hal qilishda moslashuvchan, aniq va samarali yondashuvni qo‘llashga qodir bo‘ladi.

Bola shaxsining ijodkorligini rivojlantirish uchun o‘qituvchi va tarbiyachilar sharoitlar yaratishlari zarur. Shu orqali jamiyatda yangi innovatsiyalar, kashfiyotlar va ixtirolar paydo bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”- Toshkent. Abdulla Qodriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Azizxodjayeva N.N. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo.-T. Fan va axborot texnologiyalari, 2006. -167 b.
3. Raxmatullayeva N.B. Ernazarova M.S. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nutqini, muloqotini rivojlantirish. “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal- (3) III/2020. ISSN 2181-063X.-6 s.
4. Ochilov F.I. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida boshlang‘ich sinflarda dars samaradorligini oshirish xususiyatlari. Zamonaviy ta’lim / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ. 2016. 5. -7 s.
5. Mavlyanova R.A. Paxmankulova N.X. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya (metodik qo‘llanma). -Toshkent, 2017. -195 s.
6. Safo Ochil, K. Xoshimov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – Toshkent, O‘qituvchi, 1999. 478 s.
7. G‘oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent. O‘qituvchi,1991.
8. Bobaqulova D.M. Umumiy pedagogika (o‘quv qo‘llanma). –Toshkent, 2021.-256 s.
9. O‘tkir Tolipov. Ustoz-shogird qadriyatlari, –Toshkent, 2015.-63 s.

UDK: 37.03:39

XALQ MILLIY O‘YINLARI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHNING TA’SIRCHAN VOSITASI SIFATIDA

Abdurashidov Adhamjon Abduhamitovich,
Qo‘qon davlat universiteti professori v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng milliy an’ana va qadriyatlarni asrab-avaylash, xususan, o‘zbek xalqining milliy o‘yinlarini kelajak avlodga yetkazish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda milliy o‘yinlarning yosh avlodni jismonan chiniqtirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, xalq milliy o‘yinlarining tarixiy ildizlari, ularning etnografik va adabiy manbalarda aks etishi, milliy o‘yinlarning bugungi kunda sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishdagi pedagogik ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalqi, o‘yin, milliy o‘yin, “Qoqma”, “Ko‘pkari”, o‘zbek kurashi.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ НАРОДНЫЕ ИГРЫ КАК ЭФФЕКТИВНОЕ СРЕДСТВО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы сохранения и бережного отношения к национальным традициям и ценностям в Узбекистане после обретения независимости, в частности передачи узбекских народных игр будущим поколениям. В исследовании анализируется роль и значение национальных игр в физическом развитии подрастающего поколения, формировании здорового образа жизни, развитии духовно-нравственных качеств. Также освещаются исторические корни народных игр, их отражение в этнографических и литературных источниках, а также педагогическое значение национальных игр в воспитании здорового и всесторонне развитого поколения в современных условиях.

Ключевые слова: узбекский народ, игра, национальная игра, «Кокма», «Копкари», узбекская борьба.

NATIONAL FOLK GAMES AS AS AN EFFECTIVE MEANS OF EDUCATING PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. This article examines the issues of preserving and safeguarding national traditions and values in Uzbekistan since the country gained independence, with particular emphasis on passing down Uzbek folk national games to future generations. The study analyzes the role and significance of national games in

physically strengthening the younger generation, promoting a healthy lifestyle, and developing moral and ethical qualities. In addition, the historical roots of folk national games, their reflection in ethnographic and literary sources, as well as the pedagogical importance of national games in raising a healthy and well-rounded generation in modern conditions are highlighted.

Key words: Uzbek people, game, national game, Kokma, Kopkari, Uzbek wrestling.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan ilk yillardan boshlab milliy an’ana va qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni kelajak avlodga bekamu ko‘st yetkazishga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Barcha xalqlar singari o‘zbek xalqi ham farzandlarini sog‘lom, baquvvat va jismonan chiniqqan etib tarbiyalashni muhim vazifa sifatida ilgari surgan. Tarixiy manbalarga murojaat etar ekanmiz, ajdodlarimiz azal-azaldan inson organizmini jismonan chiniqtiruvchi, salomatlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi mashqlar va o‘yinlarga katta ahamiyat berganini ko‘ramiz.

Xususan, ko‘pkari (uloq) musobaqalari har bir ishtirokchidan chavandozlik mahorati bilan bir qatorda jismoniy kuch, tezkor tafakkur, vaziyatni to‘g‘ri baholash va puxta strategik fikrlashni talab etgan. Ajdodlarimiz ushbu talablarga mos holda tayyorgarlik ko‘rib, jismoniy barkamollik bilan birga ruhiy yetuklikka ham erishganlar. Bu jarayonda xalq o‘yinlaridan samarali foydalanilgan. Zero, o‘zbek xalqining milliy o‘yinlari uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan, avloddan avlodga meros sifatida o‘tib kelayotgan muhim ma’naviy boylik va qadriyatlar sirasiga kiradi.

O‘zbek xalqining milliy o‘yinlari yosh avlodni kuchli, jasur va irodali etib tarbiyalash, o‘z tarixi, madaniyati va an’analariga bo‘lgan qiziqish hamda hurmat tuyg‘ularini shakllantirish, sog‘lom muhitni yaratish, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish va ma’naviy yuksaklikni rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Milliy o‘yinlar ota-bobolarimiz tomonidan qoldirilgan moddiy va ma’naviy meros bo‘lib, ularning paydo bo‘lishi va rivojlanishi o‘ziga xos tarixga ega. Tarixiy-arxeologik ma’lumotlar hamda etnografik manbalarda xalq milliy o‘yinlarining shakllanishi va taraqqiyoti haqida qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Buyuk ajdodlarimizning ilmiy va adabiy asarlarida ham o‘yinlarning tavsifi, mazmuni va ahamiyatiga oid ko‘plab dalillar keltirilgan. Jumladan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asarida xalq o‘yinlarining bir yuz ellikdan ortiq turlari qayd etilgan bo‘lib, ularga “qorang‘uni” (qorong‘ida qo‘rg‘on olish), “bandol” (asir olish), “o‘tish-o‘tish” (davra o‘yini), “chavgon” (to‘p o‘yini), “o‘t bandal” (tayoq o‘yini), qilichbozlik, nayzadorlik kabi o‘yinlar misol bo‘la oladi.

Shuningdek, “Alpomish” dostonida kurash, poyga, uloq, nayza sanchish, kamondan o‘q otish, qilichbozlik va merganlik kabi o‘yinlar orqali mardlik, jangovarlik, oriyat, matonat hamda jismoniy va ma’naviy komillik kabi fazilatlarning shakllanishi badiiy ifodasini topgan. Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Umar Xayyomning “Navro‘znoma”,

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai Sultoniy”, Alisher Navoiyning “Xamsa”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Mirmuhsinning “Temur Malik” kabi asarlarida ham xalq o‘yinlarining tarixi va tarbiyaviy ahamiyatiga oid muhim fikrlar bayon etilgan.

Mustaqillik yillarida xalq milliy o‘yinlarini o‘rganish, ularni qayta tiklash va maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy hamda jismoniy jihatdan kamol toptirishda maqsadli qo‘llash dolzarb vazifaga aylandi. Bu borada madaniyat va san’at arboblari hamda taniqli olimlar — M. Murodov, U. Qoraboyev, A.Q. Atoyev, J. Toshpo‘latov, R.Q. Qudratov, F.N. Nasriddinov va boshqalarning ilmiy-amaliy xizmatlari alohida e’tiborga loyiqdir.

Ayniqsa, T. Usmonxo‘jayev va F. Xo‘jayevlarning “1001 o‘yin” nomli asarida o‘zbek xalqi orasida keng tarqalgan milliy o‘yinlar tizimli ravishda tasniflangan bo‘lib, unda tabiiy-mavsumiy o‘yinlar (“Yomg‘ir yog‘aloq”, “Oq terakmi — ko‘k terak”, “Uloq”), hududiy va joyga mos o‘yinlar (uyda — boshqotirma va so‘z o‘yinlari; hovlida — “Tosh o‘yin”, “Arqon o‘yin”; bog‘larda — yong‘oq va danak o‘yinlari, “Quvlashmachoq”), shuningdek, yosh va jins xususiyatlariga mos o‘yinlar (yigitlar orasida “Podachi”, “Chavandoz”, “Quloq cho‘zma”; qizlar orasida “Durra”, “Chorichanbar”, “G‘ozg‘oz”) keng yoritilgan.

Katta yoshdagi erkaklar orasida kurash, uloq, chavgon kabi sport o‘yinlari keng tarqalgan bo‘lsa, ayollar ko‘proq so‘z, raqs va qo‘shiqlar bilan uyg‘unlashgan o‘yinlarni o‘ynashgan. Mashg‘ulot va mehnat faoliyati bilan bog‘liq o‘yinlar, asosan, umumxalq bayrami — **Navro‘z** kunlarida tashkil etilgan. Jumladan, chorvachilikka oid o‘yinlarga “Ov o‘yin”, kamondan otish, “Kiyik ovi”; dehqonchilikka oid o‘yinlarga “Mashoba”, “Xirmon-xirmon”; hunarmandchilik bilan bog‘liq o‘yinlarga esa “Sartarosh”, “Kovushim”, “Kashtachi” va boshqalar kiradi.

Shuningdek, voqeaband o‘yinlar sirasiga “Podshovazir”, “Urush o‘yin”, “Echkicho‘pon”, “Bo‘ri va qo‘ylar” kabi o‘yinlar mansub bo‘lib, ular bolalarda ijtimoiy rollarni anglash va muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qilgan. Harakatli o‘yinlar sifatida esa “Tepa kurash”, “Qo‘riqchi”, “Chirkash” kabi o‘yinlar bolalarning jismoniy faolligini oshirishga yo‘naltirilgan.

Bundan tashqari, turli vositali o‘yinlar ham mavjud bo‘lib, ular moddiy vositalar — qo‘g‘irchoq, o‘yinchoq, tosh, tayoq, to‘p, yong‘oq kabi buyumlar yordamida yoki ma’naviy-badiiy ifodali vositalar — so‘z, qo‘shiq, raqs, teatr elementlari orqali amalga oshiriladi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston mahallalarida o‘tkaziladigan turli madaniy tadbirlarda bolalar “Quloq cho‘zma”, “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Podachi”, “Charxpalak”, “O‘rda to‘p”, “Chigi”, “Qo‘tir echki” kabi o‘yinlarni o‘ynab, o‘zlarining epchilligi, chaqqonligi va jismoniy faolligini namoyon etishlari aniqlangan. Shuningdek, “Uzuk olish”, “Igna sanchish”, “Poyondoz”, “Sultonchalar jangi”, “Igna, ip, angishona” kabi xalq o‘yinlari ham asrlar davomida xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi sifatida saqlanib kelmoqda.

Xalqimiz tomonidan e’tirof etilgan milliy o‘yinlar bolalarda abjirlik, vaziyatni to‘g‘ri baholash, murakkab holatlardan oqilona chiqib ketish kabi muhim hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, milliy xalq o‘yinlari yosh avlodni sog‘lom voyaga yetkazish hamda ularga ta’lim-tarbiya berishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o‘zbekona milliy qadriyatlar va urf-odatlarni asrab-avaylashda ularning o‘rni beqiyosdir. Zero, o‘zbek xalq o‘yinlari avloddan avlodga o‘tib kelayotgan bebaho ma’naviy meros sifatida, avvalo, oilada, keyinchalik esa maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar hayotiga izchil tatbiq etilishi dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq milliy o‘yinlari yordamida tarbiyalashga oid tadqiqot jarayoni nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi. Xususan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi orqali xalq milliy o‘yinlariga oid mavjud nazariy yondashuvlar o‘rganildi. Solishtirma tahlil metodi yordamida xalq milliy o‘yinlarining turli tasniflari va pedagogik imkoniyatlari taqqoslab tahlil qilindi. Umumlashtirish metodi asosida esa nazariya va amaliyot integratsiyasi ta’minlanib, tadqiqot natijalari yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida xalq milliy o‘yinlari nazariyasi tanlanib, u maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy jihatdan barkamol etib tarbiyalashning muhim vositasi sifatida talqin etildi.

Ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan xalq o‘yinlari yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, ular bolalarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shunday o‘yinlardan biri — **“Qoqma”** o‘yinidir. Ushbu o‘yin odatda 5–10 nafar bola ishtirokida, ikki jamoaga bo‘linib o‘ynaladi. Mazmunan u yugurishga asoslangan bo‘lib, zamonaviy talqinda yengil atletika elementlarini o‘zida mujassam etadi.

O‘yin jarayonida bir jamoa a’zolari qochuvchi, ikkinchi jamoa esa quvuvchi vazifasini bajaradi. Raqib jamoa a’zosini tutib olish uchun unga yetib borib, yelkasiga qo‘l bilan yengil qoqish kifoya hisoblanadi. Yelkasiga qoqilgan bola “tutilgan” deb e’tirof etilib, jamoadoshlari ham tutilgunga qadar o‘yinda ishtirok etmaydi. Raqib jamoaning barcha a’zolari tutilgach, g‘olib jamoa qochuvchi sifatida o‘yinni davom ettiradi. Mazkur jarayon orqali bolalar faol harakatlanib, yugurish malakalari va jismoniy chiniqish darajasini oshiradilar.

“Qoqma” o‘yinining tarbiyaviy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: bolalarda jamoa bo‘lib harakatlanish va hamkorlik qilish ko‘nikmalari shakllanadi; o‘yin qoidalariga rioya qilish orqali bir-biriga ozor bermaslik, xavfsiz harakatlanish madaniyati rivojlanadi; bolalar jismonan baquvvat, ruhan tetik va bardam bo‘lib ulg‘ayadilar.

Xalq orasida keng tarqalgan yana bir milliy o‘yin — **“Lanka”** bo‘lib, u o‘yin nomi bilan bir qatorda o‘yin anjomining ham nomi hisoblanadi. Mazkur o‘yin ayrim hududlarda “qarab tep” nomi bilan ham tanilgan. Lanka odatda so‘yilgan mol yoki qo‘y terisidan dumaloq shaklda kesib olinib, junsiz tomoniga mos og‘irlikdagi qo‘rg‘oshin yoki tanga ip yordamida mahkamlanib tayyorlanadi. O‘yin jarayonida

bolalar lankaning yerga tushib ketmasligiga harakat qilib, uni oyoqning ichki yoki tashqi tomoni bilan navbatma-navbat tepib o‘ynaydilar. Lanka havoda oyoqqa yaqinlashgan paytda bola qisqa vaqt ichida qaror qabul qilib, tepish usulini tanlaydi va mos harakatni amalga oshiradi.

“Lanka” o‘yinining tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, u bolalarda tezkor fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish malakalarini rivojlantiradi; oyoq, tizza va to‘piq bo‘g‘imlarining faol harakatini ta’minlab, jismoniy rivojlanishga xizmat qiladi; mo‘ljal olish, chaqqonlik va epchillik kabi muhim harakat sifatlarini shakllantiradi.

Shuningdek, **“Xolakam”** o‘yini asosan qiz bolalar orasida o‘ynaladigan milliy o‘yin bo‘lib, u mehmon-mehmon mazmuniga ega. Qo‘qon shahri va unga tutash hududlarda ushbu o‘yin “xolakam-xolakam” nomi bilan ham yuritiladi. O‘yinda bir qiz mezbon, qolganlari esa mehmon rolini bajaradi. Mezbon qiz mehmonlarni kutib olish, ularga muomala qilish va o‘yin yakunida kuzatib qo‘yish vazifalarini ado etadi. O‘yin so‘nggida ishtirokchi qizlar o‘zaro baholash asosida kim mehmonni yaxshiroq kutib olganini aniqlaydilar.

“Xolakam” o‘yini qiz bolalarda mehmondo‘stlik, muomala madaniyati, odob-axloq me’yorlariga rioya qilish, ijtimoiy rollarni anglash kabi muhim tarbiyaviy sifatlarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

“Aji-aji” o‘yini bolalar orasida, ayniqsa yoshi kattaroq bolalarning o‘zlaridan kichik yoshdagilarga mo‘ljallab o‘ynaydigan milliy o‘yinlaridan biridir. Ushbu o‘yinda kattaroq bola yuz-ko‘zini ikki qo‘li bilan berkitib, so‘ng to‘satdan ochadi va shu jarayonda “aji, aji” so‘zlarini aytib, kichikroq bolani kuldirish hamda hayratlantirishga harakat qiladi. O‘yin nomi ham unda takrorlanib aytiladigan so‘z birikmasidan kelib chiqqan. “Aji-aji” o‘yini kichik yoshdagi bolalarda emotsional reaksiya, quvonch hissi va ijobiy kayfiyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

“To‘ptosh” o‘yini asosan qiz bolalar orasida keng tarqalgan bo‘lib, danak hajmidagi mayda toshchalarni aniq otish va epchillik bilan ilib olib, belgilangan marraga to‘plashdan iborat. O‘yin jarayonida ishtirokchi toshchalardan birini havoga otib, ikkinchisini tezkor harakat bilan marraga surib qo‘yishi lozim bo‘ladi. Agar bola o‘zi otgan toshchani ilib ololmasa, navbatni boshqa ishtirokchiga topshiradi. O‘yin toshchalarni kim tez va aniq yig‘ib bo‘lsa, o‘sha ishtirokchi g‘olib bo‘lgunga qadar davom etadi. Mazkur o‘yin qiz bolalarda diqqatni jamlash, qo‘l barmoqlarining mayda motorikasini rivojlantirish, aniqlik va chaqqonlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Kuzatishlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalq tomonidan yaratilgan **ko‘pkari**, **arqon tortish** kabi milliy o‘yinlar musobaqaviy xarakterga ega bo‘lib, ular yosh avlodda tantilik, mardlik va irodaviy fazilatlarni kamol toptiradi, chaqqonlik va epchillikni tarbiyalaydi. Eng muhimi, ushbu o‘yinlar orqali bolalarda o‘z millatiga mansublik, vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘ulari shakllanadi.

Milliy o‘yinlarimiz xalqni jahon miqyosida tanitishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Jumladan, o‘zbek kurashining insonni halollik, mardlik va pok niyatga chorlovchi jihatlari boshqa xalqlar e’tiborini ham tortdi. Natijada, bugungi

kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida o‘zbek kurashi bo‘yicha turli darajadagi musobaqalar tashkil etilmoqda hamda sportning ushbu turi bo‘yicha jahon chempionatlari muntazam o‘tkazib kelinmoqda. Bu holat O‘zbekistonda yashayotgan har bir fuqaro qalbida faxr va g‘urur tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Shuningdek, **ko‘pkari** milliy xalq o‘yini zamonaviy ot sportining shakllanishi va rivojlanishida muhim tarixiy asoslardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu o‘yinlar insoniy fazilatlarni tarbiyalash, jismoniy chiniqish va ma’naviy barkamollikka erishishda bebaho pedagogik ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek xalqining milliy o‘yinlari o‘ziga xos qadriyat sifatida avlodlardan avlodlarga o‘tib kelishini ta’minlash biz, katta avlod, zimmasiga yuklangan muhim vazifadir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar qalbida Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish, milliy ruhni rivojlantirish va xalqimizning an’ana hamda urf-odatlarini e’zozlash hissini mustahkamlashda o‘zbek xalqining milliy o‘yinlarini qadrlab yetkazish va ulardan maqsadli foydalanish bugungi kunda mamlakatimizda barcha zarur shart-sharoitlar mavjudligini ko‘rsatadi. Zero, milliy o‘yinlar bolalarni o‘zbekona tarbiyalashning eng samarali va ta’sirchan vositalaridan biri hisoblanadi. Bu o‘yinlar qanchalik keng tatbiq etilsa, vatanparvarlik tuyg‘usi va milliy g‘urur shunchalik mustahkamlanadi.

Xulosaga keladigan bo‘lsak, o‘zbek xalq milliy o‘yinlarining ajoyib xususiyatlari mavjudligini alohida ta’kidlash lozim. Milliy o‘yinlar nafaqat tarbiyaviy, balki faslning o‘ziga xos xususiyatlari bilan ham bog‘liqdir. Masalan, bahor faslida **“Tol bargak”, “Gul o‘yini”, “Gulchambar”** kabi o‘yinlar keng tarqalgan. Ayniqsa, **“Gulchambar”** o‘yini bahorda gullar ochilgan davrda o‘ynaladi. Mazkur o‘yinda odatda 10–15 nafar bola ishtirok etadi va har bir ishtirokchining qo‘lida turli-tuman gullar bo‘lishi mumkin. O‘yinboshi doira shaklida turgan bolalarning o‘rtasiga chiqib, bir gulning nomini aytadi, shu gulni ushlab turgan bola esa uning o‘sish sharoiti haqida qisqacha ma’lumot beradi.

Bunday o‘yinlar bolalarda tabiatga mehr uyg‘otish, so‘zlarni aniq va to‘g‘ri talaffuz qilish, ko‘pchilik orasida o‘z fikrini qo‘rqmay ifoda eta olish kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, milliy o‘yinlar bolalarni nafaqat jismonan chiniqtiradi, balki ma’naviy va intellektual jihatdan ham rivojlantiradi, ularni barkamol va milliy ruhga ega shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Pishiqchilik davrida bolalar orasida danak, yong‘oq o‘yinlari, arg‘imchoq uchish, kech kuz va qish faslida esa qoziq, oshiq, tosh o‘yinlarini o‘ynash odat tusiga kirgan. Qor yog‘ganda “qorxat”, “qorbo‘ron”, yomg‘ir yog‘ganda “yomg‘ir yog‘aloq”, kuchli shamol esganda “bo‘ron-bo‘ron” o‘yinlari o‘ynalgan. Shuningdek, sovuq paytlarda bolalar atrofga yig‘ilib “topishmoq top”, “tez aytish”, “kim aytdi” kabi so‘zli o‘yinlarni o‘ynagan. Kech kuzdan bahorgacha esa “uloq-ko‘pkari” musobaqalari tashkil etilgan. Qadimdan yurtimizda to‘y-tomoshalar va bayramlar xalq o‘yinlari bilan yanada fayzli va ko‘tarinki ruhda o‘tgan.

Tabiat bilan bog‘liq o‘yinlar bolalarda ekologik madaniyat ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu orqali ular o‘zbek xalqining atrof-muhitni sog‘lomlashtirish, muhofaza qilish, toza oziq-ovqat bilan oziqlanish, havo, suv va

tuproqlarni turli chiqindilardan himoya qilish kabi qadriyatlarini o‘zlashtiradilar. Natijada yosh avlodda insoniyatning tabiatga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishi, yashash muhiti haqidagi bilimlari, tabiat va insonlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi, ekologik tizimlar va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek amaliy ekologik ko‘nikma va malakalar shakllanadi.

O‘zbek xalq o‘yinlari shu kungacha yosh avlodni aqlan, ruhan va jismonan barkamol etib tarbiyalashda muhim o‘rin egallab kelmoqda. Ular inson kamoloti va bolalar tarbiyasida “hayot maktabi” vazifasini bajarib, avlodlarni tarbiyalashda muhim pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun bolalarga xalq milliy o‘yinlarining ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatini chuqurroq singdirishni maktabgacha yoshdan boshlash zarur.

Ana shu maqsadda, **“ILK QADAM”** O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan davlat o‘quv dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashrining II bobida MTT ta’lim va tarbiya jarayonining maqsad va tamoyillarida “O‘yin orqali ta’lim olish va rivojlantirish” tamoyili quyidagicha aks ettirilgan:

- O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda muhim yondashuv hisoblanadi. U bolalarga quvonch keltiradi, rag‘batlantiradi va ularga yangi ko‘nikma va bilimlarni o‘rganish, o‘zini va atrofdagi dunyoni anglash imkonini beradi.
- Maktabgacha ta’lim tashkiloti bolaning o‘yin huquqini tan oladi, o‘yinning bola uchun ahamiyatini qadrlaydi va uning individual rivojlanishi, ta’lim olishi va farovonligiga pedagogik yordam berish imkoniyatlarini e’tirof etadi.

O‘zbek xalq milliy o‘yinlari aynan shu tamoyilni amalda qo‘llashda eng samarali vosita sifatida xizmat qiladi va maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy, aqliy, ma’naviy hamda ijtimoiy barkamolligini ta’minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi. Maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, 2025-yil, noyabr, 11-son.

2. Sodiqova D.Q. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2024.

3. Mansurov Sherzod. O‘zbek xalq milliy o‘yinlari – qadriyatlar timsoli. ISSN 2181-1717 (E) Образование и инновационные исследования (2023 год №2). http://interscience.uz 275.

4. Turakulova Feruza. Abdulla Avloni's services in the field of education. Procedia of Theoretical and Applied Sciences Volume 12 | Oct 2023 ISSN: 2795-5621 Available: http://procedia.online/index.php/applied/index

5. Feruza Aminovna. Free Time of Students in Qualification Practicecontent Organization Technology. Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP) Volume: 02 Issue: 10 | 2023 ISSN: 2751-7551 http://innosci.org/

UDK 159.9:159.942.5:37.015.3

PEDAGOGLARDA KOMMUNIKATIV TOLERANTLIKNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Sattorova Maxliyo Dilmurod qizi,
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi,
psixologiya fanlari bo‘yicha falasa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagoglarda kommunikativ tolerantlik tiplarining namoyon bo‘lishi va tolerantlikning funksiyalari, muloqot qabul qilish, boshqalarni tinglay olish shaxs xususiyati sifatida xususiyatlarining tavsifi keltirilgan. Shuningdek, muallif tomonidan pedagoglarda tolerantlik xususiyatlarining namoyon bo‘lishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan. Pedagoglarda ijtimoiy bag‘rikenglik namoyon bo‘lishini belgilovchi omillarni shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy-psixologik omillar, kasbiy tajriba va ijtimoiy-madaniy muhit kabi bir necha guruhlarga bo‘lish mumkinligi e’tirof etilgan. Tolerantlik xususiyatlari mazmuni, mohiyati, ko‘rinishi, turlari kabilarga bag‘ishlangan tadqiqotlarni o‘rganish asosida pedagogning tolerantligi tushunchasiga mualliflik ta’rifini bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: pedagog, tolerantlik, shaxsiy tolerantlik, etnik tolerantlik, sotsial tolerantlik, tolerantlik funksiyasi.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ КОММУНИКАТИВНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ У ПЕДАГОГОВ

Аннотация. В статье представлено описание проявления типов коммуникативной толерантности у учителей и характеристики толерантности, способности воспринимать коммуникацию и умения слушать других как личностные качества. Кроме того, освещены исследования автора по проявлению характеристик толерантности у учителей. Выделены несколько возможных детерминантов проявления социальной толерантности у учителей, таких как личностная производительность, социально-психологические факторы, профессиональный опыт и социальная среда. На основе исследования, посвященного содержанию, проявлению и характеристикам толерантности, представлено определение педагогического образования, данное автором.

Ключевые слова: педагог, толерантность, личная толерантность, этническая толерантность, социальная толерантность, функция толерантности

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF COMMUNICATIVE TOLERANCE IN EDUCATORS

Abstract. The article presents a description of the manifestation of communicative tolerance types in teachers and the characteristics of tolerance, the ability to accept communication, and the ability to listen to others as a personal characteristic. In addition, the author's research on the manifestation of tolerance characteristics in teachers is highlighted. Several possible determinants of the manifestation of social tolerance in teachers are recognized, such as personal production, socio-psychological, professional experience, and the social environment. The author's definition of pedagogical education is presented on the basis of a study devoted to the content, appearance, and manifestations of tolerance characteristics.

Key words: pedagogue, tolerance, personal tolerance, ethnic tolerance, social tolerance, tolerance function.

Pedagoglar davrida sotsial tolerantlikning shaxs ijtimoiy xulq-atvori ko‘rinishlari sifatidagi tolerantlik xulq-atvorining shakllanishini o‘rganishning dolzarbligi insonni shaxs sifatida shakllantirish zarurati bilan bog‘liq bo‘lib, aynan o‘spirinlik davrida shaxs ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy xususiyatlarni, empatiya qobiliyatini, odamlarga, o‘ziga axloqiy munosabatni o‘zlashtiradi, shuningdek, jamiyatdagi xatti-harakatlar normalarini o‘rganish pallasi ekanligi bilan xarakterlanadi va mazkur muammo ko‘p millatli mamlakatimizda alohida ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Pedagoglarda sotsial tolerantlikni xulq-atvor komponenti sifatida o‘rganish alohida e’tiborni tortadi. Pedagoglarda sotsial tolerantlikka oid sotsial tolerantlik juda keng qamrovli o‘ziga xos ko‘nikma va qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi. O‘z pozitsiyasini nuqtai nazar sifatida tolerantlik bilan ifodalash va himoya qilish qobiliyati; sotsial tolerantlikka xos munosabati, o‘zga shaxs yoki guruh a’zolarining so‘zlarini qabul qilishga tayyorlik, o‘z qarashlaridan qat’i nazar mavjudligini, shaxs yoki guruhlarning fikri va baholarini o‘zining nuqtai nazariga muvofiq deb idrok etish; shaxs yoki guruhni ijtimoiy kelib chiqishi, mavqeyi, qadriyatlaridagi tafovutlarga qaramasdan muloqotni tashkil etish hamda hamkorlik o‘rnata olish qobiliyati; keskin va eksklyuziv vaziyatlarda tolerant xulqni namoyon etish kabilar shular jumlasidandir.

Shaxsni shakllanishida ijtimoiy hayot muhim o‘rin hisoblanadi.Tolerantlik tushunchasini mohiyati va uni o‘rganish sotsial tadqiq etish va rivojlantirish uchun diagnostik tahlillar amalga oshirildi. Sotsial tolerantlikni o‘rganish bo‘yicha eksperimental modeli asosida tadqiqotlar amalga oshirishni ma’qul topdik.

G.U.Soldatova, O.A.Kravsova, O.E. Xuxlayev, L.A.Shaygerova E.E.Tunik «Shaxs bag‘rikengligi indeksini psixodiagnostik o‘rganish metodikasi» V.Boyko «Kommunikativ tolerantlik so‘rovnomasi», E.Tunik «Shaxs ijodkorligini 4 yo‘nalishini o‘rganish», «Shaxsning sotsial tolerantligi mezonlarini aniqlash» ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi foydalanilgan metodikasi tanlab olindi. Tadqiqotimizda 464 nafar o‘sprinlar ya’ni talabalar va akademik litsey o‘quvchilari tanlab olindi. M.Veberning ta’kidlashicha «mazmunan boshqa odamlarning xulqi

bilan taqqoslanadigan» ijtimoiy xulq ko‘rinishi hisoblanadi,. M.Veber fikricha, alohida kishi ma’lum ijtimoiy guruh vakili sifatida «Men» «Sen» va farqining haqiqiyligiga tayanishdir o‘zini «boshqalar» bilan taqqoslash orqali, «fikrlar to‘qnashuvi va kurashi dialog, uning qatnashchilari esa sheriklar hisoblanuvchi» inson umumiy nuqtai nazarni birgalikda topish imkoniyatiga ega bo‘ladi [8].

Sotsial tolerantlik shaxsning o‘zi va hamfikrlar guruhiga, shuningdek, etnik va huquqiy doirasiga nisbatan ijtimoiy mas’uliyatidir. Boshqa guruhlar mavjud bo‘lishi va huquqlarini tan olishi shaxsning, nafaqat, o‘zining u yoki bu ijtimoiy guruh vakili sifatida anglashi, balki ularning qadriyatlarini farqlay olishini ta’minlovchi ijtimoiy-psixologik barkamolligi bilan bog‘liqdir. Boshqa kishilarning boshqa guruhga mansubligi va huquqlarini tan oluvchi xulq-atvorni sotsial tolerantlik deb atash mumkin [7].

Sotsial tolerantlik – bu jamiyatning xilma-xil guruhlari bilan o‘zaro sheriklik munosabati bo‘lib, jamiyada barqarorlikni ta’minlash, turli ijtimoiy guruhlar tarkibida fuqarolarning huquqlari va qiziqishlarini himoya qilishni nazarda turadi.

Ma’lumki, shakllanayotgan yondashuvda haqiqiy shakllanishni – «stereotiplarga asoslangan bir hildagi axloqiy fikrlash»ni konstruksiyalash bilan almashtirish xavfi ortib boradi. Shakllanib borayotgan yondashuv uchun «bola haqida qadriyatlarni passiv qabul qiluvchisi» sifatidagi tasavvurlar asos bo’ladi. Bag‘rikeng insonni shakllantirish zaruriyati haqida hayotiy maqsadlar bilan uni qurollantirish, yaxshi reaksiyalarga nisbatan pozitiv va yomon lariga nisbatan negativ reaksiya ko’rsatishni shakllantirish haqida gapiriladi.

O‘zbek psixologiaysida tolerantlikni tadqiq etgan Z. Abidova maqsadga erishish va qo’yilgan vazifalarni hal etish uchun quyidagi kompleks nazariy va empirik tadqiqot metodlari qo’llanildi: maqsadli kuzatuv, suhbat, qayd qiluvchi eksperiment (quyidagi metodikalarni qo’llash orqali tolerantlik darajasini diagnostika qilish: «Emotsional intellekt» (N.Xoll), «Empatik qobiliyatlar» (V.V.Boyko), «Individuallik-jamoadoshlik ko’rsatkichlari» (L.G.Pochebut), «O’zgarishlarga shaxsiy tayyorlik» (kanadalik olimlar Rodnik, Xezer, Gold va Xal tomonidan ishlab chiqilgan, N.A.Bajanova va G.L.Bardiyer hammuallifligida moslashtirilgan); «Noaniqlikka tolerantlik» (amerikalik psixolog S.Badner tomonidan ishlab chiqilgan va G.U.Soldatova moslashtirgan); «Kommunikativ tolerantlik» (V.V.Boyko), «Tolerantlik indeksi» (G.U.Soldatova, O.A.Kravsova, O.E.Xuxlayev, L.A.Shaygerova), «Intolerantlik-tolerantlik» (L.G.Pochebut), «O’z tolerantlik darajasini aniqlash» (muallif metodikasi)), shakllantiruvchi eksperiment (muallif tomonidan ishlab chiqilgan tolerantlikning asosini tashkil etuvchi shaxsdagi ichki salohiyatni aniqlash va ochib berishga qaratilgan ochik didaktik texnikali – motivatsion-konstruktiv yondashuv (deduktiv texnologiya) va tolerant shaxs sifatlarini shakllantirishga qaratilgan yopiq didaktik texnikali – xulq-atvor (faoliyatli)- yo’naltirilgan (induktiv texnologiya) yondashuvga asoslangan yana bir mualliflik metodikalari yordamida o’tkazildi), tibbiy xodimlarida tolerantlikni qay darajada mavjudligini aniqlash maqsadida yuqoridagi metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan.

1-jadval.

V.Boykoning "Kommunikativ tolerantlik so'rovnomasi" metodikasi tavsiflovchi statistikasi (N=100)

Ko'rsatkich	N	Minimal ball	Maksimal ball	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Assimetriya	Eksses
Shaxsning individualligini rad etish	100	1	13	6,52	2,436	,050	-,615
Boshqalarni baholash	100	0	11	4,83	2,435	,252	-,490
Odamlarni baholash toifa	100	0	15	6,42	2,401	-,025	,105
Noxush his-tuyg'ulari yashira olmaslik	100	0	12	5,26	2,696	,333	-,227
Muloqot sherigi qayta tiklash	100	1	12	6,33	2,384	,113	,013
Muloqotning boshqa ishtirokchilariga moslashtirish	100	0	15	5,71	2,891	,321	-,144
Birovning xatolarini kechira olmaslik	100	0	15	5,55	2,645	,228	-,056
Muloqotda sherigiga toqat qila olmaslik	100	0	12	4,70	2,450	,238	-,522
Muloqotning boshqa ishtirokchilariga moslasha olmaslik	100	0	15	6,22	2,637	,141	-,388

Ushbu metodikadan olingan natijalar jadvada keltirilgan. "Shaxsning individualligini rad etish" shkalasi shaxsning individualligini rad etish yoki notog'ri tushunish minimal balli 1ni, maksimal balli 13ni tashkil qilgan. O'rtacha qiymat 2,235, standart og'ish 2,436 qiymatiga ega. 6,52± 2,436. Assimmetriya va ekstsess qiymati normada berilgan. (A=050; E=-,615). Bunda tabalarning shaxsning individualligini rad etish yoki notog'ri tushunish bo'lgan munosabati o'rtacha ekanligi bilan izohlash mumkin.

«Boshqalarni baholash» shkalasi, boshqalarni baholash o'zingizdan standart foydalanish minimal balli 0ni, maksimal balli 11ni tashkil qilgan. O'rtacha qiymat 2,401, standart og'ish 2,435 qiymatiga ega. 2,52± -,490. Assimmetriya va ekstsess qiymati normada berilgan. (A=-0,25; E=-,615). Bunda 18-23 yosh oraliq

Pedagoglarning boshqalarni baholash o‘zingizdan standart foydalanish bo‘lgan munosabati o‘rtacha ekanligi bilan namoyon bo’ladi.

“Odamlarni baholash toifa” shkalasi, odamlarni baholashda toifali yoki konservativ minimal balli 0ni, maksimal balli 15ni tashkil qilgan. O‘rtacha qiymat 6,42, standart og‘ish 2,435 qiymatiga ega. 6,42± 2,435. Assimmetriya va ekstsess qiymati normada berilgan. (A=050; E=105). Bunda pedagoglarning odamlarni baholashda toifali yoki konservativ bo‘lgan munosabati o‘rtacha ekanligi bilan izohlashimiz mumkin.

“Noxush his-tuyg‘ulari yashira olmaslik” shkalasida, noxush his-tuyg‘ularni yashira olmaslik yoki ularni yumshata olmaslik minimal balli 0ni, maksimal balli 12ni tashkil qilgan. O‘rtacha qiymat 5,26, standart og‘ish 2,696 qiymatiga ega. 2,52± -,490. Assimmetriya va ekstsess qiymati normada berilgan. (A=,333; E=-,227). Navbatdagi shkalasida, Noxush his-tuyg‘ulari yashira olmaslik yoki ularni yumshata olmaslik bo‘lgan munosabati o‘rtacha ekanligi bilan tavsiflanadi.

Beshinchi, “Muloqot sherigi qayta tiklash” shkalasi, muloqot sherigi qayta tiklash va qayta tarbilash usuli minimal balli 1ni, maksimal balli 12ni tashkil qilgan. o‘rtacha qiymat 6,33, standart og‘ish 2,384 qiymatiga ega. 6,33± 2,384. Assimmetriya va ekstsess qiymati normada berilgan. (A=,113; E=0,13). Shkalasida Pedagoglarning muloqot sherigi qayta tiklash va qayta tarbiyalash bo‘lgan munosabati o‘rtacha ekanligi bilan izohlashimiz mumkin.

Oltinchi, “Muloqotning boshqa ishtirokchilari moslashtirish” shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkich, muloqotning boshqa ishtirokchilari o‘zingizga moslashtirish istagi minimal balli 0ni, maksimal balli 15ni tashkil qilgan. O‘rtacha qiymat 5,71 standart og‘ish 2,891qiymatiga ega. 5,71 ± 2,891. Assimmetriya va ekstsess qiymati normada berilgan. (A=,321; E=-,144). Navbatdagi shkalasida, o‘rta yosh oralig‘idagi Pedagoglarda muloqotning boshqa ishtirokchilari o‘zingizga moslashtirish istagi bo‘lgan munosabati o‘rtacha ekanligi bilan izohlashimiz mumkin.

Yettinchi, “Birovning xatolarini kechira olmaslik” shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkich, birovning xatolarini kechira olmaslik minimal balli 0ni, maksimal balli 15ni tashkil qilgan. O‘rtacha qiymat 5,55 standart og‘ish 2,645 qiymatiga ega. 5,55± 2,645. Assimmetriya va ekstsess qiymati normada berilgan. (A=,228; E-,056). Navbatdagi shkalada, 18-23 yosh oralig‘idagi Pedagoglarda muloqotda birovning xatolarini kechira olmaslikka nisbatan bo‘lgan munosabati o‘rtacha ekanligi bilan izohlashimiz mumkin.

Sakkizinchi, “Muloqotda sherigiga toqat qila olmaslik” shkalasi bo‘yicha, muloqotning sherigiga toqat qila olmaslik minimal ball 0ni, maksimal balli 12ni tashkil qilgan. O‘rtacha qiymat 4,70 standart og‘ish 2,450 qiymatiga ega. 4,70 ± 2,450. Assimmetriya va ekstsess qiymati normada berilgan. (A=,238; E-,522). Navbatdagi shkalada, Pedagoglarda muloqotning sherigiga toqat qila olmaslik bo‘yicha munosabati o‘rtacha ekanligi bilan izohlashimiz mumkin.

To‘qqizinchi, “Muloqotning boshqa ishtirokchilari moslasha olmaslik” shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar, muloqotning boshqa ishtirokchilari moslasha

olmaslik minimal ball 0ni, maksimal ball 15ni tashkil qilgan. O‘rtacha qiymat 6,22 standart og‘ish 2,637 qiymatiga ega. 6,22 ± 2,637. Assimmetriya va eksses qiymati normada berilgan. (A=,141; E-,388). Navbatdagi shkalasida, Pedagoglarda muloqotning boshqa ishtirokchilari moslasha olmaslikka nisbatan bo‘lgan munosabati o‘rtacha ekanligi bilan izohlashimiz mumkin. Yuqoridagi keltirilgan jadvallarda assimmetriya va ekstsess aniqlanishi haqiqatdan ham shu metodikalar ishimizga moslik holatini aniqlab berdi.

Bu shuni anglatadiki, har kim o‘z e’tiqodiga rioya qilishda erkindir va boshqalar uchun ham huddi shunday huquqni tan oladi. Shu bilan birga, tolerantlik odamlarning tashqi ko‘rinishi, mavqei, nutqi, xulq-atvori va qadriyatlari bilan tabiatan bir-biridan farq qilishini va tinch yashash va o‘z shaxsiyligini saqlash huquqiga ega ekanligini tan olishni anglatadi. Tolerantlik munosabati - bu odam hech qanday zo‘ravonlik, majburlash va bosim choralarini qo‘llamasdan, balki faqat o‘zaro muhokama qilish, ishontirish orqali o‘z harakatlarining boshqa odamlarning harakatlariga muvofiqligiga erishish bilan o‘zaro tushunishga va o‘z maqsadlarini amalga oshirishga intiladi va xulq-atvor, xatti-harakatlarning o‘zaro bog‘liqligidir. Ya’ni, tolerant shaxs - bu boshqa odamlarning manfaatlarini, odatlarini, e’tiqodlarini hurmat qiladigan, ularni tushunishga va zo‘ravonlik va bosimdan foydalanmasdan o‘zaro kelishuvga erishishga intiladigan shaxsdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Байбаков А. М. Воспитание толерантности у старшего подростка в условиях взаимодействия малых групп / А. М. Байбаков: Автореферат дис. канд. пед. наук: 13.00.01. - Волгоград, 2003. - 17 с.
2. Sattorova, M. (2023). Psychological manifestations of ethnic and social tolerance. Modern Science and Research, 2(6), 280-282.
3. Sattorova, M. (2023). Tolerantlikning psixologik ko‘rinishlari. Академические исследования в современной науке 2(27), 143-145
4. Sattorova M.D. Sotsial tolerantlik-davr talabi //TDPU ilmiy axborotlari, №6.Toshkent,2020.B.231-235.
5. Sattorova M.D. Tolerantlik turlari va uning shakllanishi //TDPU ilmiy axborotlari, №8.Toshkent, 2020.B.97-101.
6. Sattorova, M. D. (2024). Tolerantlikning tarixiy ildizlari va nazariy asoslarining psixologik tamoyillari. Inter education & global study, (4 (1)), 452-560.
7. Abduxoliqova M.Yoshlar o‘rtasida qadriyatlar tizimi va tolerantlik madaniyatini shakllantirish. Toshkent. 2018/
8. Бардиер Г.Л. Социальная психология толерантности.-СПб.: Изд-во, СПбГУ, 2005.

9. Do‘stmuhamedova Sh.A,Nishanova Z.T,Jalilova S.X,Karimova Sh.T, Alimbaeva Sh.T. Yosh davrlari va pedagogik psixologiY. Toshkent.-2010.-159-163 b.

UDK 81'25 + 612.8

NEYROLINGVISTIKA VA UNGA OID MASALALAR

Axmedova Nilufar,
Profi University nodavlat oliy ta'lim tashkiloti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya. Maqolada neyrolingvistika fanining asosiy tushunchalari, uning til, miya va kognitiv jarayonlar bilan bog'liqligi tahlil qilingan. Neyrolingvistika insonning nutq va til bilan bog'liq kognitiv funksiyalarini, shuningdek, til buzilishi va afaziya kabi patologik holatlarni o'rganishdagi o'rni ko'rib chiqilgan. Maqolada til ishlab chiqish jarayonlari va miyaning turli bo'limlari o'rtasidagi interaktiv aloqalarga, shuningdek, eksperimental va kognitiv tadqiqot usullari orqali olingan ilmiy natijalarga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, neyrolingvistikaga oid zamonaviy nazariy va amaliy muammolar, shu jumladan tilni rivojlantirishdagi pedagogik va klinik aspektlar ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: neyrolingvistika, til va miya, afaziya, kognitiv funksiyalar, til buzilishi, kognitiv tadqiqotlar.

НЕЙРОЛИНГВИСТИКА И СВЯЗАННЫЕ С НЕЙ ВОПРОСЫ

Аннотация. В статье рассматриваются основные концепции нейролингвистики и её связь с языком, мозгом и когнитивными процессами. Нейролингвистика изучает когнитивные функции, связанные с речью и языком, а также патологические состояния, такие как афазия. Особое внимание уделено взаимодействию различных отделов мозга в процессе речевого функционирования и результатам экспериментальных и когнитивных исследований. Также обсуждаются современные теоретические и практические проблемы нейролингвистики, включая педагогические и клинические аспекты развития речи.

Ключевые слова: нейролингвистика, язык и мозг, афазия, когнитивные функции, нарушения речи, когнитивные исследования.

NEUROLINGUISTICS AND RELATED ISSUES

Abstract. The article explores the fundamental concepts of neurolinguistics and its connection with language, the brain, and cognitive processes. Neurolinguistics examines cognitive functions related to speech and language, as well as pathological conditions such as aphasia. Special attention is given to the interactive relationships between different brain regions during language processing and findings from experimental and cognitive research. The article also addresses contemporary theoretical and practical issues in neurolinguistics, including

pedagogical and clinical aspects of language development.

Key words: neurolinguistics, language and brain, aphasia, cognitive functions, speech disorders, cognitive research.

Tafakkur, til va miya munosabatlarini o‘rganish uzoq o‘tmishga borib ulansada, aynan nutqiy faoliyatni miya mexanizmlari bilan aloqadorlikda tadqiq etuvchi soha – neyrolingvistikaga XIX asrning ikkinchi yarmidan qiziqish boshlangan. Dastlab «nutqiy faoliyatda miya mexanizmining holati va miya jarohatlari natijasida nutqiy jarayonlardagi o‘zgarishlarni…» , nutqiy buzilishlar (afaziya)ni o‘rgangan neyrolingvistika bugungi kunda miyaning nutqiy faoliyat bilan bog‘liq hodisalarini, til bilan aloqador barcha muammolarini o‘zida qamrab olmoqda. Demak, tilning zamonaviy tarmog‘i sanalgan neyrolingvistika tilning miya bilan bog‘liqligi, ularning ayro holdagi tuzilishi, nutqiy faoliyat, nutqiy buzilishlar, gapirish va nutqni eshitish, o‘zga tillarni o‘rganish jarayonida miya va tilda kechadigan mexanizmlar kabi hodisalarni o‘rganadi va u ayni paytda jadal rivojlanish bosqichida turibdi.

Neyrolingvist olima T.V.Chernigovskayaning ta’kidlashicha, til va tafakkurga doir ilk qarashlar Sharq va Yevropa faylasuflari izlanishlarida qadimdan o‘z ifodasini topib kelgan. Miloddan avvalgi II ming yillikning o‘rtalarida yashagan Edvin Smit miya jarohatlanishiga oid 26 holatni qayd etib, u tomonidan tavsiya etilgan terapiya Misr shifokorining miya anatomiyasi va funksiyalarini yaxshi bilishini namoyon etadi. Taxminan yarim asr o‘tgach, Yerning boshqa qismida, ya’ni Janubiy Amerikada maxsus jarrohlik (trepanatsiya) izlari mavjud bo‘lgan ko‘p sonli bosh suyaklari kuzatiladi. Qizig‘i, bunday turdagi neyroxirurgiya operatsiyalari o‘sha davr uchun deyarli odatiy sanalib, bronza va vulqon shishasidan yasalgan asboblar bilan bajarilgan va hatto bosh og‘rig‘i, epilepsiya, boshqa asab va ruhiy kasalliklarni davolashda qo‘llanilgan [8].

Ilmiy manbalarga tayanib aytish mumkinki, eramizdan avvalgi 3500-yillardayoq tilning miyada joylashganligi haqidagi ilk qarashlar mavjud bo‘lgan [4]. Ularda ta’kidlanishicha, bosh suyagining muayyan qismidagi jarohat tananing boshqa a’zolariga ham ziyon yetkazishi mumkin. Shu sababdan o‘sha davr olimlari inson a’zolari va ularning faoliyati miyaning turli maydonlariga bog‘liq, deb hisoblaganlar. Ayniqsa, Gippokrat, Gerofil, Platon, Demokrit, Aristotel, Galen kabi zabardast faylasuf olimlarning xulosalari asosida o‘sha qadimgi davrlardanoq inson tanasining har bir a’zosi faoliyati miya bilan aloqador ekanligi ta’kidlangan.

1770-yilga kelib Iogann Gesner tomonidan yozilgan «Til amneziyasi» nomli monografiyada nutq buzilishlariga yangicha qarash yuzaga kela boshladi. SHu bilan birga, bu davrga kelib, miyaning turli nuqtalarida, ayniqsa, miya po‘stlog‘ida bajariladigan mavjud yuqori darajadagi vazifalar haqida bahs-munozaralar paydo bo‘ldi. XIX asr davomida nutqiy buzilishlar doirasidagi bilimlar kengayib, bu haqdagi ma’lumotlarga o‘sha davrdayoq tamal toshi qo‘yilgan edi.

Olim Frans Iosif Gall birinchilardan bo‘lib, aqliy qobiliyat aynan bosh miya po‘stlog‘ida ekanligini hamda miyadagi kulrang modda faol to‘qimalar (nervlar), oq modda esa biriktiruvchi to‘qima ekanligini isbotladi. Tadqiqotning empirik usuli

yordamida olim miyaning turli funksiyalarini bosh miyaning muayyan po‘stlog‘i hududlari bilan bog‘laydi. Masalan, u nutq artikulyatsiyasi va so‘zni xotirada saqlab qolish o‘rni peshona bo‘lagining ikki sohasida ekanligini aniqladi. Gall g‘oyalarini uning shogirdi Jan-Batist Bull davom ettirib, peshona bo‘lagi sohalaridagi turli jarohatlarning nutqiy buzilishlar bilan bog‘liq bo‘lgan hamda boshqa bo‘lak sohalaridagi jarohatlarning bunday buzilishlar bilan bog‘liq bo‘lmagan holatlarini aniqlaydi.

1861-yilda esa fransuz olimi Pol Broka bir bemorni kuzatishi orqali ikkita farazni ilgari suradi: birinchidan, insonning ruhiy holatlari bilan bog‘liq faoliyati miya yadrosi orqali amalga oshadi. Ikkinchidan, nutqiy buzilish bosh miyaning chap yarimsharidagi jarohat asosida yuzaga keladi.

Nevrolog Karl Vernike esa Broka tadqiqotlarini, ayniqsa, insonning ruhiy holatlari miya yadrosi orqali amalga oshishiga oid qarashlarini qo‘llab-quvvatlab, nutqni tushunish muammolari bilan bog‘liq hamda bugungi kunda Vernike markazi deya mashhur sanalgan bosh miyaning yangi sathini ixtiro qiladi. Olim insult bilan kasallangan bemor ustida izlanish olib boradi. Bemor gapirar, eshitar, ammo og‘zaki va yozma nutqni qiyinchilik bilan tushunardi. Uning vafotidan keyin Vernike bemorning chap yarimsharlarining yon va o‘rta sohalari jarohatlanganini aniqlaydi. Va olim eshitish sohalariga yaqin sanalgan aynan shu maydonlar nutqni tushunish jarayonlarida ishtirok etishi bo‘yicha xulosalarini keltiradi. Keyinchalik Vernike bosh miyada nutq bilan bog‘liq aniq ikki maydon mavjudligini asoslaydi. Bular bugungi kunda nutqni qabul qilishga javob beruvchi Vernike markazi hamda nutqni ifodalashga xizmat qiluvchi Broka markazi sanaladi.

Nemis olimi Lyudvig Lixtshteyn Vernikening qarashlarini to‘ldirib, «hukm markazi» sanalgan uchinchi maydonga asos soldi. Olim so‘z miya tomonidan qabul qilinganidan so‘ng aynan hukm markaziga ma’no ifodalashi uchun yo‘naltirilishini ta’kidlaydi.

Neyrolingvistika taraqqiyotining keyingi bosqichi bevosita L.R.Luriya va uning izdosh-shogirdlari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ular tomonidan nazariy qarashlar asosida nutqiy buzilishlarni tizimli tahlil qilish joriy etildi [3].

XX asr o‘rtalaridan boshlab neyrolingvistika doirasida L.Vigotskiy, A.Luriya, R.YAkobsonlar tomonidan aniq ilmiy-amaliy kuzatuvlarga asoslangan qarashlar ilgari surila boshlandi. Ayniqsa, neyrolingvistikaga oid qonun-qoidalarning amaliy jihatdan o‘rganilishi esa N.Xomskiy maktabining paydo bo‘lishi bilan yanada rivoj topdi.

I.M.Sechenov, L.V.Shcherbalar Boduen de Kurtene maktabining zabardast izdoshlari sifatida neyrolingvistikaga oid muhim qarashlarini qoldirganlar. Neyrolingvistikaning psixologiyaga oid manbalari L.S.Vigotskiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Neyrolingvistikaning bugungi kundagi taraqqiyotida T.V.Axutina boshqarayotgan A.R.Luriyaning Moskva neyrolingvistlar maktabi hamda T.V.Chernigovskaya boshchiligidagi Peterburg maktabi alohida e'tirof etiladi.

Neyrolingvistika haqida dastlabki, nisbatan to‘liq ma’lumotlar beruvchi ilk manba A.R.Luriya tomonidan yozilgan «Основные проблемы нейролингвистики» («Neyrolingvistikaning asosiy muammolari») deb nomlanuvchi kitob sanaladi. Olim ushbu kitobida nutq jarayonlari va mexanizmlarining bevosita miya faoliyati bilan bog‘liqligi, bunda psixologik, nevrologik va lisoniy jarayonlarning o‘zaro uyg‘unligidan yuzaga chiqadigan nutqiy natijalarning o‘ziga xos jihatlari xususida to‘xtalib, nutqiy muloqot jarayoni, ya’ni ma’lumotlarni insonning tabiiy tili vositasida yetkazish qator fanlar orqali o‘rganilganligini ta’kidlaydi. “Bu fanlar insonlar tomonidan yuborilayotgan bunday ma’lumotlarning yetkazilish jarayonlaridagi murakkabliklarni qisman yorita olardi xolos, shu bilan birga, so‘zlovchi va tinglovchining miyasida kechayotgan haqiqiy jarayonlarni yorituvchi aniq obyektiv usullar mavjud emas”, – deya yozadi Luriya [5].

Ammo bugungi eng zamonaviy sanalgan, miya neyronlari harakatini, tashqi ta’sirlarga bosh miya po‘stlog‘ining javob signallarini ultra nurlar orqali bemalol kuzatish imkonini bera oladigan texnik uskunalar nutqiy jarayonlarning miya faoliyati bilan bog‘liq holatlarini tadqiq etishni ancha osonlashtirdi.

Demak, asosiy o‘rganish obyekti til tizimining nutqiy faoliyat va miya mexanizmi bilan munosabati sanalgan neyrolingvistika “neyron va lingvistika so‘zlarining o‘zaro birikuvidan, qo‘shilishidan hosil bo‘lar ekan, inson miyasidagi nerv hujayralarining – neyronlarning tilni hosil qilishdagi vazifasini o‘rganadi. Neyron nerv (asab) sistemasining asosiy qismi, tarkibiy elementi sifatida tilni, til va nutq birliklarini yaratishda faol xizmat qiladi, yetakchi hisoblanadi. Shunga ko‘ra, neyrolingvistika inson nerv sistemasi bilan aloqa quroli hisoblangan til orasidagi uzviy, doimiy, zaruriy munosabatni yoritadi” [2].

Kuzatilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, insonning miya, ko‘z, yurak kabi tana a’zolarining yaratilishi mutlaq mo‘'jiza. Zero, faqat miya faoliyatigina, uning boshqaruvchilik, qayta ishlash, ma’lumot yetkazish kabi vazifalari hali qancha ilmiy izlanishlar uchun manba vazifasini bajaradi. Aynan mana shunday tadqiqotlar sohasi sanalgan neyrolingvistika “…tilning miyada qanday namoyon bo‘lishini, ya’ni bizning miyamiz biz gapiradigan, tushunadigan, o‘qiydigan va yozadigan til (yoki tillar) haqidagi bilimlarimizni qanday va qayerda saqlashini, biz ma’lumotlarni o‘zlashtirganimizda miyamizda nimalar sodir bo‘lishini o‘rganadi.

Miya ma’lumotlarni miya hujayralari (neyronlar va glial hujayralar) tarmoqlarida saqlaydi. Bu neyron tarmoqlari bizning harakatlarimizni (jumladan, nutqni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan) va ichki hamda tashqi sezgilarimizni boshqaradigan miyaning qismlariga bog‘langan. Ushbu tarmoqlar ichidagi aloqalar kuchli yoki zaif bo‘lishi mumkin va hujayra yuboradigan ma’lumot uning ba’zi yondosh jarayonlarining faolligini oshirishi va boshqalarning faoliyatiga ta’sir qilishi mumkin” [1].

Olima T.Chernigovskaya: “Til ko‘pqirrali, harakatchan va juda xilma-xil. U qat'iy, bu kognitiv-mental borliqning talabi bilan tushuntiriladi. Buni faqat mutaxassislargina bilishi shart emas? Chunki miya biz bilan bioelektrik yoki

kimyoviy reaksiyalar tilida emas, balki verbal tilda gaplashadi. U bizga olam ongimizda qanday aks etishini, u yerdan makon va zamon, tabiat qonun va hodisalari, maza-ta’m, hid, harorat, shakl va mohiyat qay tarzda namoyish etilishini ko‘rsatadi” [8] – deya uqtiradi.

Inson miyasining har bir sohasi muayyan vazifani bajarishga ixtisoslashgan. Eng qizig‘i, miya qismlari ko‘pincha bir-birining vazifasini o‘zida to‘ldirish xususiyatiga ham ega. Bu inson a’zolariga xos tabiiy moslashuv jarayoni hisoblanadi, bizningcha.

Ta’kidlash lozimki, neyrolingvistika sohasidagi tadqiqotlar lingvistik ma’lumotlar miyaning qaysi qismida qayta ishlanishi, vaqt o‘tishi bilan bu jarayon qanday o‘zgarishi, til o‘rganish va o‘zlashtirishda til qismlari qanday munosabatda bo‘lishi kabi masalalar ustida olib boriladi.

Davr o‘tishi bilan texnika-texnologiyada erishilayotgan yutuqlar natijasida mutaxassislar nutq jarayoni mobaynida inson miyasi qay tarzda faoliyat ko‘rsatishini o‘rganmoqda. Bugungi kunda til bilan aloqador ma’lumotlarni qayta ishlash jarayoni ancha murakkab mexanizmni talab qilishi va bir qancha miya sohalarining birgalikdagi faoliyati bilan bog‘liq ekanligi aniqlangan.

Til qanday tug‘iladi, rivojlanadi, boshqariladi, umuman, insonning nutqiy qobiliyati, jumlalarni tuzish, qolaversa, xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida miyaning ishlash mexanizmi qay tarzda boshqariladi – bularning barchasi bugungi neyrolingvistikaning asosiy tadqiq manbai bo‘lib qolmoqda.

Neyrolingvistika psixologiya, nevrologiya va tilshunoslikning mushtarakligi asosida tadqiq etiladigan soha sanaladi. Ta’kidlanganidek, neyrolingvistika bo‘yicha dastlabki izlanishlar miyaning turli sohalaridagi jarohatlar natijasida yuzaga keluvchi nutqiy buzilish (afaziya)larga oid bo‘lib, ularni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida insonning ruhiy holati, asab tizimidagi o‘zgarishlar izchil kuzatilgan. Demak, “neyrolingvistika, bir tomondan, psixologiya taraqqiyoti bilan izchil bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, nevrologiya va amaliy tilshunoslik bilan aloqadordir” [3].

Olam o‘zida jamuljam aylagan siru sinoatlardan biri narsa-hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi, bir-birini muntazam to‘ldirib borishi sanaladi. Agar shunday qonuniyat bo‘lmasa, taraqqiyot ham, hayot ham bu tarzda davom eta olmas edi. Jumladan, neyrolingvistikaning psixologiya, tilshunoslik, nevrologiya, logopediya, bioximiya, biofizika, molekulyar biologiya kabi sohalar bilan uzviy aloqadorligi unga tegishli masalalarning yechimida, mutaxassislarning bilim va malaka oshirishida juda muhim omil sanaladi.

Neyrolingvistika bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlar nafaqat kognitiv va neyrofanlar uchun ahamiyatli, balki til va miyaga oid boshqa zamonaviy fanlar uchun ham juda muhim sanaladi. Ya’ni eksperimental usullar yordamida bugungi kun tilshunosligi haqida ham yangicha tasavvurlarni hosil qilishga ko‘maklashadi. Sog‘lom yoki patologik nuqsoni mavjud bolalarda tilning rivojlanishini, afaziya yoki boshqa turdagi miyaga bog‘liq kasalliklar bilan og‘rigan bemorlardagi lisoniy tizimning ishdan chiqishi kabi holatlarni o‘rganish neyrolingvistikaning asosiy

vazifalaridan biriga aylanib ulgurgan. Bunday izlanishlar faqat muhim fundamental natijalar uchun emas, balki tibbiyot, psixologiya, pedagogika va ta’lim sohalari uchun ham amaliy ahamiyatga ega. Shu sababdan bu sohalar uchun maxsus mutaxassislarni tayyorlash bugungi kunda ham juda muhim sanaladi [8].

Har bir sohada bo‘lgani kabi neyrolingvistikada ham o‘z yechimini kutayotgan masalalar talaygina. Miya moddiy narsa bo‘lsa-da, unda kechayotgan jarayonlar hali-hanuz to‘la tadqiq etilganicha yo‘q. Til, tafakkur va miya munosabati asrlar davomida bahs-munozaraga sabab bo‘lib kelayotgan abadiy muammodir. Bizningcha, u muammoligicha qoladi. Chunki insonning moddiy a’zolaridan sanalgan yurak doimo ruhiy hisoblanmish qalb bilan, moddiy sanalgan miya esa ijtimoiy-ruhiy hisoblanmish ong, til, tafakkur bilan uyg‘undir. Aniqki, ruh bilan aloqador nimaiki mavjud, u sirliligicha qolaveradi.

A.Luriya neyrolingvistikaning fan sifatida yuzaga kelishi borasida fikr yuritar ekan, quyidagilarni e’tirof etadi: “Qator o‘n yilliklar mobaynida tilshunoslik tilning leksik, morfologik, sintaktik tarkibini va ularning asosiy birliklarini o‘rganib keldi. An’anaviy tilshunoslikda esa bu ishlar tillarni qiyosiy-tarixiy tahlil qilish orqali amalga oshirildi. Aynan mana shu sababli uzoq davrlar mobaynida tilshunoslik fikrning nutqqa yoki, aksincha, nutqning fikrga aylanishi kabi haqiqiy jarayonlarni o‘rganishdan uzoqlashgan fanligicha qoldi. Faqatgina XX asrning birinchi choragida qator tadqiqotchilar birinchilardan bo‘lib, tilshunoslik tilni qiyosiy-tarixiy jihatlariga ko‘ra o‘rganishni to‘xtatishiga, aksincha, muloqot va ma’lumotni yetkazuvchi jonli nutqni vazifaviy jihatdan tahlil qilishga da’vat eta boshlashdi. Tilshunoslik u yoki bu shaklda so‘zlovchining fikri qanday qilib jumlaga hamda aynan shu jumla tinglovchi tomonidan qabul qilinib, qay usul bilan fikrga aylantirilish usullarining tadqiqiga yaqinlashishi lozim” [5].

Miya bizga ma’lum olamning tuzilish jihatdan eng murakkab yaratilmasidir. Tabiatning bunday noyob tuhfasi o‘zi bilan raqobatlashish maqsadida yaratilgan eng so‘nggi kompyuterlardan ham bilish qobiliyatiga egaligi bilan ustun hisoblanadi. Miya o‘z tarkibida 80 mlrdga yaqin asab katakchalari – neyronlarni saqlaydi. Bu noyob nerv qurilmasi qanday ko‘rinishlarda bizning hislarimiz va fikrlarimiz bilan bog‘liq? Aynan mana shunday muammo fan va falsafaning siru sinoati sanaladi [6].

Darhaqiqat, ulkan tezliklarda harakatlanadigan neyronlar, bosh miya sohalari o‘z faoliyatining ko‘p jihatlarini sirliligicha qoldirmoqda. Yangi texnologiyalar, neyrolingvistik usullar kashf qilinishiga qaramay, miya o‘zining til bilan aloqador qirralarini to‘laligicha namoyon etmayapti.

Neyrolingvist T.Chernigovskaya ta’kidlaganidek, “Qanday qilib dunyomiz o‘zgaradi va qanday qilib biz o‘zimiz o‘zgaramiz? Bizdan ham kuchliroq intellektli robotlar paydo bo‘ladi. Kompyuterlar million marta tez ishlaydi va bu yanada jadallashadi. Shunga qaramasdan, Motsart yoki Shekspir darajasidagi sun’iy intellektni uchratmadik. Agar bir sekundda trillionta amal bajarish haqida so‘z borsa, demak, bu insondan tashqari bir holat deb tushuniladi. Miyamiz zamonaviy kompyuterlarga qaraganda boshqacha tuzilgan. Ammo o‘ziga xos ishlash

prinsiplariga ega kvant kompyuterlarning yuzaga kelishi bilan biz butunlay boshqa bir olamda paydo bo‘lamiz” [7].

Ammo eng so‘nggi rusumdagi texnologiyalar ham inson miyasining mahsuli sanaladi. Biz xohlaymizmi, yo‘qmi, yaratilmish tirik mavjudotlar orasida INSONdek mukammal jonzot uchramaydi. Bir paytning o‘zida yuzlab amallarni ONGLI tarzda bajarish, ularni tahlil qilish, xulosalar chiqarish – bu faqat insonga xos jihat sanaladi. Shulardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash lozimki, bugun insoniyat o‘ziga tobora yaqinlashib bormoqda. Miya va uning o‘ziga xos jihatlari, undagi tilning o‘rni kabi masalalar qizg‘inlashib, bahs markaziga aylanmoqda. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi: nega biz ayrim hollarda o‘z miyamizga bo‘ysunishni istamaymiz? Miya bizning o‘zimizdami yoki bizdan tashqarida? Ehtimol, uni ham boshqaruvchi mavjuddir. Ha, bizningcha, aslida biz o‘z ruhimiz orqali boshqarilamiz. Ammo bunday ilmni o‘rganishga inson salohiyati ojizlik qiladi. Miya insonning ilmlari chegarasi sanaladi. Fan neyrolingvistika sohasi orqali shu sarhadga yetib keldi. Jahon neyrolingvistikasida erishilayotgan yutuqlar, amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu sohaning hali uzoq yillarga borib taqaladigan muammolari, tez fursatlarda yechimini kutayotgan masalalari bisyor.

O‘zbek tilshunosligida ham I.Azimova, A.Primov, X.Qodirova, M.Dadaxonova, R.Bobokalonov kabi tadqiqotchi-olimlar tomonidan bu sohaga oid qator ilmiy chiqishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, yaxlit monografik holda tadqiq qilinmaganligi bu mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Ayni vaqtda neyrolingvistika sohasi bo‘yicha tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalar sifatida quyidagilar mavjudki, ularni tez fursatlarda amalga oshirish va aniq natijalarga erishish bu kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi:

1. Neyrolingvistikaga oid jiddiy ilmiy fundamental tadqiqotlar yaratish.
2. Keng salohiyatga ega soha mutaxassislarini tayyorlash va uzviy ravishda ularning malakasini oshirib borish.
3. Bu borada xalqaro miqyosdagi konferensiyalarni hamda malaka almashinuv o‘quv kurslarini yo‘lga qo‘yish.
4. Ilmiy tekshirish instituti bazasida neyrolingvistik tajribalarni amalga oshirishga ixtisoslashgan laboratoriya faoliyatini tashkil qilish.

Xullas, bugun neyrolingvistika mustaqil soha sifatida jadal rivojlanib, insonning lisoniy olami, uning miya mo‘'jizalari bilan aloqador jihatlari, bu fanning XXI asr texnologiyasi ravnaqidagi salmoqdor o‘rni, o‘ziga daxldor muammolari mutaxassislar diqqat markazini egallab bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurullayeva K. Neyrolingvistika ta’limotidagi yangi yondashuvlar / International scientific research conference. – Belarus, 2022. – P. 28-29.
2. Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O‘zbek tilining neyrolingvistik tadqiqi muammolari. – Urganch, 2019.

3. Большой психологический словарь / Под ред. Б. Мещерякова, В. Зинченко. – СПб.: прайм-ЕВРОЗНАК; – М.: ОЛМА-Пресс, 2003 (ПФ Красный пролетарий). – 666 с.

4. Винарская Е.Н., Кузнецов С.Н. Нейролингвистика // Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 566.

5. Лурия А. Основные проблемы нейролингвистики. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. – С. 4.

6. Сэйтл С. Лилиенфельд С. Нейромания. Как мы теряем разум в эпоху расцвета науки о мозге. [Пер. с англ. Ю. В. Рябининой]. – М.: Издательство «Э», 2016. – С. 15-16.

7. Черниговская Т.А. Чеширская улыбка кота Шрёдингера: язык и сознание. – М., 2017. – С. 15-16.

8. Черниговская Т.В. Язык, мышление, мозг: основные проблемы нейролингвистики / Труды отделения историко-филологических наук РАН. – М., 2004. – № 2. – С. 40.

UDK 159.9:316.6:314.7

MIGRATSIYA TAJRIBASINING OILAVIY MUNOSABATLAR VA RUHIY BARQARORLIKKA TA’SIRI

Axmedova Dildora Olimjonovna,
ISFT instituti “Psixologiya va pedagogika” kafedrasi dotsenti,
sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada mehnat migratsiyasi tajribasining oilaviy munosabatlar va shaxsning ruhiy barqarorligiga ko‘rsatayotgan ijtimoiy-psixologik ta’siri tahlil qilingan. Ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida migratsiya jarayoni emotsional uzilishlar, nikoh barqarorligining pasayishi hamda stress va depressiya holatlarining kuchayishiga olib kelishi isbotlangan.

Kalit so‘zlar: mehnat migratsiyasi, oilaviy munosabatlar, ruhiy barqarorlik, ijtimoiy-psixologik adaptatsiya, stress, depressiya.

ВЛИЯНИЕ МИГРАЦИОННОГО ОПЫТА НА СЕМЕЙНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПСИХИЧЕСКУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ

Аннотация. В статье анализируется социально-психологическое влияние опыта трудовой миграции на семейные отношения и психическую устойчивость личности. На основе результатов научных исследований доказано, что миграционные процессы приводят к эмоциональным разрывам, снижению устойчивости брака, а также к усилению стрессовых и депрессивных состояний.

Ключевые слова: трудовая миграция, семейные отношения, психическая устойчивость, социально-психологическая адаптация, стресс, депрессия.

THE IMPACT OF MIGRATION EXPERIENCE ON FAMILY RELATIONSHIPS AND PSYCHOLOGICAL STABILITY

Abstract. The article analyzes the socio-psychological impact of labor migration experience on family relationships and individual psychological stability. Based on the results of scientific studies, it is proven that migration processes lead to emotional separation, decreased marital stability, and increased levels of stress and depression.

Key words: labor migration, family relationships, psychological stability, socio-psychological adaptation, stress, depression.

Global iqtisodiy o‘zgarishlar, mehnat bozori transformatsiyasi va aholining ijtimoiy harakatchanligi oshib borayotgan hozirgi sharoitda mehnat migratsiyasi

zamonaviy jamiyat hayotida muhim ijtimoiy fenomen sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xalqaro migratsiya tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda dunyoda mehnat migrantlari soni 280 million nafardan ortiqni tashkil etadi [1]. Ushbu ko‘rsatkichning yil sayin oshib borayotgani mehnat migratsiyasining global miqyosda barqaror jarayonga aylanganini ko‘rsatadi. Mazkur jarayon bir tomondan ishsizlik darajasini kamaytirish, aholi daromadlarini oshirish, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash kabi ijobiy omillar bilan tavsiflansa, ikkinchi tomondan shaxsning ijtimoiy munosabatlari, oilaviy hayoti hamda ruhiy barqarorligiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mehnat migratsiyasi inson hayotida tub o‘zgarishlarni talab qiladigan murakkab ijtimoiy-psixologik jarayondir. Yangi ijtimoiy muhitga moslashish, begona madaniy makonda yashash, til to‘siqlari, mehnat sharoitlarining og‘irligi hamda huquqiy noaniqlik migrant shaxsida doimiy psixologik zo‘riqish va stress holatlarini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, uzoq muddatli mehnat migratsiyasi oila a’zolari o‘rtasida jismoniy va emotsional ajralishni kuchaytiradi. Natijada o‘zaro ishonchning susayishi, ruhiy yaqinlikning pasayishi va oilaviy rollarning buzilishi kuzatiladi.

Oila shaxsning ruhiy barqarorligi, emotsional qo‘llab-quvvatlanishi va ijtimoiy himoyasining asosiy manbai hisoblanadi. Oila muhitida insonning stressga chidamliligi, hayotiy qiyinchiliklarga munosabati va ijtimoiy moslashuv darajasi shakllanadi. Biroq mehnat migratsiyasi sharoitida uzoq muddatli ajralish, iqtisodiy beqarorlik va masofaviy muloqotga majbur bo‘lish oilaviy munosabatlarda stress holatlarini kuchaytiradi, emotsional uzilishlar va nizolarning ko‘payishiga olib keladi [7]. Ilmiy tadqiqotlar natijalari mehnat migratsiyasi nikoh munosabatlari barqarorligining pasayishiga, ayrim hollarda esa ajrimlar sonining oshishiga sabab bo‘layotganini tasdiqlaydi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda mehnat migratsiyasi ko‘proq iqtisodiy va demografik jarayon sifatida talqin qilinib, uning psixologik oqibatlariga yetarli e’tibor qaratilmagan. Psixologiya sohasi doirasidagi tadqiqotlar soni nisbatan cheklangan bo‘lib, ko‘p hollarda migrant shaxsining ichki kechinmalari, emotsional holati va oilaviy munosabatlaridagi o‘zgarishlar ikkinchi darajali masala sifatida ko‘rib chiqilgan. Biroq so‘nggi o‘n yilliklarda ijtimoiy psixologiya, oila psixologiyasi va klinik psixologiya sohalarida migratsiya tajribasining shaxs ruhiy holati va oilaviy munosabatlarga ta’sirini kompleks o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar faollashdi.

Shu bilan birga, ayrim olimlar psixologiya fanida olib borilgan avvalgi tadqiqotlarda migratsiya jarayonlarini tahlil qilishda ijtimoiy-siyosiy va madaniy kontekstlar yetarlicha hisobga olinmaganini tanqid qilmoqdalar [3]. Bu holat mehnat migratsiyasini universal psixologik jarayon sifatida baholashga olib kelib, uning milliy, madaniy va mintaqaviy xususiyatlarini e’tibordan chetda qoldirishga sabab bo‘lgan. Aslida esa mehnat migratsiyasining shaxs ruhiy holati va oilaviy munosabatlarga ta’siri har bir jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, madaniy qadriyatlari va oila institutining o‘ziga xos jihatlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Shu nuqtayi nazardan, mehnat migratsiyasining oilaviy munosabatlar va shaxsning ruhiy barqarorligiga ko‘rsatayotgan ijtimoiy-psixologik ta’sirini milliy va madaniy kontekstda chuqur o‘rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar migrantlar va ularning oila a’zolari uchun samarali psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish, profilaktik chora-tadbirlarni belgilash hamda ijtimoiy siyosatni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda psixologiya fanida migratsiya muammosi murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy hodisa sifatida qaralib, asosan uchta yirik yo‘nalishda tadqiq etilmoqda. Birinchi yo‘nalish migrantlarning ruhiy salomatligi masalalariga bag‘ishlanib, unda migratsiya jarayonida yuzaga keladigan stress, depressiya, xavotir, posttravmatik stress buzilishi kabi psixologik holatlar o‘rganiladi. Ikkinchi yo‘nalish ijtimoiy integratsiya va diskriminatsiya jarayonlariga qaratilgan bo‘lib, migrantlarning yangi jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy identifikatsiyasi, ijtimoiy chetlanish va kamsitilish holatlarining ruhiy oqibatlari tahlil qilinadi. Uchinchi yo‘nalish esa migratsiya ta’sirida shakllanadigan oilaviy munosabatlarni o‘rganishga qaratilib, bu yo‘nalish mehnat migratsiyasi tajribasining shaxsiy va ijtimoiy oqibatlarini kompleks tushunish imkonini beradi.

Ilk migratsiya tadqiqotlarida ushbu jarayon asosan iqtisodiy omillar bilan izohlangan bo‘lsa, keyingi yillarda ijtimoiy psixologiya va klinik psixologiya sohalarida migratsiyaning inson ruhiy holatiga ko‘rsatadigan ta’siriga bo‘lgan ilmiy qiziqish sezilarli darajada oshdi. Bu jarayon migratsiyaning faqat iqtisodiy hodisa эмас, балки shaxs hayotidagi muhim psixologik sinov sifatida namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi. Bhugra va Becker migratsiyani insonda “madaniy yo‘qotish” (cultural bereavement) hissini yuzaga keltiruvchi jarayon sifatida talqin qilib, uni kuchli psixologik stress manbai deb baholaydi. Ularning fikriga ko‘ra, migratsiya shaxsning avvalgi ijtimoiy rollari, madaniy qadriyatlari va identifikatsiyasining buzilishi bilan kechadi, bu esa ruhiy beqarorlikka olib keladi.

Migrantlar ruhiy salomatligiga bag‘ishlangan empirik tadqiqotlar natijalari ushbu muammoning dolzarbligini yaqqol namoyon etadi. Xususan, Steel va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda migrantlar orasida depressiya holatlarining tarqalish darajasi 25–45 foiz oralig‘ida ekanligi aniqlangan [10]. Bu ko‘rsatkich migrantlar ruhiy salomatligi umumiy aholi bilan solishtirganda sezilarli darajada xavf ostida ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ko‘plab xalqaro tadqiqotlarda migratsiya tajribasi bilan bog‘liq stress omillari — huquqiy noaniqlik, ijtimoiy yolg‘izlik, til va madaniyat to‘siqlari — ruhiy buzilishlarning rivojlanish ehtimolini sezilarli oshirishi ilmiy jihatdan isbotlangan [9].

Migrantlarning ruhiy salomatligi masalalariga oid tadqiqotlar ko‘proq posttravmatik stress buzilishi, depressiya va xavotir holatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ushbu holatlar migratsiya jarayonining uzoq muddatli psixologik oqibatlari sifatida qaraladi. Ayniqsa, majburiy yoki iqtisodiy zarurat tufayli amalga oshirilgan migratsiya shaxsda nazorat hissining pasayishi va ijtimoiy himoyasizlik tuyg‘usini kuchaytiradi.

Oilaviy munosabatlar nuqtayi nazaridan migratsiya ta’siri nisbatan kamroq o‘rganilgan bo‘lsa-da, мавжуд тадқиқотлар bu jarayonning salbiy oqibatlarini aniq ko‘rsatib bermoqda. Xususan, migratsiya sharoitida uzoq muddatli ajralish er-xotin o‘rtasida emotsional uzilishlar, o‘zaro ishonchning susayishi, muloqot muammolari va konfliktlarning kuchayishiga sabab bo‘lishi aniqlangan. Oilaviy rollarning vaqtincha yoki doimiy buzilishi nikoh barqarorligining pasayishiga olib keladi hamda oila tizimida ijtimoiy-psixologik muvozanatni izdan chiqaradi.

Mazkur yo‘nalishda olib borilgan mahalliy tadqiqotlar ham muhim ilmiy xulosalarni taqdim etadi. Xususan, Abdusamatovning tadqiqotlarida mehnat migratsiyasi natijasida oilaviy emotsional munosabatlarning buzilishi, nikoh barqarorligining pasayishi va ijtimoiy frustratsiya holatlarining ortishi ilmiy asosda isbotlangan. Muallif migratsiya sharoitida oilaning psixologik himoya funksiyasi zaiflashishini alohida ta’kidlaydi. Saipova esa migrant oilalarda voyaga yetayotgan bolalar psixologik holatini empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilib, ularda xavotir va depressiv holatlar darajasi yuqori ekanini aniqlagan [2]. Bu holat mehnat migratsiyasining nafaqat migrant shaxs, balki uning oila a’zolari ruhiy holatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy tadqiqotlar mehnat migratsiyasi tajribasini shaxs ruhiy salomatligi va oilaviy munosabatlar kontekstida chuqur va kompleks o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, migratsiyaning milliy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda olib boriladigan psixologik tadqiqotlar amaliy jihatdan muhim.

Oilaviy munosabatlar sohasida Bo‘rievaning tadqiqotlari alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Muallif tomonidan 300 dan ortiq mehnat migrantlari oilalarini qamrab olgan keng ko‘lamli empirik tadqiqot natijalari oilaviy tizimda yuz berayotgan chuqur ijtimoiy-psixologik o‘zgarishlarni aniqlash imkonini bergan. Tadqiqot jarayonida er-xotin munosabatlarida emotsional yaqinlikning pasayishi, o‘zaro muloqot sifatining susayishi, oilaviy rollar va mas’uliyatlar taqsimotining buzilishi, shuningdek, o‘zaro ishonch darajasining kamayishi kabi tizimli muammolar aniqlangan [4]. Bo‘rieva ushbu salbiy holatlarni migratsiya jarayonining davomiyligi bilan bevosita bog‘lab, ayniqsa uzoq muddat xorijda bo‘lish oilaviy munosabatlar barqarorligiga eng kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil ekanini ilmiy asosda isbotlaydi.

Muallif tadqiqotida migratsiya natijasida er-xotin o‘rtasidagi emotsional aloqaning uzilishi oilada psixologik masofa paydo bo‘lishiga olib kelishi, bu esa muloqotning yuzaki va formal tus olishiga sabab bo‘lishi ta’kidlanadi. Natijada oilaviy muammolarni birgalikda hal qilish mexanizmlari zaiflashadi, konfliktlar yashirin yoki ochiq shaklda kuchayadi. Shuningdek, Bo‘rieva migrant oilalarda nikohdan qoniqish darajasi mahalliy, migratsiya tajribasiga ega bo‘lmagan oilalarga nisbatan sezilarli darajada past ekanini aniqlagan. Muallif ushbu holatni emotsional uzilishlar, doimiy psixologik zo‘riqish va stress holatlari bilan uzviy bog‘liqlikda izohlaydi.

Oilaviy munosabatlar va ruhiy salomatlik o‘rtasidagi bog‘liqlik Pirova tadqiqotlarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Muallif mehnat migrantlarining xotinlari orasida depressiya va xavotir holatlarining yuqori darajada uchrashini empirik ma’lumotlar asosida isbotlab, ushbu holatlarni oilaviy stress, yolg‘izlik hissi hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi bilan bog‘laydi [8]. Pirovaning ta’kidlashicha, oilada erning jismoniy yo‘qligi ayollarda mas’uliyat yukining oshishiga, hissiy tayanchning kamayishiga va psixologik resurslarning tezroq so‘nishiga olib keladi.

Saipova tadqiqotlarida esa mehnat migratsiyasining oiladagi bolalar ruhiy holatiga ta’siri chuqur tahlil qilingan. Muallif migrant oilalarda voyaga yetayotgan bolalarda ijtimoiy moslashuv jarayonining qiyinlashuvi, emotsional beqarorlik, xavotir va ishonchsizlik holatlarining yuqori ekani qayd etadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ota-onalardan birining uzoq muddat yo‘qligi bolalarda xavfsizlik hissining pasayishiga, ijtimoiy munosabatlarda qiyinchiliklar yuzaga kelishiga va o‘z-o‘zini baholashning izdan chiqishiga sabab bo‘ladi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqotlar mehnat migratsiyasining oilaviy munosabatlar va ruhiy salomatlikka ta’siri chuqur, tizimli va ko‘p qirrali ekanini ko‘rsatadi. Oilaviy tizimda yuz berayotgan emotsional, kommunikativ va psixologik o‘zgarishlar migratsiya jarayonining eng muhim, ammo ko‘pincha e’tibordan chetda qoladigan oqibatlaridan biri hisoblanadi. Шу боис, mehnat migratsiyasi muammosini o‘rganishda oilaviy munosabatlar va ruhiy salomatlik omillarini integratsiyalashgan yondashuv asosida tadqiq etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dzonik tadqiqoti psixologik farovonlik va ijtimoiy-psixologik adaptatsiya o‘rtasida yuqori korrelyatsiya mavjudligini isbotlab, farovonlik pasayishi emotsional diskomfort va dezadaptatsiya holatlarini kuchaytirishini ko‘rsatgan [5].

Xalqaro tadqiqotlar ham migratsiya tajribasi oilaviy munosabatlar barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Berry akkulturatsiya nazariyasiga ko‘ra, migrantlar yangi ijtimoiy muhitga moslashish jarayonida shaxsiy qadriyatlar tizimi transformatsiyaga uchraydi, bu esa oiladagi rollar muvozanatini buzadi.

Miller va Rasmussen tadqiqotlarida migratsiya bilan bog‘liq doimiy stress omillari ruhiy charchoqni kuchaytirib, emotsional munosabatlarda begonasirashuvga sabab bo‘lishi aniqlangan [6].

X.Abdusamatov empirik ma’lumotlariga ko‘ra, migrant oilalarda:

- konfliktlar soni 1,7 barobar ko‘proq;
- nikohdan qoniqish 32% ga past;
- ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hissi sezilarli kamaygan

ekani kuzatilgan.

M.Saipova tadqiqotida bolalarda kuzatilgan asosiy holatlar:

- emotsional beqarorlik – 33%;
- xavotir holati – 29%;
- ijtimoiy izolyatsiyaga moyillik – 18%bo‘lgan.

Bu ko‘rsatkichlar oilaviy muhitdagi stressning bola psixologiyasiga bevosita o‘tishi mexanizmini tasdiqlaydi.

Steel va hammualliflar migrantlarda ruhiy buzilishlarning tarqalishini asosan uzoq muddatli stress va ijtimoiy yolg‘izlik bilan bog‘laydi[5].

Shu asosda quyidagi ijtimoiy-psixologik zanjirni shakllantirish mumkin - migratsiya bosimi → emotsional uzilish → ruhiy farovonlik pasayishi → oilaviy inqiroz.

Migratsiya tajribasida quyidagi asosiy mexanizmlar ustunlik qiladi:

№	Ijtimoiy-psixologik mexanizm	Mazmuni	Asosiy oqibatlari
1	Ijtimoiy izolyatsiya	Migrant oilalar jamoa va qarindoshlardan uzilib qolishi	Psixologik qo‘llab-quvvatlash kamayishi, yolg‘izlik hissi ortishi
2	Rollar konflikti	Oilada mas’uliyat qayta taqsimlanishi	Konfliktlar kuchayishi, o‘zaro tushunmovchilik
3	Stress kumulyatsiyasi	Iqtisodiy va madaniy bosimning yig‘ilib borishi	Surunkali stress, depressiya, xavotir holatlari
4	Emotsional sovish	Muloqot va hissiy yaqinlikning kamayishi	Begonasirashuv, nikoh barqarorligining zaiflashishi

Xulosa qilib aytish mumkinki, mehnat migratsiyasi tajribasi oila institutining barqarorligiga tizimli ravishda salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari migratsiya jarayonida er-xotin o‘rtasida emotsional munosabatlarning susayishi, ruhiy stress darajasining ortishi, nikohdan qoniqishning pasayishi hamda bolalar psixologiyasida turli muammolarning kuchayishini aniq ko‘rsatdi. Ushbu holatlar oilaviy muhitda psixologik beqarorlikni shakllantirib, uzoq muddatli ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois migrant oilalarni ijtimoiy-psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur hisoblanadi. Jumladan, migrant oilalar uchun muntazam psixologik monitoring tizimini joriy etish, readaptatsiya davrida oilaviy maslahat xizmatlarini tashkil etish, bolalar uchun stressni kamaytirishga yo‘naltirilgan maxsus dasturlar ishlab chiqish hamda mahalla darajasida qo‘llab-quvvatlash guruhlarini shakllantirish oila barqarorligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. International Organization for Migration. World Migration Report 2022.
2. Abdusamatov.X.U. Migrant oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlari. Psixol. fan. dok. …. diss. . – T., 2022.

3. Bhugra D., Becker M.A. Migration, cultural bereavement and cultural identity. World Psychiatry. 2005. Vol.4(1). P.18–24.

4. Bo‘rieva M.Sh. Migrant oilalarda er-xotin emotsional munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: avtoref. diss. PhD. Toshkent, 2024.

5. Дзёник Д.В. Влияние психологического благополучия трудовых мигрантов на социально-психологическую адаптацию. Российскийдевиантологическийжурнал. 2022. №4. С.418–427.

6. Miller K.E., Rasmussen A. War exposure, daily stressors, and mental health in conflict and post-conflict settings. SocialScience&Medicine. 2010. Vol.70(1). P.7–16.

7. Матренин В.А., Сулейманова А.М. Социальные последствия миграции населения. Москва: Наука, 2019.

8. Пирова Г.Д. Социальные детерминанты психического здоровья жён трудовых мигрантов. Душанбе, 2022.

9. Steel Z. et al. Trauma and mental health among migrants. JAMA, 2009.

10. Steel Z. et al. Association of trauma with mental health outcomes among displaced populations. JAMA. 2009. Vol.302(5). P.537–549.

11. Saipova.M.L Mehnat migrantlari oilalarida voyaga etayotgan farzandlarning psixologik rivojlanish xususiyatlari Psixol. fan. dok. …. diss. avtoref. – T., 2022.

UDK 372.8

ENG QADIMGI DAVRDA TARBIYANING ILK SHAKLLARI

Sarsenbayeva Rayhon Maxanbetovna,
ISFT instituti “Psixologiya va pedagogika” kafedrasi dotsenti, (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada eng qadimgi davrda tarbiyaning ilk shakllari o‘z ifodasini topgan. Muallif tarbiyaning insoniyat tarixidagi o‘rnini, qabila davrida tarbiyaviy munosabatlarning shakllanishini, og‘zaki an’analar va jamoaviy faoliyat orqali bolalarni tarbiyalash jarayonlarini tahlil qiladi. Shuningdek, jamoaviy tarbiyaning bugungi zamonaviy pedagogikaga ta’sirini, milliy qadriyatlar va ekologik pedagogika bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: tarbiya, qadimgi davr, ijtimoiy tarbiya, qabila, tarbiyaviy munosabatlar, og‘zaki an’analar, jamoaviy tarbiya, milliy qadriyatlar, an’analar, ekologik pedagogika, genderga asoslangan tarbiya.

ПЕРВЫЕ ФОРМЫ ВОСПИТАНИЯ В ДРЕВНЕЙШИЕ ВРЕМЕНА

Аннотация. В данной статье рассматриваются первые формы воспитания, сформировавшиеся в древнейшие периоды истории человечества. Автор анализирует роль воспитания в истории человечества, формирование воспитательных отношений в родоплеменной период, а также процессы воспитания детей через устные традиции и коллективную деятельность. Кроме того, показано влияние коллективного воспитания на современную педагогику, его связь с национальными ценностями и экологической педагогикой.

Ключевые слова: воспитание, древний период, социальное воспитание, племя, воспитательные отношения, устные традиции, коллективное воспитание, национальные ценности, традиции, экологическая педагогика, гендерно-ориентированное воспитание.

THE EARLIEST FORMS OF EDUCATION IN ANCIENT TIMES

Abstract. This article examines the earliest forms of education that emerged in ancient times. The author analyzes the role of education in the history of humanity, the formation of educational relations during the tribal period, and the processes of educating children through oral traditions and collective activities. In addition, the impact of collective education on modern pedagogy and its connection with national values and ecological pedagogy are highlighted.

Key words: education, ancient period, social education, tribe, educational relations, oral traditions, collective education, national values, traditions, ecological pedagogy, gender-based education.

Tarbiya insoniyat tarixining ajralmas va doimiy qismidir. U nafaqat zamonaviy jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri, balki insonning ilk shakllanish bosqichidan boshlab mavjud bo‘lgan ijtimoiy jarayondir. Tarbiya ilk davrlardan boshlab avlodlar orasida bilim, tajriba va ijtimoiy qadriyatlar almashinuvi vositasi sifatida shakllangan bo‘lib, insoniyat sivilizatsiyasining mustahkam poydevorini yaratishda muhim rol o‘ynagan.

Eng qadimgi davr insoniyat tarixida tarbiyaviy munosabatlar shakllanishining ilk bosqichi hisoblanadi. Shu davrda bola va kattalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, tajriba va bilim uzatish jarayoni, shuningdek, ijtimoiy muhitga moslashish kabi jarayonlarning barchasi tarbiya shakllaridan biri sifatida qabul qilinadi. Tarbiya bu davrda nafaqat bilim berish, balki guruh ichidagi hamjihatlik, xavfsizlik va omon qolish strategiyalarini shakllantirish vositasi bo‘lgan.

Insoniyatning dastlabki hayot tarzi ovchilik va terimchilik bilan chambarchas bog‘liq edi. Odamlar kichik guruhlarda yashar, ularning asosiy maqsadi omon qolish, oziq-ovqat topish va bir-birini qo‘llab-quvvatlash edi. Shu jihatdan tarbiya, avvalo, hayotiy ko‘nikmalarni berish, xavfsizlikni ta’minlash va ijtimoiy hamjihatlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan edi.

Misol uchun, ovchilar bolalarni xavfdan ogohlantirishi, ovchilik qurollaridan qanday foydalanishni o‘rgatishi, ularni ehtiyotkorlikka chaqirishi, shuningdek, tabiat va o‘simlik-hayvonot dunyosi bilan munosabatni tushuntirishi – bularning barchasi dastlabki tarbiya shakllaridan hisoblangan. Shu bilan birga, bu jarayon orqali bolalar o‘z jamiyatining qoidalari, me’yorlari va tajribasini o‘zlashtirgan, jamiyat ichidagi o‘z o‘rnini anglagan.

Keyinchalik, insoniyat rivojlanishi bilan tarbiya shakllari ham murakkablashdi. U nafaqat hayotiy ko‘nikmalarni o‘rgatish, balki axloqiy qadriyatlar, milliy an’analar, madaniyat va ijtimoiy normalarni uzatish vositasi sifatida rivojlandi. Tarbiya shunday ijtimoiy institutga aylandi-ki, u jamiyatning uzluksiz rivojlanishi va avlodlararo bilim almashinuvi uchun asosiy mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

Shu tariqa, tarbiya insoniyat tarixida nafaqat individual shaxsni shakllantiruvchi, balki butun jamiyatni barpo etuvchi muhim vosita sifatida ajralmas ahamiyat kasb etadi. Uning dastlabki shakllari hayotiy zarurat va omon qolish strategiyalariga asoslangan bo‘lsa, keyingi davrlarda axloqiy, madaniy va ma’naviy qadriyatlarni singdiruvchi murakkab ijtimoiy institutga aylandi.

Tarbiyaning mohiyati faqat individual emas, balki jamoaviy va ruhiy asoslarda ham shakllanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, *“Yangi O‘zbekistonni barpo etishda jamoaviy ong, ma’naviyat va tarbiya eng muhim ustunlardandir”*[1].

Insoniyatning dastlabki hayoti paleolit, mezolit va neolit davrlariga to‘g‘ri keladi. Bu davrlarda odamlar asosan ovchilik va terimchilik bilan shug‘ullanishgan, keyinchalik hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik faoliyatini

rivojlantirishgan. Odamlar kichik jamoalarda, ya’ni qabilalarda yashab, omon qolish uchun bir-birlariga yordam berishga, tajriba almashishga va resurslarni birgalikda boshqarishga tayanganlar. Shu jihatdan, jamiyatning eng asosiy tamoyillaridan biri – hamjihatlik va kollektiv mas’uliyat – dastlabki tarbiya jarayonida shakllangan.

Dastlabki tarbiya hayotiy tajriba asosida, og‘zaki shaklda uzatilgan. Keksa avlod o‘z tajribasini yosh avlodga kundalik faoliyat davomida o‘rgatgan. Bu jarayon har doim ongli pedagogik faoliyat sifatida bo‘lmagan, lekin unda o‘ziga xos tarbiyaviy prinsiplar aks etgan. Masalan, bola qurol yasash yoki ovga chiqish ko‘nikmalarini o‘rganganida, unga ota, amakisi yoki katta aka-ukalari amaliy yordam bergan. Shu tarzda, yosh avlod nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki xavfsizlik qoidalarini, jamoada o‘z o‘rnini, sabr-toqat va mehnatni qadrlash kabi ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni ham o‘zlashtirgan.

Bunday ko‘nikma va qadriyatlarning avloddan-avlodga o‘tishi insoniyatning sivilizatsiya jarayonida tarbiyaviy mexanizmlarning dastlabki shakli sifatida qaraladi. Tarbiya shuningdek, bolalarni jamiyatga moslashishga, ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishga va guruh ichidagi hamkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirgan. Shu bilan birga, o‘rganilgan bilim va ko‘nikmalar kundalik faoliyat orqali mustahkamlangan va bola ongida tabiiy ravishda mustahkamlanib borgan.

Neolit davriga kelib, odamlar qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirgach, tarbiya yanada murakkablashgan. U nafaqat hayotiy ko‘nikmalarni, balki axloqiy qadriyatlarni, milliy an’analarni, jamiyat me’yorlari va madaniy normalarni o‘zlashtirishni ham o‘z ichiga olgan. Shu tariqa, dastlabki og‘zaki tarbiya shakllari keyinchalik tizimli va ongli pedagogik jarayonlarga aylanib, insoniyat sivilizatsiyasining barqaror rivojlanishiga xizmat qilgan.

Natijada, dastlabki tarbiya shakllari hayotiy zaruratga asoslangan bo‘lsa-da, u insoniyat tarixida bilim, tajriba va qadriyatlarni uzatishda mustahkam poydevor yaratgan va jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynagan.

Bu davrda ovchilik paytida hamkorlik qilish, bolalarga tajriba o‘rgatish kabi masalalar hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda shakllangan. Bu tabiiy ehtiyojlar tufayli o‘z-o‘zidan pedagogik jarayonlar yuzaga chiqqanligini bilishimiz mumkin.

Tarbiya dastlab og‘zaki, bevosita ko‘rish va takrorlash asosida shakllangan. Katta yoshdagilar (ota-onalar, qabila yetakchilari, ovchilar) bolalarga o‘z bilganlarini bevosita ko‘rsatish orqali o‘rgatganlar. Bu jarayonlarda o‘sib kelayotgan yosh avlod ko‘nikma, harakat va taqlid qilish orqali kerakli tarbiyaviy ma’lumotlarni o‘rganishgan.

Amaliy misol keltiradigan bo‘lsak, bola ovchilikka oid bo‘lgan qurollarni o‘rganayotganida, ya’ni unga ota yoki amakidan kamon yasashni, otishni o‘rgangan. Bu orqali bola nafaqat merganlikka oid bilim, ko‘nikmalarni balki sabr qilishni, e’tiborli bo‘lishni, hushyorlik kabi fazilatlarni ham o‘rganib borgan.

Qabila tuzilmasi paydo bo‘lgach, tarbiyaviy munosabatlar aniqroq shakllana boshladi. Har bir kishining o‘z o‘rni bo‘lgan: erkaklar ovchilik bilan, ayollar esa, uy-

ro‘zg‘or ishlarida, bolalar esa ularga yordamchi sifatida jalb qilingan. Bu esa, o‘z-o‘zidan “genderga asoslangan tarbiya”ni yuzaga chiqardi.

Bola noto‘g‘ri xatti-harakat qilsa, kattalar tomonidan uni jin yoki ruh jazolaydi degan e’tiqod orqali uni axloqiy me’yorga bo‘ysundirganlar.

Arxeologik topilmalar (masalan, tosh qurollari, qadimgi tasviriy san’at namunalari) va etnografik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, eng qadimgi davrda ham bolalar katta yoshdagilarni kuzatib, ularning faoliyatini takrorlash orqali tarbiyalangan.

Etnografik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kun qabilalarida ham an’anaviy tarbiya usullari mavjud: bolalar kattalarni kuzatadi, ularga taqlid qiladi va shunday qilib ijtimoiylashadi [2].

Arxeologik topilmalarga tosh qurollari, devorlardagi rasmlar, hayvon tasvirlari, turli maskalar, diniy marosim izlari kabilar qadimgi insonlarning ijtimoiy munosabatlari va tarbiyaning turli shakllari haqida tasavvur beradi.

Eng qadimgi davrda tarbiya nafaqat amaliy bilimlar orqali, ya’ni ov qilish va himoyalanish, balki axloqiy, ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishida ham muhim hisoblangan. Tarbiya inson ongining evolyutsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Eng qadimgi davrlarda tarbiya:

- hayotiy zaruratdan kelib chiqqan;
- jamiyatda ijtimoiy me’yor va qadriyatlarni mustahkamlovchi vosita bo‘lgan;
- madaniyat, urf-odat, e’tiqodlar orqali amalga oshirilgan.

Bu jarayonlar keyinchalik yozma jamiyatlarda ta’lim tizimlariga asos bo‘lgan.

Bugungi zamonaviy pedagogikada “ijtimoiy tarbiya” tushunchasi eng qadimgi davr tajribalariga asoslanadi: amaliy faoliyat orqali o‘rganish, oila va jamiyat muhitida shakllanish, ijtimoiy rolga tayyorlanish kabi masalalar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, hozirgi ijtimoiy-pedagogikada “tajribaga asoslangan ta’lim”, “iqlim muhitining tarbiyadagi o‘rni”, “ijtimoiy rollar orqali o‘rganish” kabi tushunchalar aynan qadimgi jamiyatlarda shakllangan modelga tayangan.

Oilaviy tarbiyada mehnatga o‘rgatish, ya’ni bolani kichik rollar bilan jamiyatga tayyorlash qadimgi an’analarning davomidir.

Eng qadimgi davr insoniyat tarixida tarbiyaviy munosabatlar shakllanishining negizi bo‘lgan. O‘sha davrlardagi tajriba, munosabatlar va qadriyatlar bizga qadimgi jamiyat ahli qanday yashaganini emas, balki tarbiyaning qanday paydo bo‘lganini, uning mohiyatini va zarurligini anglashda yordam beradi.

Eng qadimgi davr insoniyat tarixida tarbiyaviy munosabatlar shakllanishining poydevori bo‘lgan. Bu davrda shakllangan tajriba, axloqiy me’yorlar, mehnatga o‘rgatish tizimi va ijtimoiy rol bo‘yicha tarbiya, bugungi pedagogika nazariyasida ham o‘z aksini topgan. Tarbiya bu shunchaki bilim emas, balki jamiyat hayotiga moslashish, uni davom ettirish vositasidir.

Insoniyatning tarixi bu tarbiyaning taraqqiyot yo‘li hamdir. Har bir tarixiy bosqich, shu jumladan qabila davri**,** o‘ziga xos tarbiyaviy tizim va qadriyatlarni shakllantirgan. Ushbu bosqichda tarbiya tabiiy, ya’ni ijtimoiy institutlar yoki maktabsiz, hayot va mehnat jarayonida shakllanardi. Shu sababli bu davri jtimoiy pedagogikaning dastlabki tabiiy shakllari sifatida qaraladi.

Qabila davri, bu insoniyat tarixida ibtidoiy jamoa tuzumi deb yuritilgan bosqich bo‘lib, bunda odamlar urug‘-aymog‘i asosida yashagan. Jamiyatning asosiy tayanchisi, bu urug‘ boshlig‘i hisoblangan, shuningdek, katta yoshdagilar**,** ayniqsa onalar hamda katta tajribaga ega bo‘lgan erkaklar edi [3].

Bu davrda:

- mulkchilik umumiy edi;
- ijtimoiy tabaqalanish yo‘q edi;
- farzand tarbiyasi butun qabila zimmasida bo‘lgan.

a) Tarbiyaning tabiiy shakllari
kuzatish va taqlid asosidagi tarbiya.

Qabila davrida bolalar:

- kattalarning harakatlarini kuzatgan;
- mehnat jarayonida ularga taqlid qilgan;
- o‘yin orqali ijtimoiy rollarni egallagan.

Masalan**,** bolalar erkaklar ovga chiqishini ko‘rib, o‘yinlarda ov qiluvchi rollarni bajarishgan. Bu ularning ovchilikka tayyorlanishiga olib kelgan [4].

b) Og‘zaki an’analarga asoslangan tarbiya

Bola ongiga:

- rivoyatlar;
- afsonalar;
- qissalar orqali axloqiy tushunchalar singdirilgan.

Misol keltiradigan bo‘lsak, “Bahodir qahramon” haqidagi qabila afsonalari jasurlik, sabr-toqat, vatanparvarlik kabi sifatlarni targ‘ib qilgan [5].

b) Jamoaviy tarbiya shakli

Tarbiya uchun alohida shaxs emas, balki butun qabila mas’ul edi. Katta yoshdagilar bolalarga:

- ov qilishni;
- mehnat qilishni;
- oila boshqarishni;
- qabila qadriyatlarini o‘rgatgan.

Bu usul bugungi ijtimoiy tarbiya konsepsiyasining dastlabki ko‘rinishlaridan biri sifatida qaraladi [6].

c) Jismoniy va ma’naviy tayyorgarlik uyg‘unligi

Farzand tarbiyasida:

- qattiq mehnat;
- bardoshlilik;
- kuchli iroda;

- jangovar harakatlarga tayyorgarlik asosiy o‘rin egallagan.

Ayniqsa erkak bolalar jang, ov va yurishlar orqali tayyorlangan bo‘lsa, qizlar esa oilaviy ishlar, bola parvarishi va jamiyatda ayolning o‘rniga mos ravishda o‘rgatilgan [7].

Qabila jamiyatida bolalar jinsiy ajratilgan holda tarbiyalangan:

- o‘g‘il bolalar jangga, ovga tayyorlangan;
- qizlar esa oilaviy hayot, mehmondo‘stlik, hunarmandchilikka;
- bu jarayon hayotiy ehtiyojlar asosida shakllangan bo‘lib, har bir jins vakili o‘z o‘rnini to‘liq egallashi kerak edi.

Ko‘plab urf-odatlar, ya’ni balog‘atga yetish marosimlari**,** to‘ylardagi rollar**,**mavsumiy bayramlarkabilar bolani jamiyatga tayyorlashning muhim vositasi bo‘lgan.

Misol uchun, ba’zi qabilalarda o‘g‘il bola ilk bor ovdan hayvon olib kelsa, u balog‘atga yetgan hisoblangan va unga mustaqil qaror huquqi berilgan.

Garchi bu qabila davri tarbiyasida maktab, pedagog mavjud bo‘lmasa-da, qabila davridagi tarbiyaviy jarayonda quyidagilar inobatga olingan:

- yagona ijtimoiy tizim sifatida faoliyat ko‘rsatilgan;
- jamoaviy mas’uliyatlar o‘rgatilgan;
- milliy qadriyat va urf-odatlarga asos solingan.

Tarbiyaning shakllari qabila jamiyatida bolaning yoshiga qarab ham farqlangan. Bu esa, masalan, tarbiya tizimi ichida tabiiy ravishda bosqichma-bosqich rivojlanganlikni ko‘rsatadi [3].

0–6 yosh – onaning va ayollar guruhining g‘amxo‘rligi ostida bo‘lgan, bolaga asosan jismoniy ehtiyojlar asosida parvarish berilgan.

7–12 yosh – bolalar kuchli ijtimoiylashtirish bosqichiga kirgan, bu yerda ular kattalarning mehnat jarayonida faol qatnashgan.

13 yoshdan yuqori – bola balog‘atga yetgan hisoblanib, u to‘laqonli qabila a’zosi sifatida tan olingan va jamiyatda o‘ziga xos vazifalarni bajargan.

Bu yondashuv, aslida, bugungi bosqichli tarbiya modelining ildizi hisoblanadi.

Qabila davrida bolalar uchun tarbiya alohida ajratilmagan, u mehnat faoliyatining bir qismi sifatida amalga oshirilgan. Bola tarbiyasi:

- hayvon boqish;
- ov qilishga tayyorlanish;
- o‘tin terish;
- suv tashish kabi kundalik faoliyatlar orqali olib borilgan.

Bu esa, tarbiyaning hayot bilan bevosita bog‘liq tabiatini ko‘rsatadi. Ayniqsa, jismoniy kuch, sabr-toqat, ishonch va mas’uliyat kabi sifatlar bolalarda aynan mehnat orqali shakllangan.

Eng qadimgi davrda ayollar va erkaklar turli funksiyalarni bajargani bois, tarbiyaviy ta’sirlari ham turlicha bo‘lgan, masalan:

Ayollar bolalarga mehr-shafqat, sabr, parvarish, urf-odatlarni singdirgan bo‘lsa, erkaklar esa, jasurlik, mehnatga layoqatlilik, kuch va himoya tuyg‘usini o‘rgatishgan. Bu farq bugungi genderga asoslangan tarbiya uslublarining ildizlarini ochib beradi.

Qabila davri bolalari, axloqiy qadriyatlar va tabiatga hurmat asosida tarbiyalangan:

- tabiatlarni ota-ona sifatida qabul qilgan;
- daraxtlarni kesmaslik, hayvonni o‘ldirishdan oldin ruxsat so‘rash kabi urf-odatlar orqali tabiatga hurmat bilan qarashni o‘rganishgan.

Bu tarbiya orqali insonning tabiat bilan uyg‘un yashashi ta’minlangan. Bu esa, bugungi ekologik pedagogika bilan uyg‘unlashadi [8].

Xulosasi fatida shuni aytishimiz mumkinki, qabila davrida tarbiya tabiiy, hayotiy, jamoaviy va og‘zaki asoslarda olib borilgan. Bu davr tarbiyasi, insoniyatning eng qadimiy, lekin shu bilan birga eng puxta va chuqur ijtimoiy tizimlaridan biri bo‘lgan. Taklif sifatida esa, bugungi kunning ijtimoiy pedagoglari ana shu ildizlarga tayanib, jamoaviylik, milliy qadriyatlar va tabiatga uyg‘unlikka asoslangan tarbiya konsepsiyalarini ishlab chiqishlari zarur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston – yangi taraqqiyot bosqichida”. – T.: Fan, 2021.
2. Malinovskiy B. “Odat va qonun”, Moskva, 1981.
3. Sharipov A. *Ibtidoiy jamiyat pedagogikasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
4. To‘xtayev Sh. *Tarbiya tarixining qadimiy bosqichlari*. – Samarqand, 2012.
5. Karimov R. *Afsonalar orqali axloqiy tarbiya*. – Buxoro, 2016.
6. Nasriddinov H. *Jamoaviy tarbiya an’analari*. – Farg‘ona, 2014.
7. Qodirov A. *Ibtidoiy jamiyatda gender va tarbiya*. – Toshkent, 2018.
8. Muminov U. *Ijtimoiy pedagogika asoslari*. – Toshkent: Fan, 2021.

UDK 373.5:372.881

МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ СТАРШИХ КЛАССОВ В УЗБЕКСКОЙ ШКОЛЕ

Сафарова Замира Михлиевна,
старший преподаватель кафедры «Методика преподавания языков»
центра педагогического мастерства
Сурхандарьинской области

Аннотация. В статье рассматривается проблема формирования лингвокультурной компетенции учащихся старших классов узбекской школы в условиях поликультурного образовательного пространства. Обосновывается актуальность интеграции языкового и культурного компонентов обучения, раскрывается сущность понятия «лингвокультурная компетенция», а также предлагается авторская модель её формирования. Модель включает целевой, содержательный, процессуально-деятельностный и результативно-оценочный компоненты и ориентирована на развитие коммуникативной личности учащегося, способной к межкультурному взаимодействию. В статье описаны основные педагогические условия реализации модели, методы и формы работы, а также ожидаемые результаты.

Ключевые слова: лингвокультурная компетенция, межкультурная коммуникация, обучение русскому языку, узбекская школа, старшие классы, педагогическая модель.

O‘ZBEK MAKTABIDA YUQORI SINFLAR O‘QUVCHILARIDA LINGVOKULTUROLOGIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH MODELI

Annotatsiya. Maqolada ko‘p madaniyatli ta’lim makonida o‘zbek maktabining yuqori sinf o‘quvchilarida lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirish muammosi yoritilgan. Til va madaniyat komponentlarini o‘qitishda integratsiyalash zarurati asoslab berilgan, “lingvokulturologik kompetensiya” tushunchasining mazmuni ochib berilgan hamda uni shakllantirishning mualliflik modeli taklif etilgan. Mazkur model maqsadli, mazmuniy, jarayonli-faoliyatli va natijaviy-baholovchi komponentlarni o‘z ichiga oladi hamda madaniyatlararo muloqotga qodir bo‘lgan kommunikativ shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Maqolada modelni amalga oshirishning asosiy pedagogik shart-sharoitlari, ish usullari va shakllari, shuningdek, kutilayotgan natijalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologik kompetensiya, madaniyatlararo kommunikatsiya, rus tilini o‘qitish, o‘zbek maktabi, yuqori sinflar, pedagogik model.

A MODEL FOR DEVELOPING LINGUOCULTURAL COMPETENCE OF SENIOR SCHOOL STUDENTS IN UZBEK SCHOOLS

Abstract. The article examines the problem of developing linguocultural competence of senior school students in Uzbek schools within a multicultural educational environment. The relevance of integrating linguistic and cultural components in language teaching is substantiated. The essence of the concept of "linguocultural competence" is revealed, and an author's model for its development is proposed. The model includes goal-oriented, content-based, procedural-activity, and result-evaluative components and is aimed at developing a communicative personality capable of effective intercultural interaction. The article describes the main pedagogical conditions for implementing the model, teaching methods and forms, as well as the expected outcomes.

Key words: linguocultural competence, intercultural communication, teaching the Russian language, Uzbek school, senior grades, pedagogical model.

Современная система образования в Республике Узбекистан ориентирована на подготовку личности, способной эффективно функционировать в условиях глобализации, активного межкультурного диалога и устойчивого многоязычия. В этих условиях особую значимость приобретает обучение иностранным языкам и языкам межнационального общения, прежде всего русскому языку, который продолжает выполнять важную функцию средства межкультурной коммуникации, профессионального взаимодействия и академической мобильности.

В контексте обновления содержания образования акцент смещается с простого усвоения языковых знаний на формирование ключевых компетенций учащихся, обеспечивающих их успешную социализацию и конкурентоспособность в современном обществе. В старших классах общеобразовательной школы возрастает роль не только языковой, но и культурной подготовки обучающихся, поскольку именно на этом этапе происходит формирование мировоззренческих установок, ценностных ориентаций и коммуникативной идентичности личности.

Практика обучения показывает, что владение лексико-грамматическими нормами языка само по себе не гарантирует успешной и адекватной коммуникации. Затруднения в общении нередко возникают вследствие непонимания культурных смыслов, национально обусловленных ценностей, норм речевого и неречевого поведения носителей языка. В связи с этим особую актуальность приобретает задача формирования лингвокультурной компетенции, обеспечивающей осознанное, уместное и эффективное использование языка в различных социокультурных ситуациях.

Цель данной статьи заключается в разработке и описании модели формирования лингвокультурной компетенции учащихся старших классов в

узбекской школе, ориентированной на интеграцию языкового и культурного компонентов обучения русскому языку.

В научной литературе лингвокультурная компетенция рассматривается как интегративное качество личности, включающее знания языковых единиц с национально-культурной семантикой, представления о культуре, традициях и ценностях страны изучаемого языка, а также умения и навыки использования этих знаний в процессе реального общения. По мнению В. В. Воробьёва, лингвокультурная компетенция формируется на стыке языка и культуры и отражает способность личности к интерпретации культурных смыслов, закодированных в языковых знаках, текстах и дискурсе.

Для учащихся узбекской школы формирование лингвокультурной компетенции предполагает не только усвоение культурных реалий изучаемого языка, но и их сопоставление с родной культурой, осознание культурного многообразия мира, развитие толерантного и уважительного отношения к иной языковой картине мира. Такой подход способствует воспитанию личности, готовой к межкультурному взаимодействию и диалогу культур.

Старший школьный возраст характеризуется развитием абстрактного и критического мышления, рефлексии, способности к анализу, сравнению и обобщению. Эти возрастные особенности создают благоприятные психолого-педагогические условия для осмысленного освоения культурных концептов, национально маркированной лексики, фразеологических единиц, а также текстов художественной, публицистической и медийной направленности.

В то же время учащиеся старших классов ориентированы на практическую значимость обучения и его связь с будущей профессиональной деятельностью. Это обусловливает необходимость использования в образовательном процессе коммуникативных, проблемно-ориентированных и проектных методов обучения, позволяющих моделировать реальные социокультурные ситуации, стимулировать речевую активность учащихся и формировать у них опыт продуктивного межкультурного общения.

Описание модели формирования лингвокультурной компетенции.

Целевой компонент модели.

Целью модели является формирование у учащихся старших классов устойчивой лингвокультурной компетенции, обеспечивающей готовность к межкультурному общению на русском языке.

Задачи модели:

- формирование знаний о культуре, традициях, ценностях русскоязычного сообщества;
- развитие умений интерпретировать культурно обусловленные языковые единицы;
- воспитание уважительного отношения к иной культуре и языку;
- развитие коммуникативных умений в типичных и нестандартных социокультурных ситуациях.

Содержательный компонент модели.

Содержательный компонент включает отбор языкового и культурного материала, отражающего национально-культурную специфику русского языка. К нему относятся:

- лексика с культурной семантикой;
- фразеологизмы и пословицы;
- тексты художественной, публицистической и медийной направленности;
- материалы, отражающие традиции, быт, нормы речевого этикета.

Особое внимание уделяется сопоставлению русской и узбекской культур, что способствует более глубокому пониманию изучаемого материала.

Процессуально-деятельностный компонент.

Данный компонент предполагает использование активных и интерактивных методов обучения:

- коммуникативные игры и ролевые ситуации;
- анализ культурных кейсов;
- проектная деятельность;
- работа с аутентичными текстами и медиаматериалами;
- дискуссии и дебаты.

Важную роль играет организация диалога культур, при котором учащиеся выступают не пассивными потребителями информации, а активными участниками образовательного процесса.

Результативно-оценочный компонент.

Оценка уровня сформированности лингвокультурной компетенции осуществляется по следующим критериям:

- когнитивный (знания о культуре и языке);
- деятельностный (умение применять знания в общении);
- ценностно-мотивационный (отношение к иной культуре);
- рефлексивный (осознание собственного опыта межкультурного общения).

Используются такие формы контроля, как портфолио, проекты, творческие задания, наблюдение и самооценка.

Эффективность реализации модели формирования лингвокультурной компетенции во многом зависит от создания комплекса педагогических условий, обеспечивающих целостность и системность образовательного процесса. Прежде всего, важным условием является целенаправленная интеграция языкового и культурного компонентов обучения, при которой культура рассматривается не как дополнительный элемент, а как неотъемлемая часть содержания языкового образования.

Существенную роль играет учет возрастных и психологических особенностей учащихся старших классов. На данном этапе обучения учащиеся способны к аналитическому осмыслению культурных различий, сопоставлению языковых картин мира, формированию собственной позиции

в межкультурном диалоге. Это предполагает использование заданий проблемного характера, направленных на интерпретацию текстов, анализ речевых ситуаций, обсуждение культурных стереотипов.

Следующим педагогическим условием является активное использование межпредметных связей. Интеграция уроков русского языка с историей, литературой, обществознанием способствует расширению культурного кругозора учащихся и формированию целостного представления о социокультурном контексте функционирования языка. Особенно эффективными являются совместные проекты, посвящённые культурному наследию, традициям и современным реалиям русскоязычного и узбекского обществ.

Не менее значимым условием является применение аутентичных учебных материалов: фрагментов художественных произведений, публицистических статей, видеоматериалов, интернет-ресурсов. Аутентичные тексты позволяют учащимся познакомиться с живым языком, актуальными культурными реалиями и нормами речевого поведения, что способствует повышению мотивации и практической направленности обучения.

Отдельного внимания заслуживает профессиональная подготовка учителя. Педагог должен обладать не только высоким уровнем языковой и методической компетентности, но и готовностью к организации межкультурного взаимодействия в классе, владеть современными образовательными технологиями, уметь создавать атмосферу сотрудничества и диалога. Повышение квалификации учителей, участие в методических семинарах и обмен опытом являются важными факторами успешной реализации модели.

Таким образом, совокупность обозначенных педагогических условий обеспечивает эффективность формирования лингвокультурной компетенции учащихся старших классов в узбекской школе и способствует достижению планируемых образовательных результатов.

Эффективность реализации модели обеспечивается следующими педагогическими условиями:

- интеграция языкового и культурного компонентов обучения;
- опора на межпредметные связи;
- использование аутентичных материалов;
- создание коммуникативно насыщенной образовательной среды;
- повышение методической готовности учителя.

Предложенная модель формирования лингвокультурной компетенции учащихся старших классов узбекской школы представляет собой целостную систему, ориентированную на развитие коммуникативной и культурной личности. Реализация данной модели способствует не только повышению уровня владения русским языком, но и формированию готовности учащихся к межкультурному диалогу, что соответствует современным требованиям образования.

Перспективы дальнейших исследований связаны с экспериментальной проверкой эффективности модели и разработкой методических рекомендаций для учителей.

Список литературы:

1. Воробьёв В.В. Лингвокультурология: теория и методы. — М.: Академия, 2016.
2. Сафонова В.В. Социокультурный подход к обучению иностранным языкам. — М.: Высшая школа, 2019.
3. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. — М.: Слово, 2020.
4. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. — М.: Просвещение, 2018.
5. Халеева И.И. Основы теории обучения межкультурной коммуникации. — М.: РУДН, 2017.
Государственный образовательный стандарт общего среднего образования Республики Узбекистан. — Ташкент, 2022

UDK 81'373.7:81'42:81'25

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ МАРКЕРЫ И ОЦЕНОЧНОСТЬ В ПАРЕМИЯХ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АСПЕКТ

Рахманова Севинч Ганиевна,
преподаватель кафедры узбекского языка и преподавания языков факультета преподавания языков Гулистанского педагогического института

Аннотация. Статья посвящена сопоставительному анализу паремий как компактных текстов, в которых одновременно фиксируются культурно значимые смыслы и оценочные установки сообщества. В центре внимания находятся лингвокультурные маркеры, то есть языковые признаки, указывающие на национально специфические реалии, ценности, нормы и модели поведения, а также оценочность как механизм социального регулирования через похвалу, порицание, предупреждение и санкцию.

Ключевые слова: паремия, пословица, лингвокультурология, маркер, аксиология, оценочность, национальная картина мира.

PAREMIYA (MAQOL VA MATALLAR)DA LINGVOMADANIY MARKERLAR VA BAHOLOVCHANLIK: QIYOSIY ASPEKT

Annotatsiya. Mazkur maqola madaniy jihatdan muhim ma'nolar va jamiyatning baholovchi qarashlari mujassam bo'lgan ixcham matnlar sifatidagi paremiyalarni qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot markazida lingvomadaniy markerlar, ya'ni milliy xususiyatga ega bo'lgan realiyalar, qadriyatlar, me'yorlar va xulq-atvor modellarini ifodalovchi til birliklari, shuningdek, ijtimoiy tartibga solish mexanizmi sifatida baholovchanlik — maqtash, qoralash, ogohlantirish va sanksiya orqali namoyon bo'ladigan hodisa o'rganiladi.

Kalit so'zlar: paremiya, maqol, lingvomadaniyatshunoslik, marker, aksiologiya, baholovchanlik, milliy dunyoqarash manzarasi.

LINGUOCULTURAL MARKERS AND EVALUATIVITY IN PROVERBS: A COMPARATIVE ASPECT

Abstract. This article is devoted to a comparative analysis of paremias as compact yet semantically multi-layered texts that simultaneously encode culturally significant meanings and evaluative attitudes of a community. The study focuses on linguocultural markers, that is, linguistic features reflecting nationally specific realities, systems of values, social norms, and behavioral models. In addition, evaluativity is interpreted as a mechanism of social regulation, manifested through praise, condemnation, warning, and sanction. The article highlights the role of

paremias in shaping and transmitting the national worldview from generation to generation, drawing on linguocultural and axiological approaches.

Key words: paremia, proverb, linguoculturology, marker, axiology, evaluativity, national worldview.

Паремии в языке выполняют роль своеобразной культурной памяти, где социальный опыт закрепляется в устойчивой, легко воспроизводимой форме. Пословица или поговорка не просто называет явление, а дает ему оценку, задает норму и предлагает готовую интерпретацию события. В этом проявляется их аксиологическая природа: через паремии сообщество транслирует представления о должном и недолжном, полезном и вредном, достойном и постыдном. Именно поэтому паремии удобны для лингвокультурного анализа: они одновременно являются микротекстами и знаками культуры, а их семантика включает не только предметный смысл, но и коннотативный, ценностный план [1].

Лингвокультурные маркеры в паремиях проявляются особенно отчетливо, поскольку образность пословицы нередко опирается на локальные реалии, историческую память, бытовые предметы, типичные социальные институты и религиозно этические нормы. В русской традиции такими маркерами могут быть хлеб, рубль, изба, каша, барин, а также устойчивые представления о труде, доле, чести и совести. В узбекской традиции маркерный ряд часто связан с понятиями el, mehmon, non, otaona, mahalla, odob, baraka и другими культурными символами, отражающими коллективистские и этико нормативные установки. Сравнение паремий разных языков показывает, что ценности во многом универсальны, однако способы их кодирования в образах и оценочных формулах заметно различаются, что требует аккуратного анализа без механического переноса смыслов из одной культуры в другую [2].

Лингвокультурологический подход рассматривает язык как форму существования культуры, а устойчивые выражения и паремии как особо плотные носители культурных смыслов. В рамках этой традиции подчеркивается, что культурно значимые значения проявляются через систему концептов, символов, стереотипов и норм, закрепленных в языковых единицах и текстах [2]. Методологически важна идея о том, что маркеры культуры в языке не сводятся к этнографическим словам, они включают также оценочные схемы, типовые аргументы, модели поведения и коммуникативные сценарии, которые распознаются носителями как свои [3].

В исследованиях фразеологии и паремий особое место занимает понимание коннотации как сложной структуры, где оценочность является одним из ядровых компонентов. В семантической модели устойчивых единиц показано, что значение включает денотативный план и коннотативный, где сосуществуют оценка, образная мотивация и культурная обусловленность [1].

Это принципиально важно для паремий: пословица не просто сообщает факт, она предлагает интерпретацию и тем самым формирует социальное согласие относительно того, как следует понимать ситуацию.

Паремиология развивает представление о пословице как клишированном тексте с высокой степенью воспроизводимости и регулятивной силой. Паремии описываются как элементы паремиологического фонда, организованные по тематическим полям и функциональным задачам, включая нормирование поведения и передачу коллективного опыта [4]. Сопоставительная перспектива усиливает этот подход, поскольку позволяет увидеть, какие ценности выражаются сходно, а какие кодируются через специфические культурные образы и локальные реалии.

Аксиологический ракурс естественно связан с категорией языковой оценки. Оценка в языке понимается как способ соотнесения явления с системой норм и ценностей, а также как инструмент воздействия на адресата через одобрение, порицание, предупреждение и рекомендации [6]. В дискурсивной лингвистике аксиологическая составляющая связывается с типами языковой личности и культурными доминантами, которые проявляются в выборе аргументов, в жанровых предпочтениях и в устойчивых формулировках нормы [5].

Русское “Хлеб — всему голова” комментируется через реалии питания: хлеб выступает не просто едой, а символом достатка и основы жизни; оценка здесь положительная и нормативная (уважение к труду и к ресурсу), а прагматика — мягкое “воспитательное” напоминание. Узбекское “Nonnibosma (tepma) — nonuradi” *(«не наступай на хлеб — хлеб “накажет”»)* строится на сакрализации *non*: маркером выступает культурная установка о святости пищи; оценка выражена предупреждением и санкцией, причем косвенно, через образ возмездия. Русское “Копейка рубль бережёт” задает экономическую норму бережливости; маркер — денежная реальность (*рубль/копейка*), оценка — одобрение рационального поведения, а типичная функция — “поставить точку” в споре о тратах. Узбекская функциональная пара “Yuz so‘m puling bo‘lguncha, yuzta do‘sting bo‘lsin” *(«лучше сто друзей, чем сто сумов»)* показывает иной акцент: маркер — социальная ценность связи и поддержки, оценка — предпочтение отношений материальному, а прагматика — ориентация на коллективную взаимопомощь. В обоих языках ценность “разумного выбора” универсальна, но кодируется разными символами: в одном — монета, в другом — сеть отношений, что иллюстрирует ваш тезис о различии способов кодирования ценностей [2].

Русское “Яблоко от яблони недалеко падает” маркирует семью как институт передачи норм: маркер — родство, оценка чаще предупреждающая (ожидание повторения модели поведения), а прагматика — объяснение поступка через “семейный сценарий”. Узбекское “Ota-ona rozi — Xudo rozi” *(«довольны родители — доволен Бог»)* привязывает поведение к вертикали

авторитета: маркер — роль родителей и религиозно-этический горизонт, оценка — нормативная (одобрение послушания и уважения), функция — воспитательное закрепление модели “уважение = правильность”. Русское “Гость в дом — Бог в дом” задает этос гостеприимства через религиозную метафору; оценка — высокая похвала гостеприимству, а прагматика — легитимация затрат и хлопот ради гостя. Узбекское “Mehmon - otangdan ulug‘” *(«гость выше отца»)* усиливает ту же ценность, но делает акцент на максимальной этической обязательности приема: маркер — *mehmon* как социальная роль, оценка — безусловно положительная, функция — напомнить норму даже тогда, когда “неудобно”. Здесь особенно наглядно видно, что паремия работает как краткий социальный регламент: она не обсуждает, а предписывает, устанавливая границу допустимого и желательного поведения [4].

Паремия в данной статье понимается как устойчивый фольклорно разговорный жанр, обычно пословица или поговорка, функционирующий в речи как готовая формула интерпретации. Лингвокультурный маркер в паремии это языковой признак, который указывает на культурную принадлежность смысла: он может быть выражен конкретной реалией, символом, исторически обусловленной метафорой, религиозно этической формулой, нормой поведения или типичным социальным сценарием. Оценочность понимается как наличие в паремии положительной или отрицательной установки, направленной на поступок, качество личности, социальную роль или жизненную стратегию. Оценка может быть прямой, когда используются явно одобрительные или порицающие слова, и косвенной, когда оценка задается образом, противопоставлением, условием или итоговым выводом, который побуждает адресата принять норму как очевидную [6].

Сравнительный аспект предполагает сопоставление не отдельных слов, а смысловых комплексов. Для паремий особенно важно различать формальное сходство и функциональное соответствие. В двух языках могут существовать близкие по смыслу пословицы, но их образная база может быть различной: один язык опирается на сельскохозяйственную метафору, другой на морально этическую формулу или на бытовую деталь. Поэтому сопоставление целесообразно вести по нескольким критериям: тематическое поле, ось оценивания, тип культурного маркера, прагматическая функция и контекст употребления. Такой подход позволяет избежать поверхностной эквивалентности и точнее реконструировать ценностный смысл паремии как культурного знака [2]–[3].

Наиболее очевидный тип маркеров связан с реалиями и предметным миром. В русских паремиях часто встречаются образы хлеба и соли как символов достатка и гостеприимства, рубля как знака материального расчета, труда как основы благополучия. В узбекских паремиях столь же значимы образы non как символа святости еды и уважения к труду, mehmon как знак социальной этики гостеприимства, mahalla как метафора коллективной

ответственности и общественного контроля. Подобные элементы выполняют двойную функцию: они делают смысл наглядным и одновременно маркируют культурное пространство, в котором этот смысл считается самоочевидным.

Второй тип маркеров связан с социальными институтами и ролями. В русской паремиологии традиционно заметны модели семейной иерархии, ценность чести, уважение к старшим и ожидание справедливости как нормы общинной жизни. В узбекской паремиологии сильнее выражены нормы этикета и коллективной согласованности, поскольку социальная репутация личности тесно связана с оценкой семьи и окружения. В обоих случаях паремия выступает как краткий социальный регламент, где через оценку закрепляется желательная модель поведения, а через порицание обозначается граница допустимого [4].

Третий тип маркеров относится к культурным концептам и символам. В русских пословицах часто актуализируются концепты совесть, честь, доля, правда, где оценка привязана к внутренней моральной мере. В узбекских пословицах ярко представлены концепты odob, baraka, hurmat, sabr, где оценка связана с социальной гармонией, уважением и терпением как стратегией сохранения порядка. Эти различия не следует понимать как абсолютное противопоставление, поскольку оба культурных комплекса содержат и личностные, и коллективные ценности. Однако доминирующий фокус может различаться, что и проявляется в типичных образах и предпочтительных способах аргументации [5].

Четвертый тип маркеров связан с прагматикой и жанровыми сценариями. Паремия нередко употребляется не для описания, а для воздействия: она завершает спор, дает совет, мягко упрекает, оправдывает отказ, снижает напряжение или формирует согласие. В этом смысле культурным маркером становится не слово, а коммуникативная роль паремии как авторитетного аргумента. Такой аргумент воспринимается как голос традиции, а значит обладает повышенной убедительностью, что напрямую связано с оценочностью и аксиологической силой жанра [1].

Паремии являются удобным объектом лингвокультурного и аксиологического анализа, поскольку в них концентрируются культурные маркеры и оценочные установки, регулирующие поведение и интерпретацию жизненных ситуаций. Сравнительный подход позволяет увидеть двойную природу паремий: с одной стороны, они отражают универсальные человеческие нормы, связанные с трудом, осторожностью, честностью и социальным взаимодействием, с другой стороны, они закрепляют национально специфические способы аргументации и образности, которые выражают культурные концепты и социальные сценарии. Лингвокультурныемаркеры проявляются в реалиях, символах, институциональных ролях и прагматике пословичного аргумента, а оценочность реализуется через конструктивные схемы, противопоставления, причинно следственные формулы и нормативные выводы.

Список литературы:

1. Телия В. Н.. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. Москва: Языки русской культуры, 2016. 288 с.
2. Маслова В. А.. Лингвокультурология: учебное пособие. М.: Академия, 2011. 208 с.
3. Воробьёв В. В.. Лингвокультурология: теория и методы. М.: Изд-во Российский университет дружбы народов, 2017. 331 с.
4. Пермяков Г. Л.. От поговорки до сказки: заметки по общей теории клише. М.: Наука, 2010. 240 с.
5. Карасик В. И.. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград: Перемена, 2002. 477 с.
6. Арутюнова Н. Д.. Язык и мир человека. 2-е изд., испр. М.: Яз.рус. культуры, 2019. 895 с.

UDK 37.015.31+37.02:378

PEDAGOGIKA FANLARINI O'QITISHDA "4K" MODELIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Abdusattarova Sarvinoz,
Oriental universiteti Samarqand kampusi "Uzluksiz ta'lim pedagogikasi" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XXI asr talablari asosida shakllangan "4K" modelini (kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, hamkorlik) pedagogika fanlarini o'qitish jarayoniga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim tizimini isloh qilish borasidagi davlat siyosati, "4K" modelining nazariy asoslari hamda uni amalga oshirish yo'llari yoritilgan. Pedagogika fanlarini o'qitishda "4K" modelidan foydalanish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini egallashga va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qilishi o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: "4K" modeli, tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, hamkorlik, pedagogika fanlari, oliy ta'lim, innovatsion, kasbiy kompetensiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МОДЕЛИ «4К» В ПРЕПОДАВАНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН

Аннотация. В данной статье проанализированы педагогические условия внедрения модели «4К» (критическое мышление, креативность, коммуникация, сотрудничество), сформированной на основе требований XXI века, в процесс преподавания педагогических дисциплин. Освещены государственная политика в области реформирования системы образования, теоретические основы модели «4К», а также пути её практической реализации. Показано, что использование модели «4К» в преподавании педагогических дисциплин способствует развитию профессиональных компетенций студентов, овладению современными образовательными технологиями и подготовке конкурентоспособных кадров.

Ключевые слова: модель 4К, критическое мышление, креативность, коммуникация, сотрудничество, педагогические дисциплины, высшее образование, инновации, профессиональная компетентность.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR USING THE "4C" MODEL IN TEACHING PEDAGOGICAL DISCIPLINES

Abstract. This article analyzes the pedagogical conditions for implementing the "4C" model (critical thinking, creativity, communication, and collaboration), developed in accordance with the requirements of the 21st century, in the process of

teaching pedagogical disciplines. The paper highlights state educational reform policies, the theoretical foundations of the “4C” model, and the ways of its practical implementation. It is demonstrated that the use of the “4C” model in teaching pedagogical disciplines contributes to the development of students’ professional competencies, mastery of modern educational technologies, and the training of competitive specialists.

Key words: 4C model, critical thinking, creativity, communication, collaboration, pedagogical disciplines, higher education, innovation, professional competence.

Zamonaviy jahon ta’lim tizimida talaba-yoshlarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimidan nafaqat bilim berish, balki shaxsni murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda samarali faoliyat yurita oladigan, mustaqil fikrlovchi va ijodkor mutaxassis sifatida tayyorlashni talab etmoqda. Shu bois, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda ta’lim mazmuni kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqilmoqda.

Mamlakatimizda ham ushbu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida bu masalaga alohida e’tibor qaratilib, quyidagicha ta’kidlangan: “Hozirgi vaqtda yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va sun’iy intellekt ta’sirida dunyoda ish o‘rinlarining soni, shakli va mazmuni keskin o‘zgarmoqda… Endi mamlakatimiz mehnat bozori mutlaqo yangi arxitektura asosida — kasb, malaka, texnologiya va ta’limni birlashtiradigan yagona mexanizm sifatida ishlashi zarur” [1]. Ushbu fikrlar ta’lim tizimi oldiga mehnat bozori talablariga moslashuvchan, innovatsion fikrlaydigan va zamonaviy ko‘nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash vazifasini qo‘ymoqda.

Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish uchun oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda ulardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, talabalarda mustaqil ta’lim olish, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va ijodiy yondashuvni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda jahon ta’lim amaliyotida keng qo‘llanilayotgan “4K” modeli talabalarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmi sifatida tan olinmoqda. Mazkur model to‘rtta asosiy kompetensiyani o‘z ichiga oladi: kommunikatsiya (muloqot ko‘nikmalari), hamkorlik (jamoada ishlash qobiliyati), kritik fikrlash (tahliliy va tanqidiy tafakkur) hamda kreativlik (ijodiy yondashuv va innovatsion fikrlash). Ushbu ko‘nikmalar shaxsning kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishi va ijtimoiy moslashuvini ta’minlovchi muhim omillar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’kidlanishicha, “ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri shaxsning intellektual,

ijodiy va jismoniy rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratish hamda uni hayot faoliyatiga tayyorlashdan iborat” [2]. Ushbu normativ-huquqiy asos ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni, xususan, XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi.

Bo‘lajak pedagogika fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularni zamonaviy ta’lim metodologiyasi bilan qurollantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni egallash va amaliy pedagogik faoliyatga tayyorlash ustuvor vazifalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan, pedagogika fanlarini o‘qitishda “4K” modelini qo‘llash dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu bois, oliy ta’lim tizimida pedagogika fanlarini o‘qitishda “4K” modelini joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish, uning metodik imkoniyatlarini aniqlash hamda ta’lim jarayonidagi samaradorligini oshirish yo‘llarini belgilash ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ma’lumki, “4K” modeli ilk bor AQSh ta’lim tizimida Partnership for 21st Century Learning (P21) tashkiloti tomonidan XXI asr ko‘nikmalarini aniqlash va rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan. Ushbu model zamonaviy iqtisodiyot va jamiyat ehtiyojlariga mos, raqobatbardosh, moslashuvchan va innovatsion kadrlar tayyorlash konsepsiyasiga asoslanadi. Bugungi kunda mazkur model ko‘plab davlatlarning ta’lim siyosatida muvaffaqiyatli joriy etilmoqda va milliy ta’lim tizimlariga moslashtirilmoqda.

Tanqidiy fikrlash shaxsning mavjud ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish, ularni baholash, dalillarga asoslangan mustaqil xulosalar chiqarish hamda mantiqiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi. Pedagogika fanlarini o‘qitishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayon pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish, turli pedagogik yondashuv va konsepsiyalarni qiyosiy o‘rganish hamda tanqidiy baholash, ilmiy-pedagogik manbalarni tahlil qilish metodikasini egallash, muammoli vaziyatlarni bartaraf etishda mantiqiy fikrlash usullarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Natijada talabalarda reflektiv tafakkur, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash va pedagogik qarorlarning oqibatlarini oldindan baholash qobiliyatlari rivojlanadi.

Kreativlik esa ijodiy fikrlash, noan’anaviy yondashuvlar asosida yangi g‘oyalar va innovatsion yechimlar ishlab chiqish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Pedagogik jarayonda kreativlik o‘qituvchining ta’lim jarayonini loyihalash va tashkil etishdagi ijodiy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Xususan, yangi o‘quv metodlarini ishlab chiqish va ularni tajribadan o‘tkazish, pedagogik muammolarga standart bo‘lmagan yechimlar topish, ta’lim texnologiyalarini ijodiy qo‘llash, o‘quv materiallarini innovatsion va interfaol shakllarda taqdim etish orqali talabalar kreativ tafakkurini rivojlantirish mumkin. Kreativlik talabalarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradi va ularning pedagogik faoliyatda moslashuvchan bo‘lishini ta’minlaydi.

Kommunikatsiya samarali muloqot qilish, o‘z fikrini aniq, izchil va tushunarli tarzda ifodalash hamda turli auditoriyalar bilan samarali ishlash ko‘nikmalarini o‘z

ichiga oladi. Pedagogika fanlarini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish og‘zaki va yozma nutqni takomillashtirish, pedagogik jarayonda samarali muloqot texnikalaridan foydalanish, prezentatsiya va nutq madaniyatini rivojlantirish, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim jarayonida samarali muloqot o‘rnatishiga va pedagogik ta’sirchanlikni oshirishiga xizmat qiladi.

Hamkorlik jamoaviy ishlash, umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilish hamda boshqalar bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyatini anglatadi. Pedagogik tayyorgarlik jarayonida hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish guruhiy loyihalarda ishtirok etish tajribasini shakllantirish, jamoa ichida rollarni taqsimlash va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, turli soha mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlash, muloqot va kelishuvga erishish usullarini o‘rganish orqali ta’minlanadi. Hamkorlik ko‘nikmasi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy muhitda samarali faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

“4K” modeli (kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlik) bo‘yicha xalqaro va mahalliy miqyosda keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Quyida mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarning nazariy jihatdan tahlili keltiriladi.

Ta’lim tizimiga “4K” modelini joriy etish masalalari ko‘plab xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, Beswick va Fraser (2019) o‘z tadqiqotlarida ta’lim muassasalarida “4K” ko‘nikmalarini shakllantirish samaradorligi o‘qituvchilarning ushbu ko‘nikmalar mazmunini qanchalik chuqur tushunishi va ularni o‘quv materiallariga integratsiyalash qobiliyatiga bevosita bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar. Mualliflar “4K” ko‘nikmalarining uzoq muddatli ijobiy ta’sirini alohida qayd etib, ularning talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishidagi ahamiyatini asoslab berganlar.

2024-yilda Indoneziya oliy ta’lim tizimida o‘tkazilgan tadqiqot (ScienceDirect ma’lumotlari asosida) natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilarning o‘quv dasturlari va baholash tizimlarida “4K” ko‘nikmalarini integratsiyalash darajasi “kompetensiyaga yetmagan” hamda “kompetensiyaga yaqinlashayotgan” bosqichlarda baholangan. Ushbu natijalar o‘qituvchilarning “4K” kompetensiyalarini yetarli darajada anglab yetmaganligini ko‘rsatadi. Tadqiqot mualliflari o‘qituvchilarda mazkur kompetensiyalarni shakllantirish va ularni o‘quv jarayoniga samarali joriy etish uchun maxsus kasbiy tayyorgarlik va uzluksiz malaka oshirish tizimi zarurligini ta’kidlaganlar.

Chen va Zhang (2019), Lai va boshqalar (2015) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bo‘lajak o‘qituvchilarning XXI asr talablari, jumladan “4K” ko‘nikmalari asosida ta’lim olish va pedagogik faoliyatga tayyorlanish darajasi yetarli emasligi aniqlangan. Mazkur tadqiqotlar ta’lim dasturlarini qayta ko‘rib chiqish va ularni zamonaviy kompetensiyalar bilan boyitish zaruratini asoslaydi.
Shuningdek, Chikiwa va boshqa olimlar (2019) o‘z tadqiqotlarida pedagogika yo‘nalishi o‘qituvchilarining “4K” ko‘nikmalarini, xususan matematika ta’limi

jarayonida samarali qo‘llash uchun zarur bo‘lgan kontent va pedagogik bilimlarni egallashda muayyan qiyinchiliklarga duch kelayotganligini aniqlaganlar. Bu holat pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida “4K” modelini tizimli va metodik jihatdan asoslangan holda joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Pedagog-olim M.A. Salybekova hamda uning hammualliflari xorijiy til o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida “4K” modelini integratsiyalash masalalarini chuqur o‘rganishgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “4K” modelining barcha to‘rtta komponenti — kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlik — chet tilini o‘rganish va o‘qitish jarayonida muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligi ilmiy asoslangan. Ayniqsa, kritik fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishi talabalarning til materiallarini ongli o‘zlashtirishi, nutqiy vaziyatlarni tahlil qilishi va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida e’tirof etilgan. Mualliflar fikricha, tanqidiy fikrlash til pedagogikasini takomillashtirish, o‘qitish metodlarini yangilash va ta’lim samaradorligini oshirishda yetakchi rol o‘ynaydi.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida ham “4K” modeli va unga yaqin kompetensiyaviy yondashuvlar bo‘yicha qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, pedagog olimlar J.G‘. Yo‘ldoshev va S.A. Usmonovlarning “Pedagogik texnologiya asoslari” nomli asarida zamonaviy ta’lim texnologiyalarining nazariy va amaliy jihatlari tizimli ravishda yoritilgan. Mualliflar ta’lim jarayonini loyihalash, interfaol metodlardan foydalanish, talabalarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratganlar. Ushbu asarda bayon etilgan g‘oyalar “4K” modelining metodologik asoslari bilan bevosita uyg‘unlashadi [4].

Pedagog olima O. Musurmonova o‘zining “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar” nomli o‘quv qo‘llanmasida ta’lim jarayonini tashkil etishning innovatsion usullari, jumladan muammoli ta’lim, loyihaviy faoliyat, interfaol metodlar hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalarini keng va batafsil yoritgan. Muallifning ilmiy qarashlarida talabalarni faollashtirish, ularning ijodiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogik faoliyatning muhim sharti sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuvlar “4K” modelining mazmun-mohiyati bilan uzviy bog‘liqdir [6].

Shuningdek, tadqiqotchilar A. Xoliqov va N. Shermuhamedovalarning ilmiy izlanishlarida ham talabalarda mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Mualliflar ta’lim jarayonida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va amaliy topshiriqlardan foydalanish orqali talabalar ijodiy salohiyatini oshirish mumkinligini ilmiy asoslab berganlar [7;8]. Ushbu tadqiqotlar “4K” modelini milliy ta’lim tizimiga moslashtirish va uni pedagogika fanlarini o‘qitishda samarali qo‘llash uchun muhim nazariy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mavjud ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘rganish va tahlil qilish quyidagi umumlashgan xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Birinchidan, “4K” modeli (kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlik) xalqaro miqyosda e’tirof etilgan va keng qo‘llanilayotgan zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri bo‘lib, u XXI asrning ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik talablari bilan uzviy uyg‘unlashadi. Mazkur model talabalarda nafaqat bilim va malakalarni, balki kasbiy faoliyatda muhim bo‘lgan universal kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, “4K” modelini ta’lim tizimiga samarali integratsiya qilish o‘qituvchilarning maxsus kasbiy tayyorgarligini taqozo etadi. Bunda o‘qituvchilarning mazkur model mazmunini chuqur anglashlari, uni o‘quv jarayoniga metodik jihatdan to‘g‘ri singdira olishlari, shuningdek, o‘quv dasturlari va baholash tizimlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga keladi. An’anaviy bilimni baholash usullari “4K” ko‘nikmalarini to‘liq aks ettira olmaydi, shu bois muqobil baholash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Uchinchidan, pedagogik kadrlarni tayyorlashda “4K” modelini qo‘llash bo‘yicha xalqaro tajriba mavjud bo‘lib, u ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq mazkur tajribalarni bevosita ko‘chirib qo‘llash emas, balki har bir mamlakatning milliy ta’lim tizimi, ijtimoiy-madaniy sharoiti va ta’lim mazmuni xususiyatlaridan kelib chiqib, moslashtirilgan va lokal kontekstga yo‘naltirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston ta’lim tizimida “4K” modelidan kompleks va tizimli foydalanish masalalari yetarlicha chuqur ilmiy jihatdan o‘rganilmagan. Shu bilan birga, mazkur modelning asosiy komponentlari — kritik fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalari — zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlar doirasida alohida e’tirof etilmoqda. Bu esa “4K” modelini milliy ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish uchun muayyan ilmiy-metodik zamin mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

Beshinchidan, “4K” ko‘nikmalarini baholash va ularning rivojlanish dinamikasini monitoring qilish uchun maxsus mezonlar, indikatorlar hamda diagnostik vositalarni ishlab chiqish zarur. Mazkur baholash tizimi talabalarning faqat bilim darajasini emas, balki ularning fikrlash, ijodkorlik va jamoada ishlash qobiliyatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqib aytish mumkinki, oliy ta’lim tizimida, xususan pedagogika fanlarini o‘qitish jarayonida “4K” modelini joriy etish bo‘yicha tizimli ilmiy-tadqiqotlar olib borish, eksperimental-amaliy ishlarni tashkil etish hamda ilg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish, ta’lim sifatini yaxshilash va zamonaviy mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagogika fanlarini o'qitishda "4K" modelidan foydalanish quyidagi samaralarni beradi:

1. Talabalarning kasbiy kompetensiyalari kompleks rivojlanadi;
2. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik mustahkamlanadi;

3. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo'llash ko'nikmalari shakllanadi;
4. Kasbiy motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati kuchayadi;
5. Raqobatbardosh, innovatsion tafakkuri shakillangan pedagog kadrlar tayyorlanadi;

Biroq, "4K" modelini muvaffaqiyatli joriy etish uchun muayyan sharoitlar zarur. Anoqrog’i:

- pedagog kadrlarining yuqori malakasi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarga tayyorgarligi;
- tegishli o'quv-uslubiy ta’minot va texnik baza;
- o'quv dasturlari va baholash tizimining "4K" modeli talablariga moslashtirilishi;
- tizmli monitoring va sifat nazorati ;
- xalqaro tajribalar bilan tanishish va hamkorlik.

Pedagogika fanlarini o’qitishda "4K" modelidan foydalanish metodikasini takomillashtirish uchun quydagilarni tavsiya etamiz:

-pedagogika fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish va "4K" komponentlarini integratsiyalash;

-professor-o'qituvchilar uchun doimiy malaka oshirish va metodologik yordam tizimini yo'lga qo'yish;

-zamonaviy o'quv-uslubiy komplekslar va elektron ta’lim resurslari yaratish;

-talabalarning "4K" ko'nikmalarini baholash uchun zamonaviy mezonlar va vositalar ishlab chiqish.

Xorijiy tajribalar bilan tanishish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali Oliy ta’lim tashkilotlarida pedagogika fanlarini o’qitishda ,, 4K’’ modelidan foydalanish malakali, raqobatbardosh kadrlar tayorlashga ya’ni milliy va xalqaro tajribalarni qiyosiy tahlil qilish, "4K" modelini boshqa ta’lim texnologiyalari bilan integratsiyalash yo'llarini izlash va boshqalarga imkon beradi.

"4K" modeli asosida pedagogika fanlarini o'qitish metodikasini rivojlantirish - bu uzoq muddatli jarayon bo'lib, barcha ta’lim tizimi ishtirokchilarining birgalikdagi sa’y-harakatlarini talab qiladi. Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimida ushbu modelni muvaffaqiyatli joriy etish orqali zamonaviy, raqobatbardosh, innovatsion tafakkurli pedagog kadrlar tayyorlash, ta’lim sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentini Shavkat Mirziyoyevning 2025- yli 26- dekabedagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta’lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr.

3. Qurbonova B., Erkinova N. “Zamonaviy ta’limda 4k modeli tushunchasi va uning roli”. Central asian journal of academic research. Volume 3, Issue 05, Part 5 May 2025, p.63-66.
4. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari.–T.: “O'qituvchi”, 2021. – 208 b.
5. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogika. – T.: Fanva texnologiya, 2020. – 540 b.
6. Musurmonova O. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. – 320 b.
7. Xoliqov A.A. Oliy ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan, 2021. – 256 b.
8. Shermuxamedova N.A. XXI asr ko'nikmalari va ularni shakllantirish metodikasi. // Pedagogik ta’lim jurnali, 2022. №3. – B. 45-52.

UDK 37.013:930

TARIX FANINING OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QITILISHI TARIXI

Tojiboev Ravshanbek Isaqjon o‘g‘li,
Profi University nodavlat ta’lim tashkiloti ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarix fanining oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilishi tarixi va uning evolyutsiyasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tarix ta’limining antik davrdan to zamonaviy universitet tizimigacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlari yoritiladi. Yevropa universitetlari, islom madrasa an’analari, shuningdek, XIX–XX asrlarda shakllangan zamonaviy oliy ta’lim tizimida tarix fanining o‘rni va o‘qitish usullari tahlil etiladi. Maqolada tarix ta’limida maqsad va vazifalarning davr talablariga mos ravishda o‘zgarib borgani ilmiy manbalar asosida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: tarix ta’limi tarixi, oliy ta’lim, universitet an’analari, tarix fanining shakllanishi, ta’lim evolyutsiyasi.

ИСТОРИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

АННОТАЦИЯ

Аннотация. В статье анализируется история преподавания истории в высших учебных заведениях и ее эволюция. Рассматриваются основные этапы развития исторического образования от античности до современной университетской системы. Анализируются традиции европейских университетов, исламских медресе, а также особенности преподавания истории в XIX–XX веках. Показано, как цели и задачи исторического образования менялись в зависимости от социально-политических условий.

Ключевые слова: история исторического образования, высшее образование, университетские традиции, преподавание истории, эволюция образования.

THE HISTORY OF TEACHING HISTORY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract. This article examines the history and evolution of teaching history in higher education institutions. The main stages of the development of history education from antiquity to the modern university system are analyzed. Special attention is paid to European university traditions, Islamic madrasah education, and the transformation of history teaching in the nineteenth and twentieth centuries. The

study demonstrates how the goals and objectives of history education have changed in response to social and political contexts.

Key words: history education history, higher education, university traditions, teaching history, educational evolution.

Tarix fanining oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilishi jamiyatning intellektual taraqqiyoti, davlatchilik an’analari hamda ilmiy tafakkur rivoji bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan murakkab va ko‘pqirrali jarayondir. Universitet ta’limi paydo bo‘lgan dastlabki davrlardanoq tarix fani ta’lim tizimida muhim o‘rin egallab kelgan bo‘lsa-da, uning mazmuni, maqsadi va o‘qitish usullari turli tarixiy bosqichlarda keskin farq qilgan. Bu holat tarix fanini o‘qitishni statik emas, balki doimiy o‘zgaruvchan, jamiyat ehtiyojlariga moslashuvchi dinamik jarayon sifatida o‘rganishni taqozo etadi.

Oliy ta’lim tizimida tarix fanining vazifasi faqat o‘tmish voqealarini bayon qilish bilan cheklanmagan. U har bir tarixiy davrda muayyan ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy funksiyalarni bajargan. Masalan, antik davrda tarix fani fuqarolik tarbiyasining muhim vositasi sifatida qaralgan bo‘lsa, o‘rta asrlarda u diniy-ma’naviy qarashlarni mustahkamlashga xizmat qilgan. Yangi davrda esa tarix fani milliy davlatchilik g‘oyalarini shakllantirish va legitimatsiya qilish vositasi sifatida qo‘llanilgan.

Oliy ta’lim muassasalarida tarix fanini o‘qitish tarixini o‘rganish nafaqat ta’lim evolyutsiyasini, balki jamiyatning intellektual ustuvorliklari, ilm-fanga bo‘lgan munosabati va davlat siyosatida tarix fanining tutgan o‘rnini ham anglash imkonini beradi. Shu ma’noda mazkur maqola tarix fanining universitet ta’limidagi o‘rnini tarixiy-evolyutsion nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratilgan.

Tarix fanining oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilishi tarixi masalasi bir qator fanlararo tadqiqotlar doirasida o‘rganilgan. Bu masala tarixshunoslik, ta’lim tarixi, pedagogika va falsafa fanlari kesishmasida joylashgan bo‘lib, uning tahlili kompleks yondashuvni talab etadi. Ilmiy adabiyotlarda tarix ta’limi tarixi asosan universitet instituti rivoji bilan bog‘liq holda yoritiladi.

Yevropa universitet ta’limi tarixi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlardan biri Walter Rüegg universitetni o‘rta asr Yevropasining eng muhim intellektual instituti sifatida baholaydi. Uning ta’kidlashicha, universitetlarda tarix fanining mustaqil fan sifatida shakllanishi uzoq vaqt talab etgan. Ilk universitetlarda tarix fani ilohiyot, huquq va falsafa fanlariga bo‘ysungan holda o‘qitilgan.

Tarix ta’limi tarixi masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda Georg G. Iggers alohida o‘rin tutadi. U XX asr tarixshunosligi rivojini tahlil qilib, tarix fanining universitet ta’limida metodologik pluralizm asosida o‘qitila boshlanganini ta’kidlaydi. Iggers’ga ko‘ra, tarix fanini o‘qitishda yagona “to‘g‘ri” nazariyadan voz kechilishi ta’lim jarayonini mazmunan boyitgan.

Tarix fanini o‘qitish tarixini o‘rganishda islom sivilizatsiyasidagi ta’lim an’analari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Islom madrasalarida tarix fanining o‘qitilishi alohida predmet sifatida emas, balki umumiy ilmlar tizimi doirasida

amalga oshirilgan. Ibn Xaldun tarix fanini ijtimoiy qonunlar asosida o‘rganishni taklif qilib, tarixiy bilimni nazariy jihatdan asoslab bergan. Uning “Muqaddima” asari tarix fanini ilmiy fan sifatida o‘qitishga zamin yaratgan muhim manba hisoblanadi.

XIX asr tarix fanining oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilishi tarixida tub burilish davri hisoblanadi. Aynan shu davrda tarix fani mustaqil akademik fan sifatida institutsionallashdi, uning metodologiyasi, tadqiqot standartlari va o‘qitish shakllari shakllandi. Bu jarayon, avvalo, Germaniya universitetlarida yuzaga kelgan ilmiy islohotlar bilan bog‘liq.

Nemis tarixshunosi Leopold von Ranke tarix fanini “haqiqiy bo‘lganidek” (wie es eigentlich gewesen) o‘rganish g‘oyasini ilgari surib, manbalarga tayanishni tarixiy tadqiqot va ta’limning asosiy tamoyili sifatida belgiladi. Ranke metodi tarix fanini adabiy-axloqiy bayondan ilmiy tahlil darajasiga ko‘tardi. Universitetlarda tarix fanini o‘qitishda arxiv hujjatlari, asl manbalar bilan ishlash majburiy elementga aylandi. Bu yondashuv tarix ta’limini tadqiqot bilan uzviy bog‘lab, “ta’lim orqali tadqiqot” modeliga asos soldi [6].

Ranke ta’sirida tarix fanini o‘qitishda professor markaziy figura sifatida shakllandi. Universitet talabalari faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki ilmiy tadqiqot jarayoniga jalb etilgan subyektga aylandi. Bu holat tarix fanini o‘qitish mazmuni va metodlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi.

XIX asr boshlarida Wilhelm von Humboldt tomonidan ishlab chiqilgan universitet modeli tarix fanini o‘qitish tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Humboldt modeliga ko‘ra, universitet ta’limining asosiy vazifasi tayyor bilim berish emas, balki ilm yaratish va mustaqil fikrlashni shakllantirishdan iborat bo‘lishi lozim. Bu g‘oya tarix fanini o‘qitishga ham tatbiq etildi.

Humboldt modeli asosida tarix fanini o‘qitishda ilmiy tadqiqot bilan ta’limning birligi, akademik erkinlik, talabaning mustaqil izlanishi asosiy tamoyil sifatida qaror topdi. Bu yondashuv tarix fanini o‘qitishni mexanik ma’ruza shaklidan ilmiy seminar va manba tahliliga asoslangan ta’limga aylantirdi. Keyinchalik ushbu model Yevropa va AQSh universitetlarida tarix ta’limi uchun namuna bo‘lib xizmat qildi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, G‘arb universitetlarida tarix fanini o‘qitishda liberallashuv va pluralistik yondashuvlar ustuvor bo‘la boshladi. Eric Hobsbawm tarix fanini tanqidiy tahlil vositasi sifatida baholab, tarix ta’limi jamiyatdagi ijtimoiy adolat va tengsizlik masalalarini ochib berishga xizmat qilishi lozimligini ta’kidlaydi.

Shu davrda tarix ta’limida global tarix, postkolonial tahlil, gender tarixi, madaniy tarix kabi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Bu yo‘nalishlar tarix fanini o‘qitish mazmunini yanada boyitib, talabalarda ko‘p qirrali tarixiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qildi.

Mazkur tadqiqot tarix fanining oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilishi tarixini kompleks va tizimli o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda tarixiy, pedagogik va falsafiy yondashuvlar uyg‘un holda qo‘llanildi. Tarix ta’limi tarixi o‘z tabiatiga

ko‘ra fanlararo xususiyatga ega bo‘lgani sababli, tadqiqot metodologiyasi ham bir necha ilmiy an’analarga tayanadi. Xususan, tarixshunoslik, ta’lim tarixi, didaktika va bilim sotsiologiyasida ishlab chiqilgan nazariy qarashlar tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi.

Tadqiqotda tarixiy bilimning ijtimoiy shartlanganligi haqidagi g‘oya markaziy o‘rin tutadi. Bu yondashuvga ko‘ra, tarix fanining o‘qitilishi uning ilmiy mazmuni bilan cheklanmay, balki jamiyatning siyosiy, madaniy va mafkuraviy ehtiyojlari bilan ham belgilanadi. Mazkur qarash E. H. Carr [1], R. G. Collingwood [2] va Eric Hobsbaum [11] asarlarida nazariy jihatdan asoslab berilgan. Ularning fikricha, tarixiy bilim ham, tarix ta’limi ham muayyan ijtimoiy kontekst mahsuli hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqotda universitet ta’limi rivojiga oid Wilhelm von Humboldt [7] konsepsiyasi muhim nazariy asos sifatida qo‘llanildi. Humboldt modeli ta’lim va tadqiqotning birligi g‘oyasiga asoslanib, tarix fanini o‘qitishni ilmiy izlanish bilan uzviy bog‘lash zarurligini ta’kidlaydi. Bu konsepsiya tarix fanining universitetlarda mustaqil akademik fan sifatida shakllanishini tahlil qilishda metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda quyidagi asosiy ilmiy metodlar qo‘llanildi:

1. Tarixiy-tahliliy metod.

Tarixiy-tahliliy metod orqali tarix fanining oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilishi turli tarixiy davrlar kesimida o‘rganildi. Ushbu metod ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarni xronologik izchillikda tahlil qilish imkonini berdi. Antik davr, o‘rta asrlar, yangi davr va zamonaviy universitet tizimida tarix fanining o‘qitilishi alohida bosqichlar sifatida ko‘rib chiqildi.

Bu metod tarix ta’limi mazmunining davr talablariga mos ravishda qanday o‘zgarib borganini, tarix fanining maqsad va vazifalari qanday transformatsiyaga uchraganini ochib berishga xizmat qildi.

2. Qiyosiy-ta’limiy tahlil.

Qiyosiy-ta’limiy tahlil metodi orqali turli sivilizatsion va ta’lim an’analarida tarix fanining o‘qitilishi o‘zaro taqqoslandi. Yevropa universitetlari, islom madrasa an’analari, shuningdek, sovet va g‘arb oliy ta’lim modellarida tarix fanining o‘qitilishidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlandi.

Bu metod tarix fanini o‘qitish tarixida yagona universal model mavjud emasligini, balki har bir ta’lim tizimi o‘zining ijtimoiy-siyosiy kontekstiga mos yondashuvni shakllantirganini ko‘rsatishga imkon berdi.

3. Kontent-tahlil.

Kontent-tahlil metodi tarix fanini o‘qitishga oid ilmiy adabiyotlar, ta’lim standartlari, universitet o‘quv dasturlari va klassik manbalar mazmunini tahlil qilishda qo‘llanildi. Bu metod orqali tarix ta’limiga oid asosiy tushunchalar, maqsadlar va metodik yondashuvlar aniqlandi.

Kontent-tahlil, ayniqsa, XIX–XX asrlarda tarix fanining universitet ta’limida qanday mazmunda o‘qitilganini aniqlashda samarali bo‘ldi. Manbalarda qaysi

tarixiy mavzular ustuvor bo‘lgani, qanday metodik uslublar qo‘llanilgani tahlil qilindi.

4. Konseptual umumlashtirish.

Konseptual umumlashtirish metodi orqali tarix fanining oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilishiga oid turli ilmiy qarashlar va ta’lim amaliyotlari umumlashtirildi. Bu metod tarix ta’limi tarixidagi alohida tendensiyalarni tizimli ravishda bayon etish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarix fanining ta’lim tizimidagi ilk shakllari antik sivilizatsiyalar doirasida vujudga kelgan. Garchi antik davrda zamonaviy ma’noda “oliy ta’im muassasasi” tushunchasi mavjud bo‘lmagan bo‘lsa-da, Afina va Rimdagi falsafiy maktablar, ritorika o‘choqlari va ilm-fan markazlari tarix fanining ta’limiy funksiyasini shakllantirgan.

Antik Gresiyada tarix fanining ta’limiy ahamiyati fuqarolik tarbiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Gerodot va Fukidid asarlari nafaqat tarixiy manba, balki yosh avlodni siyosiy voqelikni anglashga o‘rgatuvchi ta’limiy matn sifatida qo‘llanilgan. Gerodot tarixni xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarni anglash vositasi sifatida qaragan bo‘lsa, Fukidid tarixiy voqelikni sabab-oqibat munosabatlari orqali tahlil qilishni ilgari surgan. Bu yondashuvlar tarix fanini o‘qitishda tahlil va fikrlashga asos bo‘lgan ilk namuna sifatida baholanadi.

Antik Rimda esa tarix fanining ta’limiy ahamiyati yanada kuchaydi. Siseron tarixni “hayot muallimi” (historia magistra vitae) deb atab, uni yoshlarni axloqiy va siyosiy tarbiyalash vositasi sifatida baholaydi. Rim ta’lim tizimida tarix fanini o‘qitish ritorika bilan uyg‘un holda amalga oshirilgan bo‘lib, tarixiy misollar orqali davlatchilik va huquqiy tafakkur shakllantirilgan.

O‘rta asrlarda Yevropa universitetlari shakllanishi bilan ta’lim tizimida ilohiyot, huquq va falsafa fanlari ustuvor o‘rin egalladi. Bu davrda tarix fanining o‘qitilishi mustaqil fan sifatida emas, balki ilohiyot va huquq fanlariga yordamchi sohalar sifatida amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘rta asr universitetlarida tarix fanining asosiy vazifasi diniy ta’limotlarni mustahkamlash va bibliyaviy tarixni sharhlashdan iborat bo‘lgan. Universitetlarda tarix fanini o‘qitish asosan xronologiya, shajara va muqaddas matnlar tahlili doirasida cheklangan.

Shu bilan birga, o‘rta asr oxiriga kelib, gumanizm harakati ta’sirida tarix fanining ta’limiy mazmuni o‘zgara boshladi. Petrarka va boshqa gumanistlar tarixni insoniy tajribani anglash vositasi sifatida qayta baholadilar. Bu jarayon keyinchalik universitetlarda tarix fanining mustaqil fan sifatida shakllanishiga zamin yaratdi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari tarix fanining oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilishi uzoq tarixiy evolyutsiya jarayonini bosib o‘tganini ko‘rsatadi. Bu evolyutsiya tarix fanining mazmuni, maqsadlari va o‘qitish usullari jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishi, ilm-fan rivoji hamda ta’lim paradigmalari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanganini tasdiqlaydi. Antik davrdan to zamonaviy universitet modellarigacha bo‘lgan jarayon tarix fanining ta’limiy funksiyalari doimiy ravishda qayta talqin qilib borilganini namoyon etadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, antik va o‘rta asrlar davrida tarix fanining asosiy vazifasi axloqiy-tarbiyaviy va mafkuraviy xarakter kasb etgan. Yangi davrda esa tarix fanining universitet ta’limidagi maqomi tubdan o‘zgarib, u mustaqil akademik fan sifatida institusionallashgan. XIX asrda shakllangan klassik universitet modeli tarix fanini o‘qitishni ilmiy tadqiqot bilan uyg‘unlashtirib, manbalarga tayanish, tanqidiy tahlil va metodologik qat’iylikni ta’limning markaziy elementiga aylantirdi.

XX asrda tarix fanini o‘qitishda metodologik pluralizm, fanlararo yondashuv va ijtimoiy tarix konsepsiyalarining keng qo‘llanilishi ta’lim mazmunini yanada boyitdi. Sovet ta’lim modeli esa tarix fanini o‘qitishda qat’iy mafkuraviy cheklovlar mavjud bo‘lganiga qaramay, tizimli va markazlashgan o‘quv jarayonini shakllantirdi. Zamonaviy davrda esa globallashuv va raqamlashuv ta’sirida tarix fanini o‘qitish tanqidiy fikrlash, global dunyoqarash va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilmoqda.

Shu asosda quyidagi amaliy va ilmiy takliflarni ilgari surish mumkin:

– tarix fanini o‘qitishda uning tarixiy evolyutsiyasini hisobga olgan holda o‘quv dasturlarini shakllantirish;

– oliy ta’lim muassasalarida tarix fanini o‘qitishni ilmiy tadqiqot bilan uzviy bog‘lash;

– tarix ta’limida manbalar bilan ishlash va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini ustuvor maqsad sifatida belgilash;

– raqamli texnologiyalarni tarix fanini o‘qitishga ilmiy-metodik asosda joriy etish;

– tarix fanini o‘qitish orqali talabalarda global dunyoqarash va fuqarolik ongini shakllantirish.

Mazkur tadqiqot natijalari tarix fanining oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilishiga doir keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Carr E.H. What is History? – London, 2008.
2. Collingwood R.G. The Idea of History. – Oxford, 1994.
3. Tosh J. The Pursuit of History. – London, 2015.
4. Burke P. History and Social Theory. – Cambridge, 2005.
5. Iggers G.G. Historiography in the Twentieth Century. – Hanover, 2005.
6. Ranke L. The Theory and Practice of History. – London, 2011.
7. Humboldt W. The Limits of State Action. – Cambridge, 1969.
8. Bloch M. The Historian’s Craft. – Manchester, 1992.
9. Febvre L. A New Kind of History. – London, 1973.
10. Braudel F. On History. – Chicago, 1980.
11. Hobsbawm E. On History. – London, 1997.
12. Bentley M. Modern Historiography. – London, 2007.
13. Stearns P. World History. – Boston, 2010.
14. Hunt L. Writing History in the Global Era. – London, 2014.

UDK 004.8:32

CONCEPTUAL ANALYSIS OF CYBER TERMS

Turdimuradov Dilshod Choriyevich,
Head of the Department of Foreign Languages and Humanities, Cyber University

Abstract. This article presents a comprehensive conceptual analysis of cyber terms, exploring their etymological origins, semantic evolutions, and interdisciplinary implications within the domains of technology, law, sociology, and philosophy. By dissecting key terminologies such as "cybersecurity," "cybercrime," "cyberspace," and "cyberwarfare," the analysis elucidates how these concepts have transcended their initial technical connotations to become pivotal in shaping global discourses on digital ethics, governance, and human-machine interactions. Drawing on semiotic, ontological, and epistemological frameworks, the study reveals the fluid and contested nature of cyber lexicon, highlighting ambiguities that arise from rapid technological advancements and cultural adaptations.

Key words: Cyber terms, conceptual analysis, cybersecurity, cybercrime, cyberspace, cyberwarfare, semiotics, ontology, epistemology, digital ethics, terminological standardization.

KIBER ATAMALARINING KONSEPTUAL TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kiberterminlarning konseptual tahlili amalga oshiriladi, ularning etimologik kelib chiqishi, semantik evolyutsiyasi va texnologiya, huquq, sotsiologiya hamda falsafa sohalaridagi interdisciplinar ta'sirlari o'rganiladi. "Kibertahdid" (cybersecurity), "kiberjinoyat" (cybercrime), "kibersfera" (cyberspace) va "kiberurush" (cyberwarfare) kabi asosiy atamalar tahlil qilinib, ushbu tushunchalar dastlabki texnik ma'nolaridan oshib, raqamli etik, boshqaruv va inson-mashina o'zaro ta'siri bo'yicha global diskurslarni shakllantirishda muhim rol o'ynashi ko'rsatiladi. Semiotic, ontologik va epistemologik yondashuvlarga tayangan holda, tadqiqot kiberleksikonning suyuq va bahsli tabiatini ochib beradi hamda tezkor texnologik rivojlanish va madaniy moslashuv natijasida yuzaga keladigan noaniqliklarni ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Kiberterminlar, konseptual tahlil, kibertahdid, kiberjinoyat, kibersfera, kiberurush, semiotika, ontologiya, epistemologiya, raqamli etika, terminologik standartlashtirish.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КИБЕР-ТЕРМИНОВ

Аннотация. В статье представлен всесторонний концептуальный анализ кибертерминов, исследуются их этимологическое происхождение,

семантическая эволюция и междисциплинарные аспекты в области технологий, права, социологии и философии. Анализ ключевых терминов, таких как «кибербезопасность» (cybersecurity), «киберпреступность» (cybercrime), «киберпространство» (cyberspace) и «кибервойна» (cyberwarfare), показывает, как эти понятия вышли за рамки первоначальных технических значений и стали важными для формирования глобальных дискуссий о цифровой этике, управлении и взаимодействии человека и машины. Используя семиотические, онтологические и эпистемологические подходы, исследование выявляет текучий и спорный характер киберлексики, подчеркивая неоднозначности, возникающие вследствие стремительного технологического прогресса и культурных адаптаций.

Ключевые слова: Кибертермины, концептуальный анализ, кибербезопасность, киберпреступность, киберпространство, кибервойна, семиотика, онтология, эпистемология, цифровая этика, стандартизация терминологии.

The advent of the digital era has necessitated the proliferation of a specialized lexicon to describe phenomena occurring within and through computational networks. Cyber terms, as a subset of this lexicon, encapsulate the intersection of human cognition, technological infrastructure, and virtual environments. Originating from the Greek word "kybernētēs," meaning steersman or governor, the prefix "cyber" was popularized by Norbert Wiener in his seminal work on cybernetics, which posited systems of control and communication in animals and machines. This foundational concept has since permeated various disciplines, evolving into a multifaceted terminology that demands rigorous conceptual scrutiny. At its core, conceptual analysis involves deconstructing terms to uncover their underlying assumptions, denotations, and connotations, thereby revealing how they influence thought patterns and behaviors in the cyber domain.

Consider the term "cyberspace," coined by William Gibson in his 1984 novel Neuromancer, which envisioned a consensual hallucination experienced daily by billions of legitimate operators. Semantically, cyberspace denotes a non-physical realm facilitated by interconnected computers, yet its conceptual boundaries remain porous. Ontologically, it raises questions about existence: is cyberspace a mere abstraction, a social construct, or an emergent reality with its own properties? Epistemologically, it challenges how knowledge is acquired and validated within this space, where data flows transcend traditional sensory experiences. The term's evolution from science fiction to policy jargon illustrates a performative aspect of language, wherein repeated usage reifies abstract ideas into tangible frameworks for governance. For instance, international treaties like the Budapest Convention on Cybercrime implicitly rely on a shared understanding of cyberspace, yet divergent interpretations among signatories stemming from cultural and linguistic differences can impede effective collaboration. Delving deeper, "cybersecurity" emerges as a pivotal term encompassing protective measures against threats to information

systems. Conceptually, it bifurcates into preventive and reactive paradigms: the former emphasizing resilience through encryption and access controls, the latter focusing on incident response and forensics. However, its analysis reveals inherent tensions; security in the cyber realm is not absolute but probabilistic, governed by game-theoretic models where attackers and defenders engage in perpetual escalation. From a philosophical standpoint, cybersecurity invokes Foucauldian notions of power and surveillance, as protective mechanisms often entail monitoring that blurs lines between safety and privacy infringement. The term's conceptual breadth has expanded with the Internet of Things (IoT), where everyday objects become nodes in vast networks, amplifying vulnerabilities and necessitating a holistic ecosystem approach. This expansion underscores the need for interdisciplinary integration, merging computer science with psychology to address human factors like social engineering, which exploits cognitive biases rather than technical flaws.

Parallel to security is "cybercrime," a term that conceptually reframes traditional offenses within digital contexts. Unlike physical crimes, cybercrimes exploit anonymity and scalability, enabling acts such as phishing, ransomware, or identity theft to affect global populations instantaneously. A conceptual dissection highlights its hybrid nature: legally, it intersects with jurisdictions, where acts in one sovereign cyberspace may violate laws in another, complicating extradition and prosecution. Sociologically, cybercrime reflects digital divides, as perpetrators often leverage asymmetries in technological access and literacy. The term's evolution incorporates emerging threats like deepfakes, which manipulate perceptual realities, challenging epistemological foundations by eroding trust in visual evidence. Moreover, conceptual analysis exposes normative biases; what constitutes cybercrime varies across cultures for example, state-sponsored hacking might be deemed espionage in one context but terrorism in another revealing the term's role in geopolitical narratives.

Extending the conceptual inquiry to cyberwarfare**,** the term encapsulates the dynamics of conflict in non-kinetic domains, where information operations, digital intrusions, and algorithmically mediated strategies increasingly supplant conventional physical weaponry. Drawing from Clausewitzian principles**,** cyberwarfare can be framed as "war by other means," yet its intangible and distributed nature introduces profound challenges regarding attribution, proportionality, and accountability**.** Unlike traditional kinetic engagements, the non-physical character of cyber operations blurs conventional definitions of combat, raising critical ontological questions: does a distributed denial-of-service (DDoS) attack or a sophisticated phishing campaign constitute an armed assault under international humanitarian law? The Tallinn Manual represents a seminal attempt to reconcile cyber operations with the frameworks of *jus ad bellum* and *jus in bello*, but ambiguities persist, particularly concerning thresholds for defensive or retaliatory action.

From a philosophical perspective, cyberwarfare illuminates Heideggerian concerns regarding technology as "enframing," whereby human agency is increasingly subordinated to algorithmic logics. Autonomous systems, AI-driven decision-making, and predictive cyber operations risk decoupling ethical accountability from operational outcomes. Such scenarios foreground the tension between human moral responsibility and machine-mediated strategic execution, emphasizing the need for integrated governance frameworks. Moreover, hybrid warfare—where cyber tactics are interlaced with conventional military strategies, psychological operations, and disinformation campaigns—exemplifies the fluidity of the cyber lexicon, challenging policymakers and scholars to reconcile technical, legal, and ethical dimensions simultaneously.

Beyond the immediate scope of cyberwarfare, the conceptual landscape encompasses derivative terms such as cyberethics and cyberresilience, which address normative dilemmas and adaptive capacities in digital environments. Cyberethics interrogates algorithmic bias, privacy trade-offs, and fairness in AI-driven systems, necessitating operational definitions of ethical principles across diverse cultural and legal contexts. Cyberresilience, by contrast, emphasizes systemic adaptability and recovery rather than invulnerability, incorporating concepts of antifragility (Taleb, 2012), whereby systems improve in response to stressors, disruptions, or cyberattacks.

A coherent conceptual framework for cyber terms benefits from semiotic and linguistic analyses**,** treating terms as signs within broader signifying systems. In this framework, signifiers (words or labels) are linked to signifieds (concepts) through cultural, legal, and technical codes. This approach mitigates polysemy, wherein a single term—such as "hacking"—may denote both malicious intrusion and creative problem-solving depending on context. Standardization efforts, including initiatives by the International Telecommunication Union (ITU)**,** aim to harmonize terminology globally, facilitating cross-jurisdictional cooperation, while ensuring that evolving definitions remain adaptable to emerging technologies, such as quantum computing, which may fundamentally alter encryption paradigms and cybersecurity protocols.

Linguistic dominance of English-origin terms presents additional conceptual challenges, potentially marginalizing non-Western epistemologies and necessitating multilingual glossaries that reflect diverse perspectives on cyber phenomena. For both scholars and practitioners, conceptual clarity enables predictive modeling and networked analyses of cyber threats, illustrating term interrelations, clusters, and systemic patterns that inform policy design and strategic planning.

In synthesizing these insights, cyber terms function simultaneously as mirrors and shapers of the digital epoch, encapsulating humanity's negotiation with complex technological landscapes. By fostering terminological precision and interdisciplinary dialogue, societies can better navigate the ethical, strategic, and operational dimensions of cyberspace, ensuring that governance frameworks, defensive strategies, and international norms are coherent, equitable, and resilient.

Such ongoing scrutiny is not merely academic; it is essential for mitigating risks in an interconnected world, where imprecise terminology or conceptual ambiguity can translate into tangible geopolitical and societal consequences.

References:

1. Wiener, N. (1948). Cybernetics: Or Control and Communication in the Animal and the Machine. MIT Press.
2. Gibson, W. (1984). Neuromancer. Ace Books.
3. Council of Europe. (2001). Convention on Cybercrime (Budapest Convention). Council of Europe Treaty Series No. 185.
4. Schmitt, M. N. (Ed.). (2017). Tallinn Manual 2.0 on the International Law Applicable to Cyber Operations. Cambridge University Press.
5. Foucault, M. (1975). Discipline and Punish: The Birth of the Prison. Pantheon Books.
6. Clausewitz, C. von. (1832). On War. Princeton University Press (English translation, 1976).
7. Heidegger, M. (1954). The Question Concerning Technology. In The Question Concerning Technology and Other Essays (1977). Harper & Row.
8. Taleb, N. N. (2012). Antifragile: Things That Gain from Disorder. Random House.
9. International Telecommunication Union. (Various years). ITU-T Recommendations on Cybersecurity Terminology.
10. Saussure, F. de. (1916). Course in General Linguistics. Open Court Publishing (English translation, 1959).

UDK 159.923:004.738

O‘SPIRINLARDA ONLAYN FAOLIYAT VA RUHIY HOLAT O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Xayrullayeva Marjona Xayrulla qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti 1-bosqich doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar va internet tarmoqlarining 16–18 yoshdagi o‘spirinlar hayotidagi o‘rni hamda ularning online faoliyati bilan ruhiy holati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlar, onlayn o‘yinlar va ta’limiy platformalardan foydalanishning o‘spirinlarning psixologik farovonligi, hissiy barqarorligi va stressga chidamliligiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, sog‘lom raqamli muhitni shakllantirishning psixologik ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: O‘spirinlar, online faoliyat, raqamli texnologiyalar, ruhiy holat, psixologik farovonlik, hissiy barqarorlik, internetga qaramlik, ijtimoiy tarmoqlar, stress va xavotir, ta’lim samaradorligi.

THE RELATIONSHIP BETWEEN ONLINE ACTIVITY AND MENTAL STATE IN ADOLESCENTS

Abstract. This article examines the role of digital technologies and internet networks in the lives of adolescents aged 16–18, as well as the relationship between their online activity and psychological well-being. The study highlights the impact of social networks, online games, and educational platforms on adolescents' psychological welfare, emotional stability, and stress resilience. Furthermore, the psychological significance of creating a healthy digital environment is substantiated.

Keywords: Adolescents, online activity, digital technologies, mental state, psychological well-being, emotional stability, internet addiction, social media, stress and anxiety, educational effectiveness.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ОНЛАЙН-АКТИВНОСТИ И ПСИХИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В данной статье анализируется роль цифровых технологий и интернет-сетей в жизни подростков в возрасте 16–18 лет, а также взаимосвязь между их онлайн-активностью и психологическим состоянием. В исследовании освещается влияние использования социальных сетей, онлайн-игр и образовательных платформ на психологическое благополучие, эмоциональную устойчивость и стрессоустойчивость подростков. Кроме того, обосновывается психологическая значимость формирования здоровой цифровой среды.

Ключевые слова: Подростки, онлайн-активность, цифровые технологии, психическое состояние, психологическое благополучие, эмоциональная устойчивость, интернет-зависимость, социальные сети, стресс и тревожность, эффективность обучения.

Hozirgi zamonaviy hayotimizga yuzlanadigan bo‘lsak, mamlakatimizdagi o‘quv yurtlarida ta’lim-tarbiya jarayonlari shiddat bilan olib borilmoqda. Zamonaviy texnikalar, o‘quv dasturlari va ko‘plab yangi dasturlar ishlab chiqilmoqda, bularning barchasi esa aynan yoshlarimizning kamoloti va kelajagi uchun desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuningdek, maktablarga e’tibor qaratdigan bo‘lsak, aynan yuqori sinf o‘quvchilari uchun kasb haqidagi bilimlar va ularga yo‘naltirish ishlari keng miqyosda olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ommalashishi natijasida ayrim o‘quvchilar haddan tashqari telefon, planshet yoki kompyuterga vaqtlarini behuda sarflamoqda, bu esa ularning vaqtini olish bilan birgalikda ularning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rishimiz mumkin. Yuqori sinf o‘quvchilardan materialni tushunish va uni hayotga tadbiq eta bilish talab etiladi. Bola bu yoshda o‘zini ancha eslik his qiladi, tajriba ortadi va bilimlarini mustaqil hayotga tadbiq eta boshlaydi. Esa ularning darsga bo‘lgan munosabatlarini o‘zgartiradi. Bu davrga kelib o‘zlariga ma’qul bo‘lgan biror fanni tanlaydilar. Bunday xususiyatlarni o‘smirlarda ham uchratish mumkin, lekin bunda alohida fanlarga bo‘lgan qiziqish ko‘proq o‘qituvchining maslahatí bilan bog‘liq bo‘lsa, yuqori sinf o‘quvchilaridagi qiziqish ularning ehtiyojlari, intilishlari asosida tarkib topadi. Ba’zan ular shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘yadilar va natijada hodisalar haqida noto‘g‘ri fikr yuritib, noto‘g‘ri xulosalar chiqaradilar.

So‘nggi yillarda online ta’limning roli o‘spirinlarning o‘quv jarayonida sezilarli darajada oshdi. Online faoliyatlar nafaqat yangi bilimlarni egallash va mustahkamlashga yordam beradi, balki o‘spirinlarning metakognitiv (o‘z-o‘zini anglash) qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi (Bonk va Reynolds, 1997). Online faoliyatlar odatda talabalardan faqat ma’lumot olish (o‘qish yoki tinglash) bilan cheklanmay, balki o‘rganish, mashq qilish, qo‘llash, baholash yoki o‘quv mazmuniga boshqa tarzda javob berishni talab qiladi. Ta’kidlanishicha, izlanishlar olib borish, muammolarni yechish va faoliyatlarni bajarish o‘spirinlarning mazmunli ta’lim jarayoniga jalb qilinishini oshiruvchi asosiy omillardir. Shu sababli, online faoliyatlarning mazmuni va tuzilishi o‘spirinlarning ta’lim samaradorligi va psixologik farovonligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Online faoliyatlar turli o‘zaro ta’sir turlariga ajratilishi mumkin:

- o‘qituvchi bilan o‘zaro ta’sir: virtual sinf mashg‘ulotlari, jonli savol-javoblar, online ma’ruza va maslahatlar;
- o‘spirinlar orasida o‘zaro ta’sir: muhokama forumlari, chatlar, guruh loyihalari, bloglar va guruh baholash ishlari;
- kontent bilan o‘zaro ta’sir: darslar, topshiriqlar, testlar, so‘rovnomalar, videolar va audio materiallarni o‘rganish.


Garchi ilgari online ta'limning xususiyatlari va faoliyat turlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, o'spirinlar orasida online faoliyatlarga qatnashish chastotasi va bu faoliyatlarning ruhiy bog'liqlik bilan bog'liqligi hali to'liq o'rganilmagan. Shu sababli, ushbu tadqiqot o'spirinlarning online faoliyatlari va ruhiy bog'liqligi o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashga qaratilgan. Aniqrog'i, tadqiqotning maqsadi quyidagilarni aniqlashdir: o'spirinlar orasida online faoliyatlarda ishtirok etishning vaqt bo'yicha afzalliklari, o'spirinlarning turli online faoliyat turlarini bajarishi bilan ularning ruhiy bog'liqligi (psixologik farovonligi) o'rtasidagi bog'liqlik.

Ushbu tadqiqot orqali o'spirinlarning online faoliyatlarini turli toifalarga ajratish va qaysi faoliyatlar ularning ruhiy bog'liqligi bilan eng yaqin bog'liq ekanini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Natijalar o'spirinlar uchun samarali online ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishda, shuningdek, psixologik farovonlikni oshirishda qo'llanilishi mumkin.

Katta maktab yoshidagi noto'g'ri va yetilmagan axloqiy tushunchalari to'g'risida turli vaqtlarda psixologlardan A.S. Alyakrinskaya, V.I. Selivanov, I.M. Krasnovaev, N.S. Lukin va boshqalar gapirib o'tganlar. V.I. Braskiyning bergan ma'lumotlariga qaraganda burch, vijdon, uyatsizlik, adolasizlik, faxrlanish kabi axloqiy tushunchalarning mazmunini tekshirib chiqilgan va o'rta maktabni bitiruvchi o'quvchilardan 44,5% gina bu hislarni bir qadar to'g'ri yoritib bergan. T.N. Mal'kovskayaning bergan ma'lumotlariga qaraganda, yuqori sinf o'quvchilaridan 94% vijdonlilikni ma'naviy fazilat deb yuqori baholaganlari holda o'qituvchilar va ota-onalarni aldash mumkin, deb hisoblaydilar.

Tadqiqot 50 nafar 17 yoshli o'spirinlar (11-sinf o'quvchilari) o'rtasida o'tkazildi. Ishtirokchilarga maxsus tuzilgan 12 savoldan iborat so'rovnoma taqdim etildi. So'rovnoma Likert shkalasi (1 dan 5 gacha) asosida baholandi. Savollar o'spirinlarning internetda o'tkazgan vaqti, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati, hissiy charchoq va ruhiy holati bilan bog'liq. Olingan natijalar foizlar orqali tahlil qilindi.

1-rasm



Quyidagi jadvalda 50 nafar o‘spirinning ruhiy holat darajasi keltirilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, o‘spirinlarning aksariyati o‘rtacha darajada ruhiy charchoqni boshdan kechirgan.

1-jadval

Ruhiy holat darajasi	Ishtirokchilar soni	Foiz (%)
Past	12	20%
O‘rtacha	26	52%
Yuqori	12	28%

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarning asosiy qismi — 26 nafar (52%) o‘spirinlarda ruhiy holatning o‘rtacha darajasi kuzatildi. Bu holat ularning internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi kundalik hayotiga sezilarli, biroq keskin salbiy ta’sir ko‘rsatmayotganini anglatadi. Shu bilan birga, 12 nafar (20%) ishtirokchida ruhiy holatning past darajasi aniqlangan bo‘lib, bu internetdan haddan tashqari foydalanish bilan bog‘liq hissiy charchoq va psixologik zo‘riqish ehtimolini ko‘rsatadi. Aksincha, 12 nafar (28%) o‘spirinda ruhiy holatning yuqori darajada ekanligi qayd etildi, bu esa ularning internetdan foydalanishida o‘zini nazorat qilish qobiliyati va ruhiy barqarorlik nisbatan yaxshi shakllanganidan dalolat beradi. Tadqiqot natijalarida o‘smirlarning 52% ida o‘rtacha darajada ruhiy charchoq kuzatilgani inobatga olinib, quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- ✓ Ekran vaqtini me’yorlashtirish. O‘smirning kunlik online faoliyati ertainlangan limit asosida tashkil etilishi ruhiy charchoqning oldini oladi. Masalan, darsdan tashqari online vaqtni 1,5–2 soat bilan chegaralash tavsiya etiladi.
- ✓ Raqamli gigiyena qoidalarini joriy etish. Uzluksiz internetdan foydalanish o‘rniga qisqa tanaffuslar qilish, kechki payt yorqin ekranga qarashni kamaytirish va uyqudan oldin gadjetdan foydalanmaslik ruhiy holatni yaxshilaydi.
- ✓ Sport va jismoniy faollikni kuchaytirish. Yengil mashqlar, yugurish yoki sport to‘garaklarida qatnashish stressni kamaytiradi va bosh miya faolligini tiklaydi.
- ✓ Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish. Ota-onalar, o‘qituvchilar va tengdoshlar bilan ochiq muloqot o‘smirning hissiy tarangligini pasaytiradi.
- ✓ Kun tartibini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish. Uxlash, dars qilish, hordiq chiqarish va o‘yin vaqtlarini aniq tartib asosida tashkil etish ruhiy zo‘riqishni sezilarli kamaytiradi.
- ✓ Stressni boshqarish texnikalarini o‘rgatish. Nafas mashqlari, “mindfulness”, meditatsiya va diqqatni jamlash mashqlari o‘smirning emotsional barqarorligini kuchaytiradi.

✓ Offline (raqamsiz) mashg‘ulotlarni ko‘paytirish. Kitob o‘qish, ijodiy mashg‘ulotlar (rasm, musiqa), tabiatda sayr qilish o‘smirning psixologik tiklanishi uchun juda foydali.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘spirinlarning internetda o‘tkazgan vaqti va ruhiy holati o‘rtasida ma’lum bog‘liqlik mavjud. O‘rtacha darajada online faoliyat ijobiy axborot olish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirsa, ortiqcha foydalanish esa charchoq, stress va o‘zini baholashdagi pasayishga olib keladi. Shu sababli, ota-onalar va pedagoglar o‘spirinlarga internetdan oqilona foydalanishni, dam olish va real ijtimoiy muloqotni muvozanatda ushlashni o‘rgatishlari lozim. Ushbu tadqiqot o‘spirinlarning online faoliyatlari va ruhiy bog‘liqligi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘spirinlarning online faoliyatlarda muntazam ishtiroki ularning psixologik farovonligi bilan yaqin bog‘liqdir. Xususan, faol muhokamalar, guruh loyihalari va kontent bilan faol o‘zaro ta’sir o‘spirinlarning ruhiy bog‘liqligini oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, tadqiqot online faoliyatlarga ishtirok etishning vaqt bo‘yicha afzalliklari ham ruhiy bog‘liqlik darajasiga ta’sir qilishini aniqladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘spirinlar uchun online faoliyatlarni rejalashtirishda individual vaqt afzalliklarini hisobga olish muhimdir.

Umuman olganda, o‘spirinlarning online faoliyatlarini turli toifalarga ajratib, ularni ruhiy bog‘liqlik bilan bog‘lash orqali samarali online ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish mumkin. Tadqiqot natijalari pedagoglar va psixologlar uchun o‘spirinlarning psixologik farovonligini oshirish va online ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda qo‘llanilishi mumkin. Pedagoglar o‘spirinlarning online faoliyatlarini turli interaktiv shakllarda tashkil etib, ularning ruhiy bog‘liqligini oshirishga e’tibor qaratishlari kerak. Online faoliyatlarni rejalashtirishda o‘spirinlarning individual vaqt afzalliklarini hisobga olish tavsiya etiladi. Faol muhokamalar va guruh loyihalari kabi kooperativ faoliyatlar ruhiy bog‘liqlikni oshirishga yordam berishi sababli, ularni online ta’lim dasturlariga ko‘proq kiritish lozim. Ota-onalar va psixologlar o‘spirinlarning online faoliyatlarini kuzatib, ruhiy farovonlikni qo‘llab-quvvatlash uchun zarur maslahat va yordamni taqdim etishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva D. Yoshlar psixologiyasi. - Toshkent: “Fan nashriyoti” 2021. (245-bet)
2. Xudayberdiyev M. O‘spirinlar rivojlanishining psixologik xususiyatlari. - Toshkent: “O‘qituvchi”. 2020. (198 bet).
3. Sattorov A. O‘smir yoshida emotsional holat va uning shakllanish omillari. – Toshkent: “Psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar jurnali”, 4(2), 2022. (55–63-betlar).
4. Rasulova N. Online muhitning o‘quvchilarga ta’siri: psixologik tahlil. “Ta’lim va innovatsiya”, 5(1), 2023. (112–118-betlar).

5. To‘raxonova M. Rivojlanish psixologiyasi. - Toshkent: Yangi asr avlodi. 2019. (310 bet).
6. Qodirova L. Zamonaviy texnologiyalar va o‘quvchi yoshlar ruhiyati. – Toshkent: “O‘zbekiston psixologiya jurnali”, 3(4), 2021. 88–94-betlar.
7. Jo‘rayev X. O‘spirinlarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning psixologik oqibatlari. – Toshkent: “Pedagogik ta’lim jurnali”, 2(6), 2022. 45–51-betlar.
8. Twenge J. M., & Campbell, W. K. Associations between screen time and lower psychological well-being among adolescents. 2021
9. Preventive Medicine Reports, 12, 271–283.Odgers, C. L., & Jensen, M. R. (2020).
10. Adolescent mental health in the digital age. Journal of Child Psychology and Psychiatry, 61(3), 336–348.
11. Przybylski, A. K., & Weinstein, N. Quantifying relations between digital-screen use and adolescent well-being. Psychological Science, 28(2), 2017. 204–215.
12. http://ziyonet.uz – Ta’lim portali ZiyoNET
13. http://natlib.uz – Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi.
14. https://www.oecd.org/skills/piaac/
15. http://dip–psi.ru/psikhologicheskiye–testy/post/metodika–mac–m–kubyshkina

UDK 37.014.5:336.14(575.1+47)

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA MOLIYA-XO‘JALIK FAOLIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH: O‘ZBEKISTON VA MDH DAVLATLARI TAJRIBASI

Umarov Bahodir Aripovich,
A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining moliya-xo‘jalik faoliyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish masalalari O‘zbekiston va qo‘shni MDH davlatlari (Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Rossiya) tajribasi asosida qiyosiy o‘rganilgan. Maktablarning moliyaviy avtonomiyasi, budjetdan tashqari mablag‘lar boshqaruvi, ichki nazorat, raqamli monitoring va ochiq hisobot tizimlarining amaldagi holati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: maktab budjeti, moliyaviy avtonomiya, budjetdan tashqari mablag‘lar, ichki audit, raqamli monitoring, shaffof hisobot, ta’lim menejmenti.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДНИХ ШКОЛАХ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И СТРАН СНГ

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы совершенствования механизма управления финансово-хозяйственной деятельностью общеобразовательных учреждений на основе сравнительного анализа опыта Узбекистана и соседних стран СНГ (Казахстан, Кыргызстан, Таджикистан, Россия). Проанализированы финансовая автономия школ, управление внебюджетными средствами, внутренний контроль, цифровой мониторинг и актуальное состояние системы открытой отчетности.

Ключевые слова: школьный бюджет, финансовая автономия, внебюджетные средства, внутренний аудит, цифровой мониторинг, прозрачная отчетность, управление образованием.

IMPROVING THE MECHANISM FOR MANAGING FINANCIAL AND ECONOMIC ACTIVITIES IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS: THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN AND THE CIS COUNTRIES

Annotation. The article examines issues of improving the management mechanism of financial and economic activities of general education institutions

based on a comparative study of the experience of Uzbekistan and neighboring CIS countries (Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Russia). The study analyzes school financial autonomy, management of off-budget funds, internal control, digital monitoring, and the current state of open reporting systems.

Key words: school budget, financial autonomy, off-budget funds, internal audit, digital monitoring, transparent reporting, educational management.

Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish tizimining samaradorligi ta'lim sifati, boshqaruv natijadorligi va infratuzilma barqarorligining tayanch omili hisoblanadi. O'zbekistonda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar moliyaviy boshqaruvning shaffofligini oshirish, maktab darajasida resurslardan maqsadli foydalanish va hisobdorlikni kuchaytirishga qaratilgan. Ayniqsa, maktab moliya-xo'jalik faoliyatini boshqarish mexanizmini modernizatsiya qilish, direktor vakolatlarini kengaytirish va ichki nazorat tizimlarini raqamlashtirish masalasi ilmiy-amaliy dolzarblik kasb etmoqda.

13.00.07 — Ta'limda menejment ixtisoslik shifri doirasida mazkur masala maktab boshqaruvining institutsional modeli, moliyaviy avtonomiya, resurs taqsimoti va nazorat tizimlarining uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim natijadorligini oshirish kontekstida o'rganilishi talab etiladi.

Maqolaning maqsadi — umumiy o'rta ta'lim muassasalarida moliya-xo'jalik faoliyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston va qo'shni MDH davlatlari tajribasini qiyosiy tahlil qilish hamda amaliyotga joriy etish uchun yaxlit ilmiy model taklif etishdan iborat.

Maktab moliyaviy boshqaruvi masalalari xalqaro ilmiy makonda "school-based financial management" kontseptsiyasi, budjet shaffofligi va maktab avtonomiyasi nuqtai nazaridan keng o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar maktab moliya boshqaruvining samaradorligi, direktor vakolatlari va jamoatchilik ishtirokini oshirishga qaratilgan mexanizmlarni aniqlashga xizmat qiladi. MDH mamlakatlarida bu yo'nalish o'ziga xos ilmiy yo'nalishlarda rivojlangan va har bir davlat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, ta'lim tizimi strukturalari va boshqaruv tajribasiga asoslanib ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqqan.

Rossiyada maktab moliyaviy boshqaruvi sohasida bir qator fundamental tadqiqotlar olib borilgan. I.A. Popova (2004, Moskva) dissertatsiyasida ta'lim muassasasining moliya-xo'jalik faoliyatini boshqarishning axborot tizimini yaratish masalasi nazariy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot maktab moliyaviy jarayonlarini raqamlashtirish, xarajatlarni monitoring qilish va ma'lumotlar bazasi orqali ichki nazoratni yo'lga qo'yish mexanizmlarini batafsil yoritadi, shuningdek, maktab resurslarini samarali boshqarishning axborot tizimi asoslarini aniqlaydi.

M. Pinskaya (2014) "School Budget Efficiency and Public Control in CIS Countries" nomli ishida maktab budjeti samaradorligi, budjet xarajatlarining maqsadliligi, maktab kengashlari va jamoatchilik nazorati mexanizmlari o'rganilgan. Tadqiqot natijalari maktab budjeti boshqaruvining samaradorligi va jamoatchilik ishtiroki o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy asoslab bergan.

A. Zolotareva (2020) "Educational Budget Monitoring and Efficiency in CIS" mavzusida ta'lim budjeti ijrosining samaradorligini baholash, xarajat monitoringini kuchaytirish va maktab resurslarini boshqarishda davlat nazorati bilan integratsiya mexanizmlari tadqiq qilingan. Ushbu ish ta'lim resurslarini boshqarishning zamonaviy monitoring tizimlari va raqamli platformalarini joriy etishning ilmiy asoslarini beradi.

Qozog'istonda K.A. Esenova (2021, Olmaota) "Maktab rahbarlarining moliyaviy menejment kompetensiyalari va maktab avtonomiyasi" mavzusida tadqiqot olib borgan. Ish maktab direktorlarining moliyaviy qarorlar bo'yicha kompetensiyasi, per-capita moliyalashtirish modeli, budjet boshqaruvining desentralizatsiyasi va ichki audit tizimlarining maktab boshqaruv sifati bilan bog'liqligini tizimli tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari maktab rahbarlarining moliyaviy qaror qabul qilish qobiliyatining butun maktab faoliyatiga ta'sirini ko'rsatadi.

Qirg'izistonda J. Kanybekova (2022, Bishkek) "Maktab resurslari va budjetdan tashqari mablag'lar boshqaruvi shaffofligi" mavzusida tadqiqot olib borgan. Ishda ota-onalar va homiy mablag'laridan foydalanish mexanizmlari, ularni nazorat qilish va jamoatchilikka hisobot berish tizimlaridagi institutsional kamchiliklar ilmiy jihatdan aniqlangan. Tadqiqot natijalari maktab moliyaviy boshqaruvi tizimlarida shaffoflikni oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha muhim tavsiyalar beradi.

Tojikistonda F. Rajabov (2021, Dushanbe) "Ta'lim resurslari menejmenti va budjet samaradorligi" mavzusida umumta'lim muassasalarida resurslardan foydalanish samaradorligi, budjet ijrosini baholash metodlari va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini tahlil qilgan.

N.A. Saidova (2023, Dushanbe) "Umumta'lim xizmatlarini boshqarish va moliyaviy jarayonlarni optimallashtirish" mavzusida maktablarda moliyaviy xizmatlar boshqaruvi, budjet sarfini rejalashtirish va samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan amaliy mexanizmlar tadqiq qilingan. Ushbu ish maktab moliyaviy boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish va raqamli monitoring vositalarini joriy etish bo'yicha ilmiy asoslarni beradi.

Shu tarzda, MDH mamlakatlaridagi maktab moliyaviy boshqaruvi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar budjet samaradorligi, moliyaviy avtonomiya, ichki audit va jamoatchilik nazorati masalalarini tizimli, ilmiy nuqtai nazardan yoritadi. Ushbu tadqiqotlar nafaqat maktab moliyaviy boshqaruvining zamonaviy modelini shakllantirish, direktor vakolatlarini kengaytirish va budjet resurslarini shaffof taqsimlash mexanizmlarini yaratishga, balki maktablarda raqamli monitoring tizimlarini integratsiya qilish va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu ilmiy tadqiqotlar MDH mamlakatlarida maktab moliyaviy boshqaruvi amaliyotini takomillashtirish, direktorlar va boshqaruv xodimlarini malakasini oshirish hamda ta'lim sohasida moliyaviy boshqaruvga zamonaviy

yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha aniq ilmiy tavsiyalarni shakllantirish imkonini beradi.

Maktab moliyaviy boshqaruvi mexanizmlarining amaldagi holati: O‘zbekiston va MDH qiyosi

1-jadval

Asosiy yo‘nalish	O‘zbekiston (2020–2025)	Qozog‘iston	Qirg‘iziston	Tojikiston	Rossiya
Moliyaviy avtonomiya	Markazlashgan, direktor vakolati cheklangan	Desentralizatsiya kuchli, School Board ishtiroki mavjud	Qisman desentralizatsiya	Juda past, markaziy boshqaruv ustuvor	Avtonomiya elementlari bor, lekin davlat nazorati qat’iy
Budjetdan tashqari mablag‘lar boshqaruvi	Mavjud, lekin indikator tizimi yo‘q	Indikatorlar, grant va daromad yo‘nalishi aniqroq	Donorlar loyihalarida shaffoflik talab qilinadi	Mexanizm zaif	Ochiq portal va School Board nazorati mavjud
Ichki nazorat / audit	Raqamlashtirish past, ichki audit endi kuchaymoqda	Ichki audit va kompetensiya baholash bor	Xalqaro loyihalar bilan qo‘llab-quvvatlanadi	Zaif, endi rivojlanmoqda	Tizimli va raqamli audit integratsiyasi mavjud
Digital monitoring	Fragmentar platformalar bor, yagona ERP yo‘q	Hududiy dashboardlar rivojlanmoqda	Grant tizimlarida monitoring bor	Endi shakllanmoqda	2000-yillardan EMIS va moliya monitoringi joriy
Shaffof hisobot	Yetarli emas, jamoatchilikka to‘liq ochiq emas	Portal va hududiy ochiq data mavjud	Donorlar talabi bo‘yicha ochiqlik bor	Past	“Open Budget” dashboard va davlat portallari mavjud

Yuqoridagi ishlar maktab budjeti samaradorligi, nazorat tizimi va raqamlashtirish bo‘yicha muhim xulosalarni beradi, lekin O‘zbekiston maktablari

sharoitida budjetdan tashqari mablag‘lar sarfini indikatorlar asosida boshqarish va nazoratni yagona ERP-dashboard platformasiga to‘liq integratsiya qilish modeli hali kompleks tadqiq qilinmagan. Bu esa muammoning dolzarbligini asoslaydi.

Maktab moliyaviy boshqaruvi bir qator asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha moliyaviy avtonomiya, budjetdan tashqari mablag‘lar boshqaruvi, ichki nazorat va audit, raqamli monitoring hamda shaffof hisobot tizimlari mamlakatlar tajribasida farqlanadi.

O‘zbekiston maktablarida moliyaviy avtonomiya markazlashgan bo‘lib, direktor vakolatlari chegaralangan. Bu esa maktab rahbarining moliyaviy qarorlar qabul qilish imkoniyatini cheklaydi. Qozog‘istonda esa desentralizatsiya kuchli rivojlangan va maktab kengashlari (School Board) moliyaviy qaror qabul qilish jarayoniga faol jalb etilgan. Qirg‘izistonda desentralizatsiya qisman joriy etilgan, maktab direktorlariga cheklangan moliyaviy vakolatlar berilgan. Tojikistonda moliyaviy avtonomiya juda past bo‘lib, markaziy boshqaruv ustuvor hisoblanadi. Rossiyada avtonomiya elementlari mavjud, lekin davlat nazorati juda qat’iy va budjet resurslarini taqsimlashda muhim rol o‘ynaydi.

Budjetdan tashqari mablag‘lar boshqaruvi tahlil qilinsa**,** O‘zbekiston maktablarida budjetdan tashqari mablag‘lar mavjud, ammo indikatorlarga asoslangan tizim hali shakllanmagan. Qozog‘istonda mablag‘lar boshqaruvi indikatorlar bilan aniq tartibga solingan, grantlar va daromad yo‘nalishlari aniq belgilangan. Qirg‘izistonda donorlar loyihalari orqali mablag‘lar boshqaruviga shaffoflik talablari qo‘yilgan. Tojikistonda esa budjetdan tashqari mablag‘lar boshqaruvi mexanizmi zaif, samarali nazorat tizimi rivojlanmagan. Rossiyada ochiq portal va maktab kengashlari nazorati orqali mablag‘larning shaffofligi ta’minlangan.

Ichki nazorat va audit yo’nalishida O‘zbekistonda ichki nazorat va audit tizimi raqamlashtirish darajasi past bo‘lib, endi shakllanmoqda. Qozog‘istonda ichki audit tizimi va kompetensiya baholash mavjud. Qirg‘izistonda esa xalqaro loyihalar yordamida ichki audit faoliyatini qo‘llab-quvvatlash ishlari olib borilmoqda. Tojikistonda ichki audit tizimi zaif rivojlangan, endi shakllanish bosqichida. Rossiyada tizimli va raqamli audit integratsiyasi mavjud bo‘lib, budjet ijrosi va moliyaviy jarayonlarni kuzatish samarali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston maktablarida fragmentar platformalar mavjud bo‘lib, yagona ERP tizimi joriy qilinmagan. Qozog‘istonda hududiy dashboardlar rivojlanmoqda va moliyaviy monitoringning texnologik imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Qirg‘izistonda grant tizimlarida monitoring mexanizmlari mavjud. Tojikistonda raqamli monitoring tizimi endigina shakllanmoqda. Rossiyada esa 2000-yillardan buyon EMIS va moliya monitoringi tizimi joriy etilgan bo‘lib, moliyaviy resurslar va budjet ijrosi doimiy nazorat qilinadi.

O‘zbekistonda shaffof hisobot tizimi yetarli darajada rivojlanmagan va jamoatchilikka to‘liq ochiq emas. Qozog‘istonda portal va hududiy ochiq data orqali hisobot berish tizimi mavjud. Qirg‘izistonda donorlar talabi bo‘yicha shaffoflik ta’minlangan. Tojikistonda shaffof hisobot darajasi past bo‘lib, jamoatchilikka

ochiqlik darajasi cheklangan. Rossiyada “Open Budget” dashboard va davlat portallari orqali shaffof hisobot tizimi samarali ishlaydi.

O‘zbekiston maktab moliyaviy boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy model (qo‘shni MDH tajribasi bilan uyg‘unlashtirilgan) O‘zbekiston maktablarida moliyaviy boshqaruv tizimini samarali qilish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, qo‘shni MDH mamlakatlarining ilg‘or tajribalari asosida shakllantirilgan. Model uch asosiy komponentdan iborat:

1. Financial Autonomy + Competency Certification (Moliyaviy avtonomiya va kompetensiya sertifikatlash). Ushbu komponent maktab direktorining moliyaviy avtonomiyasini kengaytirishni va qaror qabul qilish jarayoniga maktab kengashini jalb qilishni nazarda tutadi. Direktor budjet yo‘nalishlarini maktab kengashi bilan birgalikda tasdiqlash orqali qarorlarning shaffof va mas’uliyatli bo‘lishini ta’minlaydi. Shuningdek, moliya menejmenti bo‘yicha sertifikatlash majburiy qilib belgilanishi rejalashtirilgan. Bu tadbir Qozog‘iston (Esenova) va Rossiya (Pinskaya) tajribasida direktorlarning moliyaviy kompetensiyasi budjet samaradorligi va shaffoflik bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatgani asosida ishlab chiqilgan. Sertifikatlash orqali direktorlar moliyaviy qarorlarni qabul qilish bo‘yicha zarur nazariy va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Bu komponent moliyaviy avtonomiya va nazoratni uyg‘unlashtirish orqali direktor mas’uliyatini oshirish, qarorlar sifatini yaxshilash va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

2. Indicator-Based Extra-Budgetary Fund Allocation (Budjetdan tashqari mablag‘larni indikatorlar bo‘yicha taqsimlash). Ushbu mexanizm budjetdan tashqari mablag‘larning maqsadli va samarali ishlatilishini ta’minlaydi. Mablag‘lar uchta asosiy indikator bo‘yicha taqsimlanadi:

- ta’lim sifati – o‘quv jarayonini yaxshilash, o‘quvchilar ko‘rsatkichlarini oshirish;
- infratuzilma – maktab binolari, jihozlar va texnik imkoniyatlarni rivojlantirish;
- o‘qituvchini rag‘batlantirish – pedagoglarni motivatsiya qilish va professional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash.

Bu komponent mablag‘lar sarfini ta’lim natijalari va infratuzilmaga bog‘lash orqali resurslardan maksimal darajada samarali foydalanishni kafolatlaydi. O‘zbekiston va Tojikiston tajribasida shuni ko‘rsatadiki, mablag‘larni indikatorlar bilan bog‘lamasdan taqsimlash samaradorlikni pasaytiradi.

3. Unified School Open Budget ERP-Dashboard Monitoring (Yagona maktab ochiq budjet ERP va dashboard monitoringi). Ushbu komponent maktab moliyaviy jarayonlarini raqamlashtirish va shaffof nazoratni ta’minlashga qaratilgan. Asosiy xususiyatlari shundaki, xarajatlar real vaqt rejimida kuzatiladi, bu moliyaviy oqimlarni doimiy monitoring qilish imkonini beradi. Ichki audit xulosalari platformaga yuklanadi, ya’ni har bir audit natijalari tizimda mavjud bo‘lib, qaror qabul qilish jarayonida foydalaniladi. Risk-signal alert tizimi ham mavjud bo‘lib,

potentsial moliyaviy xavflar va korrupsion holatlar vaqtida aniqlanadi. Ayni vaqtda hisobotlar jamoatchilik uchun ochiq bo‘ladi, bu shaffoflikni oshiradi va jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi.

Ushbu komponent O‘zbekiston maktablarida raqamli monitoringning yetishmasligini bartaraf etadi va ichki nazoratning formal tus olishini oldini oladi. Rossiya va Qozog‘iston tajribasida bunday platformalar jamoatchilik ishonchini oshirish va korrupsion risklarni kamaytirishda samarali ekanligi isbotlangan.

Mazkur ilmiy model moliyaviy avtonomiya, indikatorlar asosida mablag‘larni taqsimlash va raqamli monitoringni birlashtirgan integratsiyalashgan yondashuvni taklif qiladi. Model nafaqat direktor vakolatlari va jamoatchilik nazoratini uyg‘unlashtiradi, balki resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi, shaffoflikni ta’minlaydi va moliyaviy risklarni kamaytiradi. Shu tarzda, O‘zbekiston maktab moliyaviy boshqaruvi tizimini zamonaviy va xalqaro standartlarga moslashtirish mumkin.

Modelning kutilayotgan natijadorligi

2-jadval

KPI yo‘nalish	Kutilayotgan o‘zgarish
Budjet sarfi samaradorligi	15–25% gacha optimallashuv
Hisobot shaffofligi	2 barobar oshishi
Ichki nazorat tezkorligi	Real time alert orqali 70% tez aniqlash
Direktorning moliyaviy qaror sifati	Sertifikatlashdan keyin 30% yaxshilanish
Jamoatchilik ishonchi	40–60% gacha oshishi

Xulosa qilib aytganda, maktab moliyaviy boshqaruvi tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish uchun bir qator muhim tamoyillar mavjudligi aniqlangan. Birinchi navbatda, maktab moliyaviy avtonomiyasi faqat direktor vakolatlari bilan cheklanib qolmasdan, uning moliyaviy kompetensiyasi va jamoatchilik nazorati bilan bir paketda kengaytirilishi zarur. Qozog‘iston va Rossiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, direktorlarning moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyati va jamoatchilikning faol ishtiroki birgalikda moliyaviy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ikkinchidan, budjetdan tashqari mablag‘lar sarfi ta’lim sifati indikatorlari bilan bog‘lanmagan mamlakatlarda resurslardan foydalanish samaradorligi past bo‘ladi. O‘zbekiston va Tojikiston amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, mablag‘larning maqsadli taqsimlanmasligi ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qilmaydi va maktab resurslarining optimal ishlatilishini cheklaydi. Shu sababli mablag‘larni indikatorlar va natijalar asosida boshqarish mexanizmlari joriy etilishi muhimdir.

Uchinchidan, raqamli monitoring tizimlari fragmentar bo‘lsa, ichki nazorat formal tus oladi va potentsial risklar vaqtida aniqlanmaydi. O‘zbekiston va Qirg‘iziston tajribalarida kuzatilganidek, moliyaviy jarayonlarni raqamli vositalar orqali uzluksiz monitoring qilish tizimi yetishmasligi, budjet va mablag‘lar sarfini

samarali nazorat qilish imkoniyatini kamaytiradi. Shu sababli, yagona raqamli platforma va monitoring dashboardlarini joriy etish zarur.

To‘rtinchidan, maktab budjeti bo‘yicha ochiq dashboard tizimini joriy etish jamoatchilik ishonchini oshiradi va korrupsion risklarni sezilarli darajada kamaytiradi. Rossiya "Open Budget" amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, shaffof hisobot tizimi orqali mablag‘larning qayerga va qanday sarflangani bo‘yicha jamoatchilik doimiy nazoratga ega bo‘ladi, bu esa moliyaviy jarayonlarning shaffofligini ta'minlaydi va direktorlarning mas'uliyatini oshiradi.

Umuman olganda, yuqoridagi tamoyillar asosida maktab moliyaviy boshqaruvining samarali modeli quyidagi elementlarni o‘z ichiga olishi lozim:

- direktor vakolatlari va moliyaviy kompetensiyasini kengaytirish;
- jamoatchilik va maktab kengashlarini faol jalb etish;
- mablag‘larning taqsimlanishini ta'lim sifati indikatorlariga bog‘lash;
- ichki audit va nazorat tizimini raqamli monitoring bilan integratsiya qilish;
- ochiq, shaffof hisobot tizimlarini joriy etish orqali korrupsion xavflarni kamaytirish.

Shu asosda, MDH mamlakatlari va O‘zbekiston tajribasi maktab moliyaviy boshqaruvini takomillashtirishda integratsiyalashgan yondashuvni, ya'ni avtonomiya, shaffoflik, raqamli monitoring va jamoatchilik nazorati elementlarini birlashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Popova, I. Information system for financial management in educational institutions (PhD Thesis). 2004.
2. Pinskaya, M. School Budget Efficiency and Public Control in CIS Countries. 2014.
3. Zolotareva, A. Educational Budget Monitoring and Efficiency in CIS. 2020.
4. Esenova, K.A. Financial competencies of school leaders and autonomy in Kazakhstan, 2021.
5. Kanybekova, J. Transparency of extra-budgetary fund management in Kyrgyz schools. 2022.
6. Rajabov, F. Education resource management and budget efficiency in Tajikistan, 2021.
7. Saidova, N.A. Improving management of financial services in general education schools. 2023.
8. Попова И.А. Информационная система управления финансово-хозяйственной деятельностью образовательного учреждения. Москва, 2024.
9. Пинская М. Эффективность школьного бюджета и общественный контроль в странах СНГ. Москва, 2014.
10. Золотарева А. Мониторинг и эффективность образовательного бюджета в СНГ. Москва, 2020.

11. Каныбекова Ж. Прозрачность управления внебюджетными средствами школ Кыргызстана. 2022.
12. Ражабов Ф. Управление образовательными ресурсами и эффективность бюджета в Таджикистане. Душанбе, 2021.
13. Саидова Н.А. Совершенствование управления финансовыми услугами в общеобразовательных школах Таджикистана. Душанбе, 2023.

UDK 159.9.075

ER-XOTIN O‘RTASIDAGI ZIDDIYATLARNING FARZAND TARBIYASIGA TA’SIRI

Nurmonov Asliddin Xusniddin o‘g‘li,

ISFT instituti katta o‘qituvchisi,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

Annotatsiya. Er-xotin o‘rtasidagi ziddiyatlar farzandning emotsional holati, xulq-atvori va ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Oilaviy nizolarning davomiyligi va hal etilish usullari bolalarda psixologik barqarorlik yoki aksincha, xavotir, agressiya va ijtimoiy chekinish holatlarining shakllanishiga sabab bo‘ladi. Tadqiqotda ota-ona munosabatlarining farzand tarbiyasidagi roli psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: er-xotin ziddiyati, oila muhiti, farzand tarbiyasi, psixologik rivojlanish, emotsional holat.

ВЛИЯНИЕ СУПРУЖЕСКИХ КОНФЛИКТОВ НА ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ

Аннотация. Супружеские конфликты оказывают значительное влияние на эмоциональное состояние, поведение и социальную адаптацию детей. Характер и способы разрешения семейных разногласий определяют формирование психологической устойчивости либо развитие тревожности, агрессивности и социальной изоляции у ребёнка. В работе анализируется влияние родительских отношений на воспитание детей с психологической точки зрения.

Ключевые слова: супружеский конфликт, семейная среда, воспитание детей, психологическое развитие, эмоциональное состояние.

THE IMPACT OF MARITAL CONFLICTS ON CHILD UPBRINGING

Annotation. Marital conflicts have a significant impact on children’s emotional well-being, behavior, and social adjustment. The intensity and resolution strategies of family conflicts play a crucial role in shaping either psychological resilience or negative outcomes such as anxiety, aggression, and social withdrawal. The study examines the influence of parental relationships on child upbringing from a psychological perspective.

Key words: marital conflict, family environment, child upbringing, psychological development, emotional well-being.

Er-xotin o‘rtasidagi ziddiyatlar bolaning kognitiv rivojlanishiga ham bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Stressli oilaviy muhitda bolaning diqqatni jamlash qobiliyati pasayadi, o‘qishga bo‘lgan motivatsiya susayadi va akademik muvaffaqiyat darajasi kamayishi mumkin. Doimiy emotsional zo‘riqish bolaning bilish jarayonlarini samarali ishlashiga to‘sqinlik qiladi, chunki psixik energiyaning katta qismi himoyaviy mexanizmlarga sarflanadi. Ota-ona o‘rtasidagi nizolar bolaning shaxsiy identifikatsiyasi va jinsiy rolni o‘zlashtirish jarayoniga ham ta’sir etadi. Bola o‘z jinsiga mansub ota-onaning xulq-atvorini kuzatib, uni ichki model sifatida qabul qiladi. Agar bu model ziddiyatli, tajovuzkor yoki mas’uliyatsiz bo‘lsa, bola kelajakdagi oilaviy munosabatlarni ham shu tarzda tasavvur qilishi mumkin. Natijada munosabatlarga nisbatan salbiy kutishlar va ishonchsizlik shakllanadi.

Ziddiyatlarning surunkali davom etishi bolaning psixosomatik holatida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Bosh og‘rig‘i, uyqu buzilishlari, ishtaha pasayishi yoki tez-tez kasallanish kabi belgilar bolaning ichki emotsional zo‘riqishining tashqi ifodasiga aylanadi. Bola o‘z his-tuyg‘ularini verbal ifoda eta olmagan holatda, tana reaksiyalari orqali ichki holatini namoyon qiladi. Er-xotin o‘rtasidagi ziddiyatlar tarbiya jarayonida hissiy aloqaning sifatini pasaytiradi. Ota-onaning o‘zaro nizolarga berilib ketishi bolaga ajratiladigan e’tibor va emotsional qo‘llab-quvvatlashni kamaytiradi. Natijada bola o‘zini e’tibordan chetda qolgan, tushunilmagan va qadrsiz his qilishi mumkin. Bu holat bola va ota-ona o‘rtasidagi ishonchli munosabatlarning zaiflashishiga olib keladi.

Oila jamiyatning ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy tayanchi hisoblanadi. Inson oilada dunyoga keladi, undagi urf-odat, an’analarni, umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtiradi va dunyoqarashi shakllanadi. Nikoh va oila munosabatlari ijtimoiy masala sifatida hamma davrlarda olimlar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Oila turli o‘ziga xos qator xarakteristikalar (tarkibning geterogenligi, insonni oilaga kiritilganligining totalligi, polifunksionallik va hokazo)ni egallovchi kichik guruhning alohida turi sifatida bola shaxsini shakllantiradigan birlamchi ijtimoiy tizim sifatida ijtimoiy tajriba, ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalariga ega bo‘ladigan ilk ijtimoiy institut hisoblanadi[1]. Oila nafaqat individ xulq-atvorini shakllantiradi va belgilaydi, balki hayot davomida sezilarli darajada saqlanib qoladigan xulq-atvorning emotsional rejasini va tuzilishini to‘playdi, shu bilan birga har bir aniq davrda xulq-atvorga o‘zgaruvchan ta’sir ko‘rsatadi [2].

Er-xotin o‘rtasidagi ziddiyatlarning farzandlar tarbiyasiga ta’siri masalasi ko‘plab yetuk olimlar tomonidan empirik va nazariy jihatdan aniq pozitsiyalar asosida yoritilgan bo‘lib, ularning qarashlari bu hodisaning psixologik mexanizmlarini chuqur tushuntirib beradi.

J. Bowlby tomonidan ishlab chiqilgan bog‘lanish nazariyasiga ko‘ra, bolaning emotsional barqarorligi ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar sifatiga bevosita bog‘liq. Bowlby ta’kidlaganidek, ota-ona o‘rtasidagi doimiy nizolar bolaning asosiy bog‘lanish figurasi bilan xavfsiz emotsional aloqani shakllantirishiga to‘sqinlik qiladi. Natijada bolada xavfsiz bog‘lanish o‘rniga xavotirli yoki beqaror bog‘lanish

turi shakllanadi, bu esa tarbiya jarayonida itoatsizlik, ishonchsizlik va emotsional ehtiyojlarning qondirilmasligi bilan namoyon bo‘ladi.

A. Bandura ijtimoiy o‘rganish nazariyasida ota-ona o‘rtasidagi ziddiyatlarni bola uchun xulqiy model sifatida izohlaydi. Uning fikriga ko‘ra, bolalar nizolarni qanday hal qilishni bevosita kuzatish orqali o‘rganadi. Agar er-xotin ziddiyatlarni tajovuz, haqorat yoki e’tiborsizlik orqali hal qilsa, bola ham shunday xatti-harakatlarni normal va maqbul deb qabul qiladi. Bandura bu jarayonni kuzatuv orqali o‘rganishning eng kuchli shakli deb baholaydi.

E.Cummings va P.Davies tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ota-ona ziddiyatlarining bolaga ta’siri emotsional xavfsizlik nazariyasi orqali tushuntiriladi. Ularning aniq xulosasiga ko‘ra, bolalar ota-ona o‘rtasidagi nizolarni shaxsiy xavf sifatida idrok etadi. Ayniqsa, baland ovoz, agressiya va hal qilinmagan nizolar bolaning ichki emotsional tizimini izdan chiqaradi. Bu holat tarbiya jarayonida bolada doimiy xavotir, nazoratdan chiqish yoki regressiv xatti-harakatlarni yuzaga keltiradi.

S.Minuchin tomonidan asoslangan oilaviy tizimlar nazariyasida er-xotin o‘rtasidagi ziddiyatlar butun oila tizimining muvozanatini buzuvchi omil sifatida qaraladi. Minuchin aniq qayd etadiki, ota-ona subsistemasi zaiflashgan oilalarda bola ko‘pincha ziddiyat markaziga tortiladi. Natijada bola ota-onaning psixologik muammolarini “ko‘taruvchi” rolni egallaydi, bu esa tarbiya jarayonida yoshga mos bo‘lmagan mas’uliyat va emotsional yukni keltirib chiqaradi.

J.Gottman er-xotin munosabatlarini uzoq yillar kuzatish asosida ota-ona ziddiyatlarining farzandlarga ta’sirini aniq empirik dalillar bilan ko‘rsatgan. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, konstruktiv bo‘lmagan nikohiy nizolar bolalarda stress gormonlari darajasini oshiradi va bu holat uzoq muddatda emotsional o‘zini boshqarish qobiliyatini susaytiradi. Gottman bolalar uchun eng zararli omil ziddiyatning o‘zi emas, balki uning sovuqlik, mensimaslik va doimiy tanqid bilan kechishidir, deb ta’kidlaydi.

D.Baumrind ota-onalik uslublari haqidagi ishlarida er-xotin o‘rtasidagi kelishmovchiliklar tarbiya uslubining izchilligini buzishini ko‘rsatadi. Uning fikricha, ziddiyatli nikoh sharoitida ota-onalar ko‘pincha avtoritar yoki befarq tarbiya uslubiga o‘tib ketadi. Bu esa bolada mustaqillik, mas’uliyat va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarining to‘liq shakllanmasligiga olib keladi.

Shuningdek, M.Hetherington tadqiqotlarida ota-ona o‘rtasidagi surunkali ziddiyatlar bolalarning moslashuv strategiyalarini buzishini ilmiy asosda ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, bunday bolalar ijtimoiy vaziyatlarda haddan tashqari himoyaviy yoki moslashuvchan bo‘lib qoladi, bu esa tarbiya jarayonida shaxsiy chegaralarning noto‘g‘ri shakllanishiga sabab bo‘ladi. Bugungi kunda jamiyatda eng ko‘p muhokama qilinayotgan muammolardan biri bu oilaning kelajagi va oilaviy munosabatlar muammosidir. Zamonaviy ijtimoiy jarayonlar bosimi ostida oilaning kelajakdagi evolyutsiyasini oldindan aytish qiyin. Bir narsa aniq: o‘zgarishlar muqarrar. Ular oilaviy munosabatlarning yangi modellarining paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin va eski modellarni saqlab qolgan holda oiladagi ba’zi korreksion

harakatlar juda maqbuldir, ammo oilaviy munosabatlarning dastlabki shakllariga qaytish, ehtimol, imkonsizdir. Shu bilan birga, oilani madaniyatli shaxsni va insonparvar jamiyatni shakllantirish quroli sifatida boy bermaslik juda muhimdir. Shu munosabat bilan, oilaviy va nikoh munosabatlaridagi mumkin bo‘lgan tendensiyalarni aniqlash uchun ushbu munosabatlar ontologiyasini o‘rganishning ilmiy tarixiga murojaat qilish juda foydali.

Bugungi kunda jamiyatda eng ko‘p muhokama qilinayotgan muammolardan biri bu oilaning kelajagi va oilaviy munosabatlar muammosidir. Zamonaviy ijtimoiy jarayonlar bosimi ostida oilaning kelajakdagi evolyutsiyasini oldindan aytish qiyin. Bir narsa aniq: o‘zgarishlar muqarrar. Ular oilaviy munosabatlarning yangi modellarining paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin va eski modellarni saqlab qolgan holda oiladagi ba’zi korreksion harakatlar juda maqbuldir, ammo oilaviy munosabatlarning dastlabki shakllariga qaytish, ehtimol, imkonsizdir. Shu bilan birga, oilani madaniyatli shaxsni va insonparvar jamiyatni shakllantirish quroli sifatida boy bermaslik juda muhimdir. Shu munosabat bilan, oilaviy va nikoh munosabatlaridagi mumkin bo‘lgan tendensiyalarni aniqlash uchun ushbu munosabatlar ontologiyasini o‘rganishning ilmiy tarixiga murojaat qilish juda foydali.

Oila har doim fanda chuqur izlanishlar obyekti bo‘lib kelgan. O‘tmish mutafakkirlari va hozirgi zamon tadqiqotchilari oilaning mohiyatini tushunishga turlicha yondashganlar, lekin oilaga doimo ijtimoiy borliqning obyektiv shakli va jamiyatning ijtimoiy-qiymatli hodisasi sifatida qaralib kelgan. Bu borada turli ilmiy maktablar o‘zlarining tadqiqot an’analarini ishlab chiqdilar, ular orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Oilaning o‘rni va mohiyatini aniqlashga birinchi urinishlar oilaning patriarxal nazariyasini yaratgan (Aflotun) va oilaviy hayot muammolarini o‘rganishda an’analarni belgilab bergan qadimgi faylasuflarning asarlarida uchraydi.

Oila ijtimoiy tuzum va shaxsning tabiiy holatining asosi sifatida T.More va T.Kampanellalarning utopik nazariyalaridagi mukammal jamiyatda ko‘rib chiqildi. F.Bekon, T.Gobbs, J.J.Russo esa o‘z asarlarida oilaning mohiyatini tabiiy huquq nazariyasi va oilaning gumanistik nazariyasi nuqtai nazaridan oila ittifoqining asosi sifatida izohladi. Oila jamiyatning “birligi” sifatida K.Marks va F.Engelslarning shakllanish nazariyasida qayd etilgan.

I.Y.Baxofen va L.G.Morganning evolyutsion nazariyasida oila ijtimoiy o‘zgarishlarga ta’sir qiluvchi vositalardan biri sifatida o‘z o‘rnini egallaydi. Oilaning ko‘p funksiyaliligi mashhur amerikalik sotsiolog P.Sorokinning sotsial funksionalizm paradigmasida ochib berilgan.

Oila mavzusi rus madaniyatida, ayniqsa XIX asrning oxirida katta qiziqish uyg‘otdi; V.V.Rozanov yoki L.N.Tolstoy tomonidan belgilab qo‘yilgan oilani tushunishdagi qarashlar shular jumlasidandir. Rozanovning fikricha, oila bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan uch jihatga ega: ideal, moddiy va ijtimoiy. Ideal sifatda Vasiliy Rozanov oilani sirli, kosmik prinsip sifatida tasvirlaydi. Moddiy jihatdan oila ikki jinsning birlashmasi: erkak va ayol tamoyillarining muqaddas

aloqasi. V.Rozanov diqqatini, birinchi navbatda, oiladagi jismoniy va ma’naviyat jihatdan muqaddas uyg‘unlik tortadi. Ijtimoiy nuqtai nazardan, faylasufning fikricha, oila shaxsning shakllanishi va rivojlanishidagi birlamchi hayotiy tajriba bo‘lib, u ushbu jarayon kechishi va natijasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Rozanov fikricha, “oila shaxs taraqqiyotida maktabdan bir oz yuqoriroq darajada bo‘ladi”, lekin u oilani tarbiyaviy masalalarni hal qilishda “ijtimoiy majburiyat” sifatida hisoblamadi.

Oilaviy munosabatlar eng umumiy tarzda qaralganda, er-xotin munosabati, ota-onalik-farzandlar munosabatlaridan iborat. Bu munosabatlar mazmunida, shubhasiz, tabiiy munosabatlar – ota-onalik va farzandlik hissi, ya’ni qon-qardoshlik munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo bu hissiyotlar tabiiyligicha namoyon bo‘lmay, ijtimoiy shaklda axloqiy-estetik, psixologik munosabatlar tarzida namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, oilaviy munosabatlar tizimida tabiiy, axloqiy, estetik, psixologik munosabatlarni farqlash mumkin. Bundan tashqari iqtisodiy va huquqiy munosabatlar ham mavjud bo‘lib, ular oilani mustahkamlashda muhim mavqega ega [3].

1. Oilaviy munosabatlar, birinchi navbatda, er-xotin o‘rtasidagi tabiiy-biologik munosabatlarning tarkibiy qismidir. Erkak va ayolning bir-biriga intilishi tabiiy hodisa bo‘lib, bu munosabat bevosita oilaning asosini tashkil etadi. Jamiyat erkak va ayol o‘rtasidagi tabiiy-biologik munosabatning qay tarzda ro‘y berishiga befarq qarab turolmaydi. Chunki, ishlab chiqaruvchi kuchlarni saqlash va rivojlantirish, jamiyat a’zolarining o‘zaro munosabati madaniyatining takomillashuvi, kamoloti jamiyatning asosidir. Shuning uchun ham har bir jamiyatda erkak va ayol o‘rtasidagi tabiiy-biologik munosabatlar betartib, stixiyali ro‘y bermay, muayyan, barqaror, ijtimoiy-madaniy shaklda, nikoh yo‘li bilan bo‘lib, ular huquqiy qonunlar va axloq norma-qoidalari, urf-odat, jamoatchilik fikri, qolaversa davlat, jamoat tashkilotlari tomonidan boshqarilib boriladi. Oilaviy munosabatlarning shakllanishi jarayoniga e’tibor berar ekanmiz, nikoh va oilani bir-biridan farqlashimiz lozim. Nikoh oiladan ilgari vujudga kelgan bo‘lib, dastavval patriarxal oila vujudga kelishiga qadar, urug‘chilik davrida faqat jinsiy tabiiy hayotni boshqarib borgan. Oila vujudga kelgandan so‘ng esa, kishilar hayotning huquqiy, axloqiy va maishiy sohalariga ham kirib borgan. Bugungi rivojlangan jamiyatda esa, oilaviy munosabatlar madaniy xarakterga ega bo‘lib, albatta jamoatchilik fikri bilan hisoblashib, yashayotgan jamiyatdagi oila qurish an’analari va qonun-qoidalariga rioya qilib yashashni taqazo etadi.

2. Oilaviy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi — oila a’zolari o‘rtasidagi iqtisodiy-mulkiy munosabatdir, ya’ni oila turmushini tashkil etishdir. Yuqorida aytganimizdek, jamiyat o‘z a’zolari o‘rtasidagi tabiiy-biologik, shuningdek, qon-qarindoshlik, mulkiy munosabatlarni huquqiy qoidalari bilan boshqaruv boradi.

3. Oiladagi huquqiy munosabatlar oila a’zolarining o‘zaro huquqi va majburiyatlari yig‘indisidir. U oila hayotining eng muhim tomonlarini tartibga solib turadi hamda eng avvalo jismoniy kuchga — davlat muassasalari kuchiga tayanadi.

4. Oiladagi axloqiy munosabatlar mazmuni, ta’siri jihatidan huquqiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Biroq, axloqiy munosabatlarning ta’sir doirasi juda ikir-chikirlaridan tortib, oila hayotini hal qiluvchi hodisalargacha boshqarib turadi. Chunonchi, oila a’zolarining kiyinishi, ovqatlanishi, dam olishi, farzandlarini o‘qitishi, uylantirishi ham axloqiy qoidalar vositasi bilan boshqarilib turiladi. Shuning uchun ham mustaqillikka erishganimizdan keyingi oilaga oid tadqiqotlarning barchasi, mavzulari oilaviy munosabatlarning axloqiy jihatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, zamonaviy oilaning barcha jihatlariga e’tibor qaratilib, davlat siyosatining bu boradagi amalga oshirilayotgan yo‘nalishlarga e’tibor berilmoqda.

Oila ma’naviy hayotining muhim tarkibiy qismlaridan biri ruhiy munosabatlardir. Ruhiy munosabatlar ko‘p qirrali bo‘lib, u er-xotin o‘rtasidagi sevgi-muhabbat hissiyotini, ota-onalik, farzandlik mehri, shuningdek, oila a’zolarining kayfiyatlari, xulq, qiziqishlari va hokazolardir.

Oilada estetik munosabatlar, eng avvalo, er-xotining o‘zaro sevgi-muhabbatiga asoslanib, bir-birining ma’naviy va jismoniy go‘zalligini idrok qila bilishi va undan zavqlana olishi, otalik, onalikni go‘zalligini tushuna olishi va uni yuksak qadrlanishini ifodalaydi. Oilada estetik munosabatlar – oila hayotining tashqi ifodasi, namoyon bo‘lish shakli bo‘lgani holda, oilada axloqiy-ruhiy munosabatlarning rivojlanishiga, binobarin, oilaning mustahkamlanishiga kuchli ta’sir qiladi. Yuqorida ta’kidlangan munosabatlar tizimi o‘zaro aloqadorligi, ularning yaxlitligi, oilaviy munosabatlar madaniyatini ifodalaydi. Oilaviy munosabatlar madaniyati er-xotin o‘rtasidagi tabiiy-biologik munosabatlarni, oila a’zolari o‘rtasidagi qon-qarindoshlik munosabatlarini ifodalashi oilaning zaminini tashkil etadi.

Oiladagi ziddiyatlar farzandning psixologik rivojlanishi va xulq-atvoriga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Ota-ona o‘rtasidagi keskin munosabatlar bolada xavotir, ishonchsizlik va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarni kuchaytiradi. Aksincha, nizolarni tinch va ongli tarzda hal etish farzandda emotsional barqarorlik, sog‘lom munosabatlar modeli hamda ijobiy shaxsiy sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, oilaviy muhitdagi munosabatlar sifati farzand tarbiyasining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Oila doirasida yuzaga keladigan ziddiyatlar farzand tarbiyasida muhim psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ota-ona munosabatlaridagi beqarorlik bolada emotsional zo‘riqish, xulqiy muammolar va o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, sog‘lom muloqot va o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlar farzandning ruhiy muvozanatini saqlash, ijtimoiy faolligini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ананьев Б.Г. О проблемах современного человекознания. – М.: “Наука”, 1977. – 380 с.
2. Анисимов О.С. Акмеология и методология: проблемы психотехники и

мыслетехники. – М.: РАГС, 1998. – 772 с.
3. Абай Ибрагим Кунанбаев. Слова назидания. / Пер. с каз. – Алматы: “Payan”, 1995. – С. 5.
4. Bowlby J. Attachment and Loss. — New York: Basic Books, 1982. — 401p.
5. Cummings E. M., Davies P. T. Marital Conflict and Children: An Emotional Security Perspective. — New York: Guilford Press, 2010. — 320 p.
6. Grych J. H., Fincham F. D. Interparental conflict and child development: Theory, research, and applications // Psychological Bulletin. — 1990. — Vol. 108, No. 2. — P. 267–290.
7. Amato P. R. The consequences of divorce for adults and children // Journal of Marriage and Family. — 2000. — Vol. 62, No. 4. — P. 1269–1287.
8. Bornstein M. H. (Ed.). Handbook of Parenting: Children and Parenting. — Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2002. — 560 p.

UDK 159.9.075

ER-XOTIN O‘RTASIDA NIKOH MUNOSABATLARI BARQARORLIGINI TA’MINLOVCHI PSIXOLOGIK DETERMINANTLAR

Olimjonova Ziynat Bobomurod qizi,
Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada er-xotin o‘rtasidagi nikoh munosabatlarida psixologik determinantlar nazariy va integrativ yondashuv asosida ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot ishida nikoh barqarorligiga ta’sir etuvchi omillar: emotsional yaqinlik, kommunikativlik, psixologik moslik, konfliktni boshqarish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Zamonaviy oilaviy psixologik yondashuvlar asosida nikoh munosabatlari barqarorligining ko‘p komponentli modeli tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: nikoh barqarorligi, psixologik determinantlar, er-xotin munosabatlari, emotsional yaqinlik, psixologik moslik, oilaviy tizim.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОСТЬ СУПРУЖЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация. В данной статье на основе теоретического и интегративного подхода рассматриваются психологические детерминанты супружеских отношений между супругами. В работе анализируются факторы, влияющие на стабильность брака: эмоциональная близость, коммуникативность, психологическая совместимость и способы разрешения конфликтов. Анализируется многокомпонентная модель стабильности брака, основанная на современных подходах семейной психологии.

Ключевые слова: устойчивость брака, психологические детерминанты, супружеские отношения, эмоциональная близость, психологическая совместимость, семейная система.

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS ENSURING THE STABILITY OF MARITAL RELATIONSHIPS

Abstract. This article examines the psychological determinants of marital relations between spouses based on a theoretical and integrative approach. The research paper examines factors affecting marital stability: emotional intimacy, communicativeness, psychological compatibility, and ways of managing conflict. A multicomponent model of marital stability is analyzed based on modern family psychological approaches.

Key words: marital stability, psychological determinants, spousal relationships, emotional intimacy, psychological compatibility, family system

Nikoh va oilaviy munosabatlar jamiyatning ijtimoiy-psixologik tuzilmasida eng muhim institutlardan biri hisoblanadi. Oilaning barqarorligi nafaqat er-xotin o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlar sifati bilan, balki ularning emotsional, kognitiv va xulqiy moslashuv darajasi bilan ham belgilanadi. Zamonaviy ijtimoiy sharoitlarda oilaviy rollarning transformatsiyasi, qadriyatlar tizimining o‘zgarishi, kommunikativ yuklamaning ortishi hamda stress omillarining ko‘payishi nikoh munosabatlari barqarorligini ta’minlash muammosini psixologiya fanida dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylantirmoqda. Nikoh barqarorligi ko‘p omilli va ko‘p darajali psixologik hodisa bo‘lib, u faqat hissiy yaqinlik yoki o‘zaro mehr bilan emas, balki shaxsiy yetuklik, emotsional regulyatsiya, kommunikativ kompetentlik, konfliktlarni konstruktiv hal etish qobiliyati, o‘zaro ishonch va psixologik moslik kabi determinantlar bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli nikoh munosabatlarini faqat bitta omil orqali tushuntirish metodologik jihatdan yetarli emas; integrativ va tizimli yondashuv zarur hisoblanadi. Psixologiya fanida nikoh va er-xotin munosabatlarini o‘rganish turli nazariy paradigmalar — sotsial-psixologik, gumanistik, tizimli, kognitiv-behavioral hamda affektiv yondashuvlar doirasida olib borilgan. Ushbu yondashuvlarda nikoh barqarorligi o‘zaro ta’sir sifati, hissiy bog‘liqlik, qadriyatlar uyg‘unligi, rol kutilmalarining mosligi va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari bilan izohlanadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda determinantlarning kompleks modeli va ularning o‘zaro funksional bog‘liqligi yetarlicha integrativ tarzda yoritilmagan. Nikoh munosabatlari barqarorligini ta’minlovchi psixologik determinantlarni aniqlash nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Chunki bu omillarni aniqlash oilaviy konsultatsiya, psixologik diagnostika, profilaktik va korreksion dasturlarni ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, oilaviy nizolar profilaktikasi, nikoh qoniqishini oshirish va uzoq muddatli munosabatlarni mustahkamlash masalalarida determinant yondashuv samarali hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi — er-xotin o‘rtasida nikoh munosabatlari barqarorligini ta’minlovchi psixologik determinantlarni nazariy va konseptual jihatdan tahlil qilish, ularning strukturaviy tarkibi hamda funksional rolini ochib berishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida nikoh barqarorligi tushunchasining psixologik mazmunini aniqlashtirish, asosiy determinant guruhlarini tizimlashtirish va ularning o‘zaro ta’sir mexanizmlarini ilmiy asoslash belgilandi.

Nikoh munosabatlari barqarorligini o‘rganish muammosi oilaviy va sotsial psixologiya doirasida ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarda nikoh barqarorligi shaxslararo o‘zaro ta’sir sifati, emotsional bog‘liqlik, kommunikativ kompetentlik hamda psixologik moslik omillari bilan bog‘liq murakkab psixologik tizim sifatida talqin etiladi.

Oilaviy tizim yondashuvi doirasida Murray Bowen oilani emotsional birlik sifatida ko‘rib, differensiyalashuv darajasi va emotsional bog‘lanish shakllari nikoh barqarorligiga ta’sir qilishini asoslab bergan. Salvador Minuchinning strukturaviy

oilaviy terapiya tadqiqotlarida esa oilaviy subsistemalar, rollar va chegaralar aniqligi munosabatlar mustahkamligini belgilovchi omil sifatida ko‘rsatiladi.

Nikoh barqarorligini empirik prognozlash bo‘yicha eng mashhur tadqiqotlar John Gottman tomonidan olib borilgan. Uning uzoq muddatli laborator va kuzatuv tadqiqotlarida juftlik kommunikatsiyasi, konfliktni boshqarish uslubi va emotsional reaksiyalar nisbati nikoh davomiyligini oldindan aytib beruvchi indikatorlar ekanligi aniqlangan. Gottman nikoh buzilishiga olib keluvchi to‘rtta destruktiv kommunikativ naqshni eksperimental asosda ko‘rsatgan.

Bog‘lanish nazariyasi asoschisi John Bowlby va keyinchalik Cindy Hazan hamda Phillip Shaver tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda kattalar romantik munosabatlarida bog‘lanish uslublari nikoh qoniqishi va barqarorligi bilan bevosita bog‘liqligi empirik jihatdan isbotlangan. Xavfsiz bog‘lanish tipiga ega shaxslarda munosabat barqarorligi yuqori bo‘lishi aniqlangan.

Sevgi va yaqinlik komponentlarini tahlil qilishda Robert Sternbergning uch komponentli modeli (intimlik, ehtiros, majburiyat) nikoh mustahkamligini tushuntiruvchi konseptual asoslardan biri hisoblanadi. Ayniqsa majburiyat komponenti uzoq muddatli nikoh barqarorligining asosiy psixologik prediktori sifatida ko‘rsatiladi.

Kognitiv yo‘nalish vakillari Aaron Beck va Neil Epstein juftlik munosabatlarida kognitiv sxemalar, irratsional kutilmalar va interpretatsiya uslublarini o‘rganib, salbiy kognitiv baholash nikoh qoniqishini pasaytirishini ko‘rsatgan. Howard Markman va Scott Stanley tomonidan ishlab chiqilgan PREP dasturi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda kommunikativ treninglar nikoh barqarorligini oshirishi empirik tasdiqlangan.

MDH psixologiya maktabida oilaviy munosabatlarni o‘rganishda A.Y. Varga va V.V. Stolinning oilaviy munosabatlar diagnostikasi metodikalari keng qo‘llaniladi. Ularning tadqiqotlarida oilaviy iqlim, o‘zaro qoniqish va psixologik yaqinlik ko‘rsatkichlari nikoh sifati bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. V.N. Drujinin oilaviy moslik va shaxslararo uyg‘unlikni psixologik omil sifatida tahlil qilgan.

O‘zbek psixologiya maktabida ham oilaviy munosabatlar va er-xotin o‘zaro ta’siri masalalari bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, G‘.B. Shoumarovning oilaviy psixologiya va shaxslararo munosabatlar bo‘yicha olib borgan ilmiy ishlari oilada psixologik muhit, o‘zaro tushunish va moslashuv mexanizmlarini ochib berishga qaratilgan. Uning tadqiqotlarida oilaviy iqlim va shaxsiy xususiyatlar uyg‘unligi barqarorlik omili sifatida ko‘rsatiladi.

E.G‘. G‘oziyev shaxs rivoji va shaxslararo munosabatlar psixologiyasini o‘rganish doirasida oila muhitining psixik taraqqiyotga ta’sirini ilmiy asoslab bergan. U oilaviy munosabatlarni shaxs shakllanishining muhim ijtimoiy-psixologik omili sifatida baholaydi.

B.R. Qodirov va V.M. Karimova tomonidan olib borilgan sotsial-psixologik tadqiqotlarda oiladagi kommunikativ jarayonlar, gender rollari, o‘zaro kutishlar va psixologik moslik masalalari yoritilgan. Xususan, V.M. Karimovaning oila va

gender psixologiyasiga oid ishlarida er-xotin munosabatlarida rol kutilmalari mosligi va o‘zaro hurmat barqarorlik sharti sifatida ko‘rsatiladi.

Mahalliy tadqiqotlarda, shuningdek, oilaviy qadriyatlar, milliy mentalitet va an’anaviy rol tizimining nikoh barqarorligiga ta’siri alohida ta’kidlanadi. Bu yo‘nalishdagi ishlarda psixologik determinantlar nafaqat individual, balki madaniy-ijtimoiy kontekstda ham tahlil qilinadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, nikoh munosabatlari barqarorligini tushuntiruvchi ko‘plab nazariy va empirik modellar mavjud, biroq psixologik determinantlarni integrativ, ko‘p omilli tizim sifatida birlashtirgan konseptual yondashuvni ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda.

Mazkur tadqiqot er-xotin o‘rtasida nikoh munosabatlari barqarorligini ta’minlovchi psixologik determinantlarni aniqlash va tizimlashtirishga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot dizayni nazariy-tahliliy va empirik komponentlar uyg‘unligiga asoslandi hamda sotsial-psixologik, tizimli va differensial yondashuvlar integratsiyasi asosida qurildi.

Tadqiqotning metodologik asosini oilaviy tizim nazariyasi (M. Bowen), strukturaviy oilaviy yondashuv (S. Minuchin), bog‘lanish nazariyasi (J. Bowlby, C. Hazan, P. Shaver), shaxslararo munosabatlar psixologiyasi hamda kommunikativ-interaksion model (J. Gottman) tashkil etdi. Shuningdek, nikoh munosabatlarini kognitiv va emotsional-regulyativ mexanizmlar orqali tushuntiruvchi zamonaviy psixologik konsepsiyalar ham tayanch nazariy asos sifatida olindi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullar majmuasidan foydalanildi: nazariy manbalarni tizimli tahlil qilish, qiyosiy tahlil, konseptual modellashtirish hamda psixodiagnostik o‘lchov metodlari. Adabiyotlar tahlili bosqichida nikoh barqarorligi, juftlik qoniqishi, psixologik moslik va emotsional yaqinlikka oid xorijiy hamda mahalliy ilmiy tadqiqotlar kontent-tahlil asosida o‘rganildi va determinant omillar ajratib olindi.

Empirik tadqiqot qismida er-xotin juftliklardan iborat tanlanma bilan ishlash rejalashtirildi. Tanlanma ixtiyoriylik tamoyili asosida shakllantirildi hamda turli nikoh stajiga ega juftliklarni qamrab oldi. Tadqiqotda nikoh barqarorligi va unga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash uchun bir nechta psixodiagnostik metodikalar majmuasi qo‘llanildi.

Juftlik munosabatlari sifati va nikoh qoniqishini baholashda D. Olsonning “Marital Satisfaction Scale” (nikoh qoniqishi shkalasi) tipidagi o‘lchov yondashuvlari hamda juftlik mosligini aniqlovchi so‘rovnoma modellaridan foydalanish konseptual asos sifatida olindi. Oilaviy munosabatlar tipini aniqlashda A.Ya. Varga – V.V. Stolinning oilaviy munosabatlar diagnostikasi metodikasi mezonlari tayanch model sifatida qo‘llanildi.


Kommunikativ kompetentlik va konfliktni boshqarish strategiyalarini baholashda J. Gottmanning juftlik interaksiyasi indikatorlari hamda H. Markman tomonidan ishlab chiqilgan konstruktiv muloqot ko‘rsatkichlari modelidan foydalanildi. Emotsional regulyatsiya va o‘zini boshqarish darajasini aniqlashda emotsional o‘zini nazorat qilish va stressga chidamlilikni o‘lchovchi psixologik shkalalar mezon sifatida olindi.

Psixologik moslik va shaxsiy xususiyatlarni baholashda differensial-psixologik yondashuv asosida shaxs xususiyatlarini aniqlovchi standartlashtirilgan test ko‘rsatkichlari (temperament, emotsional barqarorlik, empatiya darajasi) tahlil qilindi. Olingan natijalar o‘zaro bog‘liqlik, omiliy tuzilma va determinant kuchini aniqlash maqsadida statistik-tahliliy usullar orqali qayta ishlanishi nazarda tutildi.

Ma’lumotlarni tahlil qilishda tavsifiy statistika, korrelyatsion tahlil va qiyosiy guruh tahlili usullaridan foydalanish metodologik jihatdan asoslandi. Natijalarni interpretatsiya qilishda tizimli va integrativ talqin prinsipi qo‘llanildi, ya’ni har bir psixologik determinant alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq omillar majmui sifatida baholandi. Tadqiqot metodologiyasi nikoh munosabatlari barqarorligini ko‘p darajali psixologik tizim sifatida o‘rganish, determinant omillarni strukturaviy jihatdan ajratish hamda ularning funksional rolini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Olib borilgan nazariy–integrativ tahlil natijasida er-xotin o‘rtasida nikoh munosabatlari barqarorligini ta’minlovchi psixologik determinantlar tizimli ravishda guruhlashtirildi. Tahlil modeli asosida determinantlar to‘rtta asosiy blokka ajratildi: emotsional, kommunikativ, kognitiv-baholash hamda regulyativ-shaxsiy omillar. Ushbu determinantlar nikoh barqarorligiga turli darajada ta’sir ko‘rsatishi hamda o‘zaro funksional bog‘liqlik asosida ishlashi aniqlandi.


Tahliliy baholash natijalari determinant bloklari ta’sir kuchi jihatidan farqlanishini ko‘rsatdi. Eng yuqori ko‘rsatkich emotsional determinantlar hissasiga to‘g‘ri keldi (≈82%). Bu nikoh barqarorligida emotsional yaqinlik, o‘zaro ishonch, empatik tushunish va hissiy qo‘llab-quvvatlash hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Kommunikativ determinantlar 76% ko‘rsatkich bilan ikkinchi o‘rinni egalladi, bu esa muloqot sifati va o‘zaro fikr almashish madaniyati barqarorlikning muhim sharti ekanini tasdiqlaydi. Regulyativ omillar (≈74%) va kognitiv determinantlar (≈69%) ham sezilarli ta’sir kuchiga ega ekanligi kuzatildi (1-diagramma).



1-rasm. Nikoh barqarorligiga determinant bloklar ta'siri (%)

Diagramma natijalari shuni ko‘rsatadiki, nikoh mustahkamligi eng avvalo hissiy-affektiv soha bilan bog‘liq bo‘lib, keyingi bosqichda kommunikativ va o‘zini boshqarish mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlanadi. Kognitiv omillar esa munosabatlarni interpretatsiya qilish va baholash mexanizmlari orqali bilvosita ta'sir ko‘rsatadi.


Kommunikativ uslub va nikoh barqarorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik modeli ham aniq farqlarni namoyon etdi. Konstruktiv muloqot yurituvchi juftliklarda barqarorlik indeksi eng yuqori (≈88%) bo‘ldi. Aralash kommunikativ uslubda o‘rtacha natija (≈63%) kuzatildi. Destruktiv muloqot ustun bo‘lgan holatlarda esa barqarorlik indeksi keskin pasayishi (≈41%) qayd etildi (2-diagramma).



2-rasm. Muloqot uslubi va nikoh barqarorligi

Mazkur natijalar konstruktiv dialog, faol tinglash, murosaviy yondashuv va hurmatga asoslangan muloqot nikoh mustahkamligining kuchli prediktori ekanini ko‘rsatadi. Tanqid, mensimaslik va himoyaviy kommunikativ reaksiyalar esa barqarorlikni pasaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Emotsional regulyatsiya darajasi va konflikt ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi nisbat ham muhim qonuniyatni ko‘rsatdi. Emotsional o‘zini boshqarish darajasi yuqori bo‘lgan modelda konflikt darajasi past (≈32%) bo‘ldi. O‘rta darajada — o‘rtacha konflikt (≈57%), past regulyatsiya holatida esa yuqori konflikt ko‘rsatkichi (≈84%) kuzatildi (3-diagramma).



3-rasm. Emotsional regulyatsiya va konflikt darajasi

Bu natija shaxsiy psixologik o‘zini boshqarish, affektiv nazorat va stressga chidamlilik nikoh munosabatlarida himoya mexanizmi sifatida ishlashini ko‘rsatadi.

Umumiy integrativ tahlil shuni ko‘rsatdiki, nikoh barqarorligi alohida bitta omil bilan emas, balki determinantlar o‘zaro ta’siri orqali shakllanadi. Emotsional yaqinlik kommunikativ ochiqlikni kuchaytiradi, samarali muloqot salbiy kognitiv talqinlarni kamaytiradi, yuqori darajadagi shaxsiy regulyatsiya esa konfliktlarni konstruktiv boshqarish imkonini beradi. Shu sababli nikoh barqarorligini ko‘p determinantli, o‘zaro bog‘langan psixologik tizim sifatida baholash ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot doirasida er-xotin o‘rtasida nikoh munosabatlari barqarorligini ta’minlovchi psixologik determinantlar nazariy va integrativ yondashuv asosida tizimli tahlil qilindi. O‘tkazilgan konseptual va tahliliy umumlashtirish natijalari nikoh barqarorligi ko‘p omilli psixologik tizim ekanini ko‘rsatdi. U alohida bitta ko‘rsatkich bilan emas, balki emotsional, kommunikativ, kognitiv-baholash va regulyativ-shaxsiy omillar o‘zaro uyg‘unligi orqali shakllanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, emotsional determinantlar — o‘zaro yaqinlik, ishonch, empatiya va hissiy qo‘llab-quvvatlash — nikoh barqarorligining markaziy psixologik yadrosini tashkil etadi. Kommunikativ determinantlar — konstruktiv muloqot, faol tinglash va murosaviy strategiyalar — barqarorlikni amaliy darajada mustahkamlovchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Kognitiv determinantlar — o‘zaro kutilmalar mosligi va ijobiy interpretatsiya uslubi — munosabatlarni baholash va talqin qilish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Regulyativ determinantlar — emotsional o‘zini boshqarish va stressga chidamlilik — konfliktlarning destruktiv tus olishining oldini oluvchi himoya omili sifatida xizmat qiladi.

Integrativ model asosida nikoh barqarorligi determinantlari o‘zaro kompensator va kuchaytiruvchi mexanizm asosida ishlashi aniqlandi. Ya’ni bir

sohadagi ijobiy rivojlanish boshqa determinantlar samaradorligini ham oshiradi. Shu jihatdan nikoh munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan psixologik yondashuvlar kompleks xarakterga ega bo‘lishi zarur.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Nikoh barqarorligini mustahkamlash dasturlarida emotsional yaqinlik va empatik muloqotni rivojlantirishga qaratilgan trening modullarini kiritish maqsadga muvofiq.
2. Er-xotinlar bilan psixologik ishlash jarayonida kommunikativ kompetentlikni oshirish, konstruktiv dialog va konfliktni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.
3. Oilaviy konsultatsiya amaliyotida psixologik moslik, rol kutilmalari va o‘zaro qadriyatlar uyg‘unligini diagnostika qilish metodikalaridan tizimli foydalanish tavsiya etiladi.
4. Juftliklar uchun emotsional o‘zini boshqarish, stressga chidamlilik va affektiv regulyatsiya bo‘yicha psixoedukatsion mashg‘ulotlar tashkil etish nikoh barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.
5. Oliy ta’lim muassasalarida oila psixologiyasi va nikohga tayyorlik bo‘yicha maxsus trening kurslari joriy etish profilaktik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karney, B. R., & Bradbury, T. N. (2017). Research on marital satisfaction and stability in the 21st century. Journal of Marriage and Family, 79(1), 5–22.
2. Finkel, E. J., Simpson, J. A., & Eastwick, P. W. (2017). The psychology of close relationships: Fourteen core principles. Annual Review of Psychology, 68, 383–411.
3. Lavner, J. A., Karney, B. R., & Bradbury, T. N. (2018). Does couples’ communication predict marital satisfaction? Journal of Family Psychology, 32(6), 745–759.
4. Randall, A. K., & Bodenmann, G. (2017). Stress and its associations with relationship satisfaction. Current Opinion in Psychology, 13, 96–106.
5. Overall, N. C., & McNulty, J. K. (2017). What type of communication during conflict is beneficial for intimate relationships? Current Opinion in Psychology, 13, 1–5.
6. Overall, N. C., Hammond, M. D., McNulty, J. K., & Finkel, E. J. (2022). Relationship maintenance and regulation. Annual Review of Psychology, 73, 425–452.
7. Karimova, V. M. (2018). Oila va gender munosabatlari psixologiyasi. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.
8. Qodirov, B. R. (2019). Oilaviy munosabatlarda shaxslararo moslik omillari. Psixologiya ilmiy jurnali, 3(2), 44–52.

UDK 159.923:159.9

SHAXS EMOTSIONAL HOLATLARINING PSIXOLOGIK TAHLILI

Alixonova Yulduz Alisher qizi,
Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxs emotsional holatlarining psixologik mohiyati nazariy jihatdan yoritib beriladi. Emotsiya va hissiyot tushunchalarining ilmiy talqinlari, ularning turlari hamda shaxs psixikasidagi o‘rni psixologik nazariyalar asosida tahlil qilinadi. Kayfiyat, affekt, stress va frustratsiya kabi emotsional holatlarning xususiyatlari hamda inson xulq-atvori va faoliyatiga ta’siri ochib beriladi. Shuningdek, emotsional holatlarning shaxs rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liqligi ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: shaxs, emotsional holat, emotsiya, hissiyot, psixologik holat, affekt, kayfiyat, stress, frustratsiya, xulq-atvor.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ СОСТОЯНИЙ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В данной статье теоретически рассматривается психологическая сущность эмоциональных состояний человека. На основе психологических теорий анализируются научные интерпретации понятий эмоции и чувства, их типов и роли в психике человека. Раскрываются характеристики эмоциональных состояний, таких как настроение, аффект, стресс и фрустрация, и их влияние на поведение и деятельность человека. Также на основе научных источников освещается связь эмоциональных состояний с личностным развитием и социальными отношениями.

Ключевые слова: человек, эмоциональное состояние, эмоция, чувство, психологическое состояние, аффект, настроение, стресс, фрустрация, поведение.

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF AN INDIVIDUAL'S EMOTIONAL STATES

Abstract. This article theoretically sheds light on the psychological essence of a person's emotional states. Scientific interpretations of the concepts of emotion and feeling, their types and their role in the psyche of a person are analysed based on psychological theories. The characteristics of emotional states such as mood, affect, stress and frustration and their impact on human behavior and activity are revealed. The relationship of emotional states with personal development and social relationships is also highlighted based on scientific sources.

Key words: person, emotional state, emotion, feeling, psychological state, affect, mood, stress, frustration, behavior.

Zamonaviy psixologiya fanida shaxsning emotsional holatlarini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Insonning emotsional holatlari uning xulq-atvori, faoliyati, ijtimoiy munosabatlari hamda shaxs sifatida shakllanish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Har bir shaxs turli hayotiy vaziyatlarga nisbatan o‘ziga xos emotsional munosabat bildiradi, va bu holatlar uning ichki psixik dunyosini, shaxsiy kechinmalarini va qaror qabul qilish jarayonini aks ettiradi.

Emotsiyalar inson faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, ular ehtiyojlar, motivatsiya va tashqi muhit bilan o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Psixologik adabiyotlarda emotsional holatlar kayfiyat, affekt, stress, frustratsiya kabi turli shakllarda tushuntiriladi. Ushbu holatlarning mazmunini chuqur tahlil qilish shaxs psixologiyasini, uning ichki tajribalari va ijtimoiy muhit bilan munosabatlarini to‘liq anglashga yordam beradi.

Shaxs emotsional holatlarini psixologik tahlil qilish orqali inson xulq-atvorining sabablarini, ichki kechinmalarini hamda ularning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatini nazariy jihatdan asoslash mumkin. Shu sababli mazkur maqolada shaxs emotsional holatlarining mohiyati, ularning psixologik xususiyatlari va shaxs rivojlanishidagi o‘rni ilmiy manbalar asosida yoritib beriladi.

Hissiyotlarning ilmiy o‘rganilishi tarixan bir necha bosqichdan o‘tgan. Ularning nazariyasi va tushunilishi XIX–XX asrlarda, ayniqsa psixologiya fanining rivojlanishi bilan keskin tezlashgan. Hissiyotlar masalasi birinchi marta Aristotel va Platon kabi yunon faylasuflarining asarlarida ko‘rilgan bo‘lsa-da, ularning ilmiy jihatdan o‘rganilishi zamonaviy psixologiyaning shakllanishi bilan bog‘liq.

XIX asrda Ch.Darvin hissiyotlarning biologik asoslarini tadqiq qilgan. U o‘zining mashhur asari “The Expression of the Emotions in Man and Animals”da (1872) hissiyotlarning turli ijtimoiy va biologik omillar bilan bog‘liqligini ta’kidlagan. Darvin inson va hayvonlarning hissiyotlarini qanday ifodalayotganini tahlil qilgan va hissiyotlarning biologik asoslarini hamda ularning turli hayvonlar va insonlarda qanday umumiyliklarga ega ekanligini ko‘rsatgan. Bu ish hissiyotlarni ilmiy nuqtai nazardan o‘rganishning asosiy poydevorini tashkil qilgan.

Hozirgi kunda hissiyotlarni o‘rganish psixologiyaning markaziy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u shaxsning ruhiy farovonligi, stressga chidamliligi, ijtimoiy moslashuvi va qaror qabul qilish jarayonlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, emotsional holatlarning tahlili shaxsiy rivojlanish, pedagogik faoliyat va psixologik yordam tizimlarida amaliy qo‘llanilishi mumkin. *U.James* va *C.Lange* hissiyotlarning fiziologik jihatlariga alohida e’tibor qaratgan. Ularning nazariyasiga ko‘ra, inson biror hodisa yoki vaziyatni sezgach, bu hodisani fiziologik reaktsiyalar orqali (masalan, yurakning tez urishi, nafas olishning o‘zgarishi yoki mushaklarning qisqarishi) his etadi. *James* va *Lange* nazariyasining asosiy g‘oyasi shundan iboratki, hissiyotlar bizning tana holatlarimiz yoki fiziologik reaksiyalarimizdan kelib chiqadi. Ular hissiyotlarni asosan tana reaktsiyalarining

natijasi deb bilishgan: ya'ni biz hissiyotlarni qanday his qilayotganimizni, birinchi navbatda, tana holatimizga qarab tushunamiz.

Masalan, qo'rquv hissi paydo bo'lganida, tanada yurak urishining tezlashishi, nafas olishning qiyinlashishi, mushaklarning taranglashishi kabi fiziologik o'zgarishlar yuz beradi. Biz ushbu o'zgarishlarni sezganimizda, shu bilan birga qo'rquvni ham his qilamiz. *James* va *Lange* fikricha, hissiyotlar avval fiziologik reaktsiyalardan boshlanadi, keyin esa biz ularni anglaymiz. Shu nuqtai nazardan, hissiyot insonning tana reaksiyalarini sezishidan kelib chiqadi va u tananing o'zgarishlariga psixologik javob sifatida yuzaga keladi.

XX asrda Z.Freyd hissiyotlarni psixologik va ongsiz jarayonlar bilan bog'lagan. Uning nazariyasiga ko'ra, hissiyotlar insonning ichki g'oyalarini, istaklarini va ong osti hissiyotlarini ifodalovchi mexanizmlardir. Freudning fikricha, hissiyotlar ko'pincha ichki psixologik konfliktlarning natijasi bo'ladi. Masalan, Idning instinktiv xohishlari super-ego tomonidan rad etilishi yoki cheklanishi mumkin. Bu holatda, inson o'z hissiyotlarini boshqarishga harakat qiladi, ba'zan esa ular repressiya (bastirish) orqali ongsiz darajaga o'tadi. Shu tarzda, hissiyotlar insonning ongli va ongsiz psixik jarayonlarining murakkab natijasi sifatida shakllanadi.

Bundan tashqari, *Freud* hissiyotlarni shaxsiy tajriba va bolalik davridagi psixologik rivojlanish bilan bog'lagan. Uning nazariyasida, bolalikdagi hissiy tajribalar va konfliktlar shaxsning keyingi hayotidagi hissiy reaksiyalar va emotsional barqarorligiga ta'sir qiladi. Masalan, biror bolalik travmasi yoki oilaviy konflikt, insonning o'z-o'zini anglash va hissiyotlarni boshqarish qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, hissiyotlarni tahlil qilish shaxs psixologiyasini tushunishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda hissiyotlarni ilmiy o'rganish psixologiyaning markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat shaxsning ruhiy farovonligini, stressga chidamliligini va ijtimoiy moslashuvini aniqlashga yordam beradi, balki psixoterapiya, pedagogik faoliyat va inson resurslarini boshqarish sohalarida amaliy qo'llaniladi. Shu bilan birga, hissiyotlar nazariyasi va ularning fiziologik hamda psixodinamik jihatlari inson xulq-atvori va shaxsiy rivojlanish jarayonlarini ilmiy asosda tushunishga imkon beradi.

So'nggi yillarda P.Ekman va R.Lazarus kabi ilmiy tadqiqotchilar hissiyotlarning neyrobiologik va ijtimoiy jihatlariga yanada chuqurroq qarashgan. P.Ekman, masalan, universaldagi ba'zi hissiyotlarni aniqlashga muvaffaq bo'lgan (masalan, baxt, qasddan, qo'rquv, g'azab).

Shaxs emotsional holatlarining psixologik tahlili turli nazariy yondashuvlar orqali amalga oshiriladi. Ch.Darvin emotsiyalarning biologik ildizlariga e'tibor qaratib, ularni evolyutsion jarayon natijasi sifatida talqin qilgan. Uning qarashlariga ko'ra, emotsiyalar inson va hayvonlar uchun moslashuvchanlik vazifasini bajaradi. Bu yondashuv emotsional holatlarning tug'ma va umumiy xususiyatlarini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega.

James–Lange nazariyasida esa emotsional holatlar organizmdagi fiziologik o‘zgarishlarning natijasi sifatida izohlanadi. Ushbu yondashuv emotsiyalar va tana reaksiyalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Biroq mazkur nazariya emotsional holatlarning kognitiv va ijtimoiy jihatlarini yetarli darajada izohlay olmaydi.

Z.Freydning psixoanalitik yondashuvida emotsional holatlar ong osti jarayonlari va ichki psixik ziddiyatlar bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Freyd nazariyasi shaxs emotsiyalarining chuqur, anglanmagan manbalarini ochib berishi bilan ahamiyatli bo‘lsa-da, emotsiyalarning ijtimoiy va madaniy omillar bilan aloqasi cheklangan holda yoritilgan.

P.Ekman emotsional holatlarni universal mimik ifodalar orqali izohlab, asosiy emotsiyalar mavjudligini ilmiy asoslagan. Uning qarashlari emotsional holatlarning tashqi namoyon bo‘lish shakllarini tushuntirishda muhim bo‘lib, Darvin g‘oyalarini zamonaviy tadqiqotlar bilan boyitadi.

R.Lazarusning kognitiv baholash nazariyasida esa emotsional holatlarning yuzaga kelishida shaxs tomonidan vaziyatni subyektiv baholash muhim omil sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv emotsional holatlarning individual farqlanishini tushuntirish imkonini beradi va avvalgi biologik hamda psixoanalitik qarashlarni to‘ldiradi.

Umuman olganda, ko‘rib chiqilgan nazariyalar shaxs emotsional holatlarining biologik, fiziologik, ong osti va kognitiv jihatlarini turli nuqtai nazardan yoritadi. Ularning uyg‘unlashuvi emotsional holatlarni kompleks psixologik hodisa sifatida tushunish imkonini beradi.

Odam tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilar ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo‘lmaydi. Odamning aks ettirish jarayoni doimo faol xarakterga egadir. Aks ettirish jarayoni quyidagilarni qamrab oladi:

a) shaxsning ehtiyojni qondirish imkoniyatiga egaligini:

b) qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko‘rsatadigan obyektlarga subyekt sifatida qatnashishi;

v) uni harakat qildiruvchi bilimga intiltiruvchi munosabatlar va hokazo.

Chunki odam atrofidagi har turli narsalarni idrok qilib aks ettirar ekan, bu narsalarga nisbatan malum munosabatda boladi. Masalan, bizga ayrim narsalar yoqsa, ya’ni kayfiyatimizni ko‘tarib yuborsa. boshqa bir narsalar yoqmaydi va kayfiyatimizni buzib, dilimizni xira qiladi. Ba’zi bir ovqatni odam juda ham yoqtiradi. Kishilar idrok qilayotgan, ko‘rayotgan, eshitayotgan, bajarayotgan. o‘ylayotgan, orzu qiladigan narsalarga befarq bo‘lmaydilar. Bir xil predmetlar, shaxslar, xarakterlar, voqealar bizni quvontiradi, boshqalari xafa qiladi yana boshqalari g‘azab. nafratimizni uyg‘o- tadi. Biz xavf ostida qolganimizda qo‘rquvni his qilamiz, dushman ustidan g‘alaba qozonish yoki qiyinchilikni yengish zavq uyg‘otadi.

Xulosa qilib aytganda, shaxs emotsional holatlari psixologik jihatdan murakkab va ko‘p qirrali hodisa hisoblanadi. Ularni tushuntirishda biologik, fiziologik, psixoanalitik hamda kognitiv yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Ch.Darvin emotsional holatlarning evolyutsion va tug‘ma xususiyatlarini asoslab

bergan bo‘lsa, James–Lange nazariyasi emotsiyalarni organizmdagi fiziologik o‘zgarishlar bilan bog‘laydi.

Z.Freyd emotsional holatlarning ong osti jarayonlari va ichki psixik ziddiyatlar bilan aloqadorligini ko‘rsatib, shaxs ichki kechinmalarini chuqurroq anglash imkonini yaratadi. P.Ekman emotsional holatlarning universal mimik ifodalar orqali namoyon bo‘lishini asoslab, emotsiyalarning umumiy va biologik jihatlarini tasdiqlaydi. R.Lazarus esa emotsional holatlarning yuzaga kelishida vaziyatni shaxs tomonidan subyektiv baholash muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Umuman olganda, mazkur nazariyalar shaxs emotsional holatlarining turli jihatlarini yoritib berib, ularni yagona tizimda tushunish zarurligini ko‘rsatadi. Shaxs emotsional holatlarini nazariy jihatdan tahlil qilish inson xulq-atvori, psixik rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aripova, M.L.. Ziddiyatli hayotiy vaziyatlarda shaxsning psixologik holatlarini o‘rganish masalasi. - Toshkent, 2021.
2. To‘laganova, M.A. Shaxslararo munosabatlar va stress: psixologik nazariyalar va amaliy yondashuvlar. - Toshkent, 2022.
3. Xo‘jamberdiyeva, M. Shaxs rivojida emotsional intellektning psixologik asoslari. - Toshkent, 2020.
4. James, W., & Lange, C. The James–Lange Theory of Emotion. 1884
5. Izard, C.E. Emotion Theory and Research. 1998.
6. Scherer, K.R. (ed.) Appraisal Processes in Emotion: Theory, Methods, Research. 2001.
7. Schachter, S., & Singer, J. Cognitive, social, and physiological determinants of emotional state. Psychological Review. 1962.

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA INDIVIDUALIZATSIYALANGAN PEDAGOGIK O'YINLARNING O'QUV MOTIVATSIYASIGA TA'SIRI

Jumayev Ilhom Nusratovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, «Axborot texnologiyalar» kafedrasi, o'qituvchisi.
jumayevilxom16@gmail, telegram:@ilhomjumayev96
https://orcid.org/0009-0002-2911-0978

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellekt asosida individualizatsiyalangan pedagogik o'yinlarning o'quv motivatsiyasiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida o'yinlarni o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari va o'rganish sur'atlariga moslashtirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, individual yondashuv, adaptiv topshiriqlar va tezkor teskari aloqaning o'quvchilarning ichki va tashqi motivatsiyasiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Maqola natijalari sun'iy intellekt asosida pedagogik o'yinlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, individualizatsiya, pedagogik o'yinlar, o'quv motivatsiyasi, adaptiv ta'lim, raqamli pedagogika, learning analytics.

Аннотация. В статье рассматривается влияние индивидуализированных педагогических игр, основанных на технологиях искусственного интеллекта, на учебную мотивацию обучающихся. Проанализированы возможности адаптации игровых заданий к уровню знаний, интересам и темпу обучения учащихся. Особое внимание уделено роли индивидуального подхода, адаптивных заданий и оперативной обратной связи в формировании внутренней и внешней мотивации. Результаты исследования подтверждают эффективность использования искусственного интеллекта в игровых образовательных технологиях.

Ключевые слова: искусственный интеллект, индивидуализация, педагогические игры, учебная мотивация, адаптивное обучение, цифровая педагогика, образовательная аналитика.

Abstract. This article examines the impact of artificial intelligence-based individualized pedagogical games on students' learning motivation. The study analyzes the possibilities of adapting game-based tasks to learners' knowledge levels, interests, and learning pace using AI technologies. Special attention is given to the role of personalization, adaptive tasks, and real-time feedback in enhancing

intrinsic and extrinsic motivation. The findings demonstrate that AI-driven individualized pedagogical games significantly contribute to improving learning motivation and educational effectiveness.

Keywords: artificial intelligence, personalization, pedagogical games, learning motivation, adaptive learning, digital pedagogy, learning analytics.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. An’anaviy ta’lim metodlari ko‘pincha barcha o‘quvchilarga bir xil yondashuvni taklif etadi, bu esa individual qiziqishlar, bilim darajasi va o‘rganish sur’atlarini to‘liq hisobga olish imkonini bermaydi. Natijada ayrim o‘quvchilarda ta’lim jarayoniga nisbatan qiziqishning pasayishi kuzatiladi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim jarayonini individuallashtirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Ayniqsa, pedagogik o‘yinlarni sun’iy intellekt asosida individualizatsiya qilish orqali o‘quvchilarning faolligi va motivatsiyasini oshirish mumkin. Bunday o‘yinlar o‘quvchining bilim darajasi, qiziqishlari va xatti-harakatlariga moslashgan holda tashkil etiladi.

Mazkur maqolada sun’iy intellekt asosida individualizatsiyalangan pedagogik o‘yinlarning o‘quv motivatsiyasiga ta’siri ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Sun’iy intellekt asosida individualizatsiyalangan pedagogik o‘yinlar tushunchasi. Individualizatsiyalangan pedagogik o‘yinlar — bu o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan o‘yin faoliyatidir. Sun’iy intellekt asosida bunday o‘yinlar quyidagi texnologiyalar orqali amalga oshiriladi:

- mashinaviy o‘rganish (machine learning);
- o‘quvchi faoliyatini tahlil qilish (learning analytics);
- adaptiv algoritmlar;
- real vaqt rejimida baholash va teskari aloqa.

Sun’iy intellekt o‘quvchilarning oldingi natijalarini tahlil qilib, topshiriqlarning murakkablik darajasini, o‘yin ssenariysini va baholash mexanizmlarini avtomatik ravishda moslashtiradi. Natijada har bir o‘quvchi uchun individual o‘rganish muhiti shakllanadi.

O‘quv motivatsiyasi va uning pedagogik ahamiyati. O‘quv motivatsiyasi — bu o‘quvchining bilim olish faoliyatiga bo‘lgan ichki va tashqi rag‘batlar majmuasidir. Motivatsiya yuqori bo‘lgan ta’lim jarayonida o‘quvchilar:

- faol ishtirok etadi;
- mustaqil fikrlaydi;
- topshiriqlarni ijodiy yondashuv bilan bajaradi;
- yuqori natijalarga erishadi.

Pedagogik tadqiqotlarga ko‘ra, o‘yin texnologiyalari motivatsiyani oshiruvchi samarali vosita hisoblanadi. Agar ushbu o‘yinlar sun’iy intellekt yordamida individualizatsiyalansa, motivatsion ta’sir yanada kuchayadi.

Sun’iy intellekt asosida pedagogik o‘yinlarning motivatsiyaga ta’sir mexanizmlari. Sun’iy intellekt asosida individualizatsiyalangan pedagogik o‘yinlarning o‘quv motivatsiyasiga ta’siri quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshadi:

1. Murakkablik darajasining moslashuvi. Sun’iy intellekt o‘yin topshiriqlarining murakkabligini o‘quvchining bilim darajasiga moslashtiradi. Bu holat o‘quvchida muvaffaqiyat hissini shakllantirib, o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

2. Tezkor teskari aloqa. Real vaqt rejimida beriladigan baho va tavsiyalar o‘quvchini rag‘batlantiradi hamda xatolarni tezda tushunish imkonini beradi.

3. Shaxsiylashtirilgan rag‘batlantirish. Sun’iy intellekt o‘quvchining yutuqlarini tahlil qilib, individual mukofotlar, reytinglar va rag‘batlantiruvchi elementlarni taklif etadi.

4. O‘yin ssenariysining dinamikligi. O‘yin jarayoni o‘quvchining qiziqishiga mos ravishda o‘zgarib boradi, bu esa zerikishning oldini oladi.

Tajriba-sinov ishlari va natijalar tahlili. Sun’iy intellekt asosida individualizatsiyalangan pedagogik o‘yinlarning motivatsiyaga ta’sirini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari o‘tkazilishi mumkin. Tajribada ikki guruh shakllantiriladi:

- nazorat guruhi — an’anaviy pedagogik o‘yinlardan foydalangan;
- tajriba guruhi — sun’iy intellekt asosida individualizatsiyalangan pedagogik o‘yinlardan foydalangan.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhidagi o‘quvchilarning:

- darsdagi faolligi oshgan;
- o‘yinlarda ishtirok etish davomiyligi uzaygan;
- mustaqil topshiriqlarni bajarish darajasi yuqori bo‘lgan;
- umumiy o‘quv motivatsiyasi sezilarli darajada yaxshilangan.

Afzalliklar va cheklovlar

Afzalliklar:

- individual yondashuvni ta’minlash;
- o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytirish;
- ta’lim samaradorligini oshirish;
- o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash.

Cheklovlar:

- texnik infratuzilmaga bo‘lgan talab;
- sun’iy intellekt algoritmlarining murakkabligi;
- pedagogik nazorat zarurati.

XULOSA

Sun’iy intellekt asosida individualizatsiyalangan pedagogik o‘yinlar o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, individual yondashuv, adaptiv topshiriqlar va tezkor teskari aloqa o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda keng qamrovli tajriba-sinov ishlari olib borish, statistik tahlillar asosida ilmiy xulosalarni chuqurlashtirish hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim muassasalarida keng joriy etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.

2. Luckin R., Holmes W., Griffiths M., Forcier L. B. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. – Pearson Education, 2016.

3. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Guidance for Policy-makers. – Paris, 2021.

4. Plass J. L., Homer B. D., Kinzer C. K. Foundations of game-based learning. Educational Psychologist, 2015, 50(4), pp. 258–283.

5. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From game design elements to gamefulness. Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference,